

9895



ISBN 978-9910-573-83-5



9 789910 573835


TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARI
MANBALARINI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI

ADILOV M. M.

ADILOV M. M.

TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARI MANBALARINI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI

TOSHKENT



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

ADILOV MIRKOMIL MIRALIMOVICH

**TIJORAT BANKLARI KREDIT
QO‘YILMALARI
MANBALARINI OPTIMALLASHTIRISH
MASALALARI**

Monografiya

TOSHKENT–2026

UO`K: 373.092
KBK: 65.262.1(50`)
A 31

Adilov M. M. Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish masalalari. – T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2026. 144 bet.

ISBN 978-9910-573-83-5

Monografiya Raqamli iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari mamlakat moliya tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat pul mablag'larining aylanishini ta'minlaydi, balki real sektorning investitsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashda, tadbirkorlikni rivojlantirishda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kredit qo'yilmalari hajmi va sifati bank faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Shu bois, tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish masalasi hozirgi kunda nazariy hamda amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bank resurslarining barqarorligi va ularning optimal taqsimlanishi, kredit portfelining diversifikatsiyasi, shuningdek, kredit resurslari narxini pasaytirish orqali iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan moliyalashtirish hajmini oshirish – bugungi bank tizimi oldida turgan muhim strategik vazifalardandir. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining kredit resurslari manbalarini tahlil qilish, ularni shakllantirishda zamonaviy mexanizmlarni joriy etish va optimallashtirish yo'llarini aniqlash iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida resurs bazasini kengaytirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish, omonatlarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Biroq, bank resurslari tarkibida qisqa muddatli depozitlar ulushining yuqoriligi, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada shakllanmagani, shuningdek, kredit portfeli tuzilmasidagi nomutanosibliklar muammoni yanada chuqurlashtirmoqda.

Monografiya Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy xodimlar, moliya-kredit tashkilotlari va tijorat banklari va kredit tashkiloti xodimlari va ilmiy izlanuvchilar barcha qiziquvchilar uchun muljallangan.

Taqrizchilar:

Karimov N. – i.f.d. prof.;
Imomqulov T. – PhD., dots.

ISBN 978-9910-573-83-5

© «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2026

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan geomoliyaviy va geosiyosiy jarayonlar tijorat banklari moliyaviy resurslarini uzoq muddatli va arzon manbalardan jalb qilishni, ular bo'yicha tijorat banklari faoliyatida mavjud majburiyatlar riskini diversifikatsiyalashni hamda asosiy daromad manbai hisoblanadigan kredit qo'yilmalari samaradorligini oshirish va ularning manbalarini optimallashtirishni talab etmoqda. Xususan, tijorat banklarida kreditlash faoliyati uchun barqaror mablag'lar hajmining pastligi, riskli aktiv va muddatli passiv operatsiyalar o'rtasida o'zaro muvofqlikning yuqoriligi, majburiyatlar tarkibida depozit mablag'lari ulushining kamligi kabi dolzarb masalalar kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.¹

Jahon mamlakatlari Markaziy banklari, yirik moliya-sanoat xolding kompaniyalari va xalqaro Bazil qo'mitasi tijorat banklari moliyaviy resurslarini shakllantirish, kredit qo'yilmalari manbalarini samarali boshqarish usullari va uslubiyatini takomillashtirishga qaratilgan qator talablar, meyorlar va tamoyillar joriy etish yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, tijorat banklari moliyaviy resurslari tarkibida uzoq muddatga saqlanadigan, qiymati jihatidan arzon hisoblanadigan va turli manbalardan jalb qilish mexanizmlarini shakllantirish dolzarb vazifa sanaladi. Shuningdek, tijorat banklarining kreditlash faoliyatining rentabelligini oshirish maqsadida moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, banklarning likvidligini ta'minlash va barqaror foyda olish darajasini kafolatlash kabi masalalar ham bugungi kungacha yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmagan, aniq meyoriy talablar va qo'llanmalar yaratilmagan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va bank tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bank tizimi jami kapitali hozirgi vaqtga kelib, 2023-yilda 2017-yilga nisbatan 9,5 barobarga oshib, shu jumladan, ushbu vaqt mobaynida ustav kapitali 14,2 barobar ko'payib, mos

¹ Ortiqov U.D. (2023), "Tijorat banklari moliyaviy resurslari boshqarishni takomillashtirish", DSc. diss. Avtoreferat ma'lumotlari.

ravishda 80 trln. so‘m va 59 trln. so‘mga yetganligini alohida ta’kidlash lozim. Shu bilan birga, aholi va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish usullari va mexanizmlarini takomillashtirish natijasida hamda ularga ishonchning ortishi hisobiga ushbu davrda tijorat banklaridagi depozitlar umumiy hajmi 4,3 martaga oshib, jumladan, tijorat banklarida aholi omonatlarining miqdori 6,5 barobar oshganligini ta’kidlash lozim².

Alohida qayd etib o‘tish joizki, 2020-yilda boshlangan pandemiya hamda bugungi kunda davom etayotgan geosiyosiy tanglikka qaramasdan, O‘zbekiston bank tizimi mustahkamligi va bardoshlilik bilan rivojlanishni davom etmoqda. Biroq dunyo iqtisodiyotida bugungi kunda kuzatilayotgan murakkab vaziyat va uning rivojlanishi bilan bog‘liq noaniqliklar, yirik iqtisodiyotlar o‘rtasidagi tarqoqlik natijasida tijorat banklarining samarali faoliyat olib borishi va ularning xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha konseptual yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqish hamda tijorat banklari rentabelligini oshirish va barqaror foydaga erishish uchun kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etada.

Zamonaviy sharoitda tijorat banklari resurslarini boshqarishning nazariy asosida tijorat banklari aksiyalarining qiymatini oshirish, risk va foyda o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni samarali tashkil etish, uzoq muddatli va barqaror resurslar bilan ta‘minlash hamda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni darajasini pasaytirish kabi dolzarb masalalar yotadi. Shularni e‘tiborga olgan holda, keyingi yillarda mamlakatimizda tijorat banklari resurslari hajmini oshirish va barqarorligini ta‘minlash, kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirish hamda kredit portfeli daromadlilikini oshirish masalalariga Markaziy bank va hukumat tomonidan jiddiy e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston bank tizimiga xususiy kapitalni yanada ko‘proq jalb etish va tijorat banklarining moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, “Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish” kabi qator vazifalar belgilab qo‘yil-

² O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, “Pul-kredit siyosatining 2023-2024-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari” ma’lumotlari.

ganlagi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, jahonda geomoliyaviy va geosiyosiy jarayonlarning taranglashuvi oqibatida tijorat banklari resurslari tarkibida depozitlar ulushining pasayayotganligi, fond bozorining zaifligi, tijorat banklari aksiyalari va obligatsiyalarning jozibador emasligi, mamlakatimizda depozit va kredit foiz stavkalarining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish yo'nalishida ham ilmiy izlanishlar olib borish muhimligini belgilab bermoqda³.

Yuqoridagilarni inobatga olib, tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish dolzarb ekanligini ta'kidlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2020-yil 12-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmonlari, 2017-yil 12-sentabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3270-sonli, 2018-yil 23-martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli, 2018-yil 23-noyabrdagi "Kreditorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4026-sonli qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Pul-kredit siyosatining 2023-2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" ma'lumotlari.

I-BOB. TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARI MANBALARI SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalari, ularning tarkibi va tavsifi

Bozor munosabatlarining asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblangan bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish zamirida iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro bank tizimi talablariga mos keluvchi mahalliy tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “iqtisodiyotni rivojlantirishda puxta va barqaror bank-moliya tizimi ulkan ahamiyat kasb etadi. Biz aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank tizimiga ishonchini oshirmasdan turib, tijorat banklari moliyaviy resurslarining barqarorligini ta’minlay olmaymiz. Bank-moliya tizimida islohotlarni jadal davom ettirish, sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini keng joriy etish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda⁴.

Respublika iqtisodiyoti rivojlanishida boshlangan yangi davr tijorat banklari oldida dolzarb vazifalarni qo‘ymoqdaki, ularni yechimi tijorat banklarining kreditlash salohiyatini yanada kengaytirib, ular faoliyatining ishonchliligi va samaradorligini oshirish orqali amalga oshiriladi. Belgilangan vazifalarni bajarish uchun banklarda barqaror resurs bazasini kengaytirish, depozit va omonatlarning yangi turlarini muntazam ravishda joriy qilish, aholidan jamg‘arma va muddatli depozitlarni qabul qilish hamda kredit qo‘yilmalarini manbalarini samarali boshqarish tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida tijorat banklari kreditlash hajmining o‘shishiga erishish mumkin. Buning samarasi esa tijorat banklari tomonidan korxonalarining investitsiya loyihalarini yanada ko‘proq moliyalash imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Shularni e’tiborga olib, keyingi yillarda O‘zbekistonda tijorat banklarining moliyaviy resurslari hajmini oshirish va banklar bar-

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2021.

qarorligini ta'minlash masalalariga Markaziy bank va hukumat tomonidan jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, kreditlashni faqat bozor tamoyillari asosida amalga oshirish, tijorat banklari xizmat ko'rsatish faoliyatini modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo'lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish" kabi dolzarb vazifalar aniq belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni ta'kidlash lozim, tijorat banklari faoliyatida kredit qo'yimalari manbalarini shakllantirishning nazariy yondashuvlari va ularning evolyusion rivojlanishi, kredit qo'yimalari manbalarini boshqarish zarurligi va uning bank faoliyatida tutgan o'rni hamda kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirish mezonlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish, xususan kredit qo'yimalari manbalarini shakllantirishning nazariy asosida banklarning barqarorligini oshirish va likvidlikni ta'minlash, tijorat banklarini uzoq muddatli va barqaror resurslar bilan taminlash, risk va foyda o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni samarali tashkil etish hamda bank aksiyalari qiymatini oshirish, vujudga kelishi mumkin bo'lgan risklar darajasini pasaytirish kabi dolzarb masalalar yotadi.⁵

Tijorat banklarining barqarorligi va ular faoliyatining rentabelligi – moliyaviy resurslarning shakllanishi va tuzulishiga charbarchas bog'liq hisoblanadi. Tijorat banklari barqarorligi turlarini tahlil qilib chiqqanimizda, ular ichida eng asosiysi, barqarorlik bazasi bu – "moliyaviy barqarorlik" ekanligini ko'rishimiz mumkin. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida "moliyaviy barqarorlik" tijorat banklari faoliyatining birlamchi va asosiy turi ekanligi yaqqol

⁵ Ortiqov U.D. (2023), "Tijorat banklari moliyaviy resurslari boshqarishni takomillashtirish", DSc. diss. Avtoreferati ma'lumoti.

namoyon bo‘ldi. Birinchidan, “moliyaviy barqarorlik” tijorat banklari faoliyatida boshqa barqarorlik bloklarni ishlashiga asos bo‘lib xizmat qiladi va bazasi hisoblanadi. Bunga sabablardan biri bu – pul oqimidir. Banklarning mustahkam moliyaviy holati uning pul oqimi, shuningdek, bankning o‘z mablag‘lari hajmi, jalb qilingan mablag‘larning rentabelligi, daromadlar va foyda miqdori, likvidlilik holati kabi integral ko‘rsatkichlar asosida aniqlanadi. Ikkinchidan, banklar umumiy faoliyatiga baho berish imkoni paydo bo‘ladi.

Ta’kidlash lozim, moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lgan bank har qanday qiyin, katta yo‘qotishlar yuzaga kelganda ham, o‘zini tezda tiklashi, bozorda mustahkam turishi muhim ahamiyatga ega sanaladi. Bank sektorining samaradorligi va barqarorligini ta’minlash masalasi bank tizimi uchun ham juda dolzarb hisoblanadi. Fikrimizcha, tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarining optimallashtirish banklar moliyaviy barqarorligining oshirilishiga muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Quyida keltirilgan jadvalda tijorat banklarining barqarorlik turlari va uning mazmun-mohiyatini ko‘rib chiqamiz.

Moliyaviy barqarorlikda banklar ixtisoslashuvi va universallashuvi yoki tashkiliy-strukturaviy barqarorlikni o‘z ichiga oladi. Chunki moliyaviy barqarorlik asosida boshqa turlar o‘z-o‘zidan barqarorligini ta’minlashiga xizmat qilishi yaqqol ko‘rinadi. Iqtisodchi olimlar Yu.G.Veshkin va G.L.Avagyanlar ta’kidlaganidek: “tijorat banklari moliyaviy barqarorligini banklar daromadlarining ular xarajatlaridan oshgan qismi sifatida qarash kerak”. Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim qismi sifatida ular shakllantirgan moliyaviy resurslarning bahosi va ularga qilinadigan xarajatlarga bog‘liq ekanligi hisoblanadi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi tijorat banklari resurslarining ham turli-tumanlashuviga olib kelmoqda. Banklar uchun yuqori rentabellikka erishishda hozirgi iqtisodiy sharoitdan kelib chiqqan holatda kredit qo‘yilmalarini manbalarini to‘g‘ri shakllantirish va optimallashtirish masalasi muhim bo‘lib hisoblanadi. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi va banklarda barqaror daromad uzluksizligi birinchi navbatda tijorat banklarining “moliyaviy resurslar” bilan qanchalik ta’minlanganligiga bog‘liq. Iqtisodiy manbalarda

“resurs” so‘zi turli xil ma’nolarda, ya’ni, tabiat resurslari, moliyaviy resurslar, iqtisodiy resurslar, inson resurslari va boshqa ko‘rinishlarda uchraydi. Iqtisodiy resurslarning asosiy qismini moliyaviy resurslar tashkil etib, ular iqtisodiyotning rivojlanishini ta’minlash uchun foydalaniladigan pul-kredit va budjet mablag‘larini tashkil qiladi.⁶

1-jadval

Tijorat banklari faoliyatida barqarorlik turlari va uning iqtisodiy mazmuni⁷

<i>Barqarorlik turlari</i>	<i>Mohiyati va mazmuni</i>
Moliyaviy barqarorlik	Tijorat banklari faoliyatining integral ko‘rsatkichlari bo‘lib, bank moliyaviy-iqtisodiy holatini aks ettiradi, bular: o‘z mablag‘lari hajmi, kapital strukturasi, daromad va foyda miqdori, kapitalga nisbatan foyda miqdori, likvidlilik va boshqalar
Tijoriy (tijorat) barqarorlik	Tijorat banklarining bozor infratuzilmasiga moslashganligi, bular jumlasiga: bankning davlat bilan aloqasi, banklararo munosabatlardagi ishtiroki, kreditorlar, mijozlar va omonatchilar bilan munosabatlar sifati, bankning ijtimoiy ahamiyati va boshqalar
Funksional barqarorlik	1. Bank ixtisoslashuvi bo‘yicha 2. Bank universallashtuvi bo‘yicha
Tashkiliy-strukturaviy barqarorlik	Bank alohida faoliyatlarini funksional-texnologik hujjatlar asosida tashkil etilishi
Umumiy barqarorlik	Tijorat banklari aksionerlik kapitali hajmi bilan aniqlanadi

Banklar foydasi - ular umumiy faoliyatiga baho berishning asosiy bir ko‘rsatkichi hisoblanadi, lekin, banklar moliyaviy barqarorligini aniqlash uchun uni tashkil etuvchi manbalariga asosiy e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari faoliyatida asosiy

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, “Pul-kredit siyosatining 2023-2024-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari” ma’lumotlari.

⁷ Boshqa olib borilgan izlanishlar asosida mustaqil tayyorlandi.

daromad manbai kredit operatsiyalaridan keladi. Shu bois, kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirishni ilmiy jihatdan chuqur tahlil etish, turli iqtisodchi olimlarning qarashlari, ilmiy maqolalari, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarini chuqur o'rganish tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishidan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari kredit qo'yimalari manbalarining mohiyati va konsepsiyasi to'g'risida bir qator ilmiy yondashuvlar va qarashlar mavjud. Tijorat banklari kredit qo'yimalari manbalari va ularning tasnifi ilmiy adabiyotlardagi asosiy talqinlarini quyida keltirilgan jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

Kredit qo'yimalari manbalari mohiyati va konsepsiyasi bo'yicha ilmiy yondashuvlar⁸

D.Polfreman, F.Fordlar	Kredit faoliyatini tashkil qilishda bankning kreditlash uchun resurslari passiv operatsiyalar sifatida namoyon bo'ladi va bankning aksionerlari mablag'lari hamda jamg'armachilarining mablag'laridan tashkil topadi
E.Rid, R.Kotter, E.Pill	Bankning kredit manbalari nafaqat qarz majburiyatlari yoki egalik huquqini olish uchun mablag' jalb qilish sanaladi, balki bankning daromad keltiradigan zaxira va imkoniyatlari hisoblanadi
O.P.Lavrushin	Tijorat banklarining moliyaviy resurslari bank ixtiyorida bo'lgan o'z va jalb qilingan resurslari yig'indisi bo'lib, uning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda, asosan kreditlash faoliyati uchun ishlatiladi
G.S.Panova	Kredit qo'yimalari manbalari bank mijozining bankka ma'lum bir talablari borligini tasdiqlovchi hisoblar yoki bitimlar va shartnomalarga asosan mijozlarning banklarda qo'ygan pul mablag'laridan shakllanadi
B.D.Boboyev	Bankning moliyaviy resurslari bank faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'z va jalb qilingan mablag'laridan tashkil topgan, shuningdek, bankning daromad olishiga asos bo'luvchi imkoniyatlar majmuidir

⁸ Boshqa olib borilgan tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

U.D.Ortiqov	Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalari bankning o'z mablag'lari va ularga tenglashtirilgan mablag'lar, jalb qilingan hamda qarz mablag'laridan tashkil topadi
Sh.Z. Abdullayeva	Bankning moliyaviy resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali shakllanadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi

Yuqorida berilgan tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalari va ularning tasnifi asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin: "tijorat banklari moliyaviy resurslari, xususan kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur resurslar ma'lum shartlar asosida jalb qilingan moliyaviy mablag'lar va bankning o'z mablag'laridan tashkil topib, bank daromadini shakllantirish maqsadida aktiv operatsiyalarga yo'naltirilgan moliyaviy manba hisoblanadi".

Iqtisodchi olim Boboyev B.D. (2020) izlanishlari shuni ko'rsatadiki, "kredit qo'yilmalari manbalarining holati va uning tarkibiy tuzulishi bankning kreditlash faoliyati natijalarini oldindan belgilab beradi, shuning uchun doimo kreditlashga zarur bo'lgan resurslarni monitoring o'tkazilishi va qo'yilgan maqsadlardan chetga chiqishlarni aniqlash, kelajakda ularni o'rta muddatda oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini yaratib beradi. Shu bilan birga kreditlash faoliyati uchun zarur resurslarining monitoringi bankning moliyaviy mablag'lar shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan siyosatidagi mavjud kamchiliklarni ko'rsatadi va uni qayta ko'rib chiqish zarurligiga olib keladi.

Ortiqov U.D. (2023) ilmiy ishlari keltirilishicha: "tijorat banklarida kredit qo'yilmalari manbalarini shakllantirish bank siyosatini amalga oshirishning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Kreditlash uchun zarur resurslarni topish, buning zamirida kredit portfelini shakllantirish bank kredit faoliyatining umumiy maqsadi shakllantirilganda, ya'ni kredit siyosati strategiyasi ishlab chiqilgandan so'ng amalga oshiriladi". Shu bilan birga, kredit siyosati strategiyasini ishlab chiqqan tijorat banki kredit qo'yilmalari manbalarini samarali boshqa-


rish va kreditlash faoliyatining asosiy maqsadlarini belgilab, bankning asosiy daromad manbai kredit portfelini shakllantirishga kirishadi⁹.

Tijorat banklari boshqa xo‘jalik subyektlari kabi o‘zining xo‘jalik va tijorat faoliyatini ta‘minlash uchun ma‘lum miqdorda pul mablag‘lariga, ya‘ni resurslariga ega bo‘lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Bankning asosiy vazifalaridan biri bo‘sh pul mablag‘larini mumkin qadar ko‘proq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat. Yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh mablag‘laridan foydalanish orqali, tijorat banklari ular yordamida xalq xo‘jaligining va aholining qo‘shimcha aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi, pullarni kapitalga aylanishiga yordam beradi. Tijorat banklari moliyaviy mablag‘larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo‘lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turadi.

“Kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirish” tushunchasi deyarli mahalliy olimlarning tadqiqot ishlarida, shuningdek boshqa mahalliy manbalarda uchramaydi. Kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirish bankning kreditlash jarayonini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatini anglatib, kreditlash natijalarining rentabelligini oshirishga yo‘naltiradigan ichki siyosat hisoblanadi. Chet ellik mualliflar kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirishni amalga oshirishga imkon beradigan vazifalar, ya‘ni kerakli rentabellikni ta‘minlash, zarur kredit resurslari shakllantirish va uning strukturasi saqlab qolish, bank faoliyatini rivojlantirish uchun qo‘yadigan strategiyalar bilan kredit qo‘yilmalarini shakllantirishni ifodalashini ta‘kidlab o‘tganlar.

Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirishning asosiy maqsadlarini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

⁹ Ortiqov U.D. (2023), “Tijorat banklari moliyaviy resurslari boshqarishni takomillashtirish”, DSc. diss. Avtoreferat ma‘lumotlari.



1-rasm. Tijorat banklarida kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirish maqsadlari¹⁰

Hozirgi kunga kelib tijorat banklari faoliyatida kredit qo'yimalari manbalarining tuzulishi, resurslar bahosi va uning holati nafaqat bankning kreditlash faoliyati natijalariga, balki kelgusida kreditlash faoliyatdan olinadigan daromadlarni ham prognoz qilish imkonini yaratadi. Kredit qo'yimalari o'zi alohida obyekt sifatida qaralganligi uchun uning manbalarini optimallashtirish va mavjud manbalarning rentabelligini oshirish tijorat banklari oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirish natijasida tijorat banklari aktivlarini samarali shakllantirish va ularni yuqori foydalilik bilan taqsimlash imkoniyatini yuzaga keltiradi, natijada bankning asosiy maqsadi – foydaning o'sishiga olib keladi.


Tijorat banklarining kreditlash faoliyati uchun zarur hisoblangan moliyaviy resurslarni banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali shakllantiradi. Shundan kelib chiqqan holda, tijorat banklari kredit qo'yimalari manbalarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin. **Birinchi guruh:** tijorat banklarining o'z mablag'lari yordamida kredit operatsiyalarini tashkil etish hisoblansa, **ikkinchi guruh:** jalb qilingan mablag'lar hisobidan kredit qo'yimalari shakllanadi va ular bank faoliyatining asosiy foizli daromadlarini olib keladi.

¹⁰ Boshqa olib borilgan tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

Shuningdek, ba'zi xorijiy adabiyotlarda jalb qilingan resurslarni o'zini ham ikkiga bo'lib o'rganiladi, bular birinchi navbatda tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozit mablag'lari hisoblansa, ikkinchi asosiy manba bo'lib bank tomonidan sotib olingan moliyaviy resurlar hisoblanadi. Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklari aktiv operatsiyalarini, avvalo kreditlash faoliyatini amalga oshirish uchun pul resurslariga bo'lgan ehtiyojni qoplashga asos bo'lib hisoblanadi. Ularning roli bank faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, jalb qilingan mablag'lar bank resurslarining 70 foizidan ortig'ini tashkil qiladi. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga, asosan kreditlash faoliyati bilan joylashtiriladi.

Alohida ta'kidlash lozim, bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'lik bo'lganligi sababli passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlar asosida, quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosiy jihatlarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.



2-rasm. Tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosiy jihatlarini¹¹


¹¹ Boshqa olib borilgan tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

Tijorat banklari tomonidan kreditlash faoliyatini amalga oshirish maqsadida jalb qilingan mablag‘lar bank kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi. Shuningdek, kreditlash tijorat bankining asosiy faoliyati hisoblanadi hamda bank daromadlarining asosiy qismi kredit operatsiyalaridan keladi. Kredit jarayonlarini tashkil etish bankning umumiy ishi va uni boshqarish sifatining eng yaxshi ko‘rsatkichidir. Banklar uchun kreditlar berish nafaqat foyda keltiruvchi operatsiya, balki bankning asosiy daromad manbalaridan biridir. Shundan kelib chiqib, ajratiladigan kreditlar uchun resurslar manbalarini optimallashtirish banklar samaradorligini oshirishga asosiy qadamlardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlari doirasida kreditlashning ikki funksiyasi ajratiladi: makroiqtisodiy va mikroiktisodiy. Makroiqtisodiy funksiya tijorat banklari tomonidan pul kapitalini to‘plash va safarbar qilishdan, shuningdek talabni rag‘batlantirishdan iborat. Tijorat banklari o‘z faoliyatida iqtisodiy agentlar: davlat, korxonalar, aholining bo‘sh pul mablag‘larini jalb qiladi va ularni foyda olish maqsadida qayta taqsimlaydi (joylashtiradi). Olib borilgan o‘rganishlar asosida aytish mumkinki, aksariyat hollarda tijorat banki moliyaviy resurslarini jalb qilingan mablag‘lar tashkil qiladi.

Tijorat bankining asosiy maqsadi – foyda olish bilan bog‘liq, kreditlash esa banklarga ularning daromadliligi, likvidliligi va ishonchliligini saqlab turish imkonini beradigan asosiy daromadni beradi. Shuningdek mikroiktisodiy funksiyaga banklarning mijozlaridan foydalilikni maksimalashtirishni kiritish mumkin, ya‘ni mijozda talab yuzaga kelishi bilanoq o‘z investitsion yoki operatsion ehtiyojlari uchun mablag‘ini to‘ldirish imkoni yuzaga keladi. Shundan kelib chiqib, kreditlash imkoniyatini yanada oshirish, ular kredit portfelining sifati bank faoliyati negizida shakllantirilgan kredit qo‘yilmalari manbalariga bog‘liq hisoblanadi.

Quyida keltirilgan rasmda xalqaro amaliyotni o‘rganish asosida tijorat banklari kreditlash uchun zarur resurslarining shakllanish usullarini ko‘rishimiz mumkin.



3-rasm. Tijorat banklarida kredit resurslarining shakllanish yo'llari¹²

Tijorat banklarida shakllangan resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, to'lovlar amalga oshiriladi, asosan kreditlar berish salohiyati yaxshilanadi, buning natijasida banklarning asosiy daromadlari, foizli daromadlari vujudga keladi. Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa o'z navbatida banklar faoliyatini doimiylikiga asos hisoblanadi. Tijorat banklarining resurs bazasini resurslarning turlari bo'yicha guruhlariga ajratish va ularni optimallashtirish tijorat banklari oldidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi.


Fikrimizcha, kredit portfelini samarali tashkil etish va portfelning daromadlilikini oshirish tijorat banklari tomonidan kredit qo'yilmalari manbalarining bahosini va hajmini tizimli boshqarishni taqozo etadi. Boshqa so'z bilan aytganda, har qanday iqtisodiy rivojlanish darajasida, hatto korxonalarining moliyaviy beqarorligi sharoitida ham banklar tomonidan kreditlar berish to'xtamaydi. Aynan kredit operatsiyalarini samarali kredit siyosati asosida bankda to'g'ri va oqilona tashkil etish tijorat banklari uchun katta daromad

¹² Boshqa olib borilgan tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

olish imkoniyatini beradi. Buning uchun ajratilayotgan kredit qo'yimlarining manbalari, ularning rentabelligi, resurslarning bahosi va muddati tijorat banklari passiv operatsiyalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari kredit qo'yimlari manbalarini shakllantirish, boshqarish, tahlil etish va uni optimallashtirishning asosiy masalalarini, uning dolzarb vazifalarini quyida keltirilgan rasm yordamida ko'rishimiz mumkin.

Tijorat banklari kredit qo'yimlari manbalarining boshqarilishi va uning tizimli tahlili jarayonida bank tomonidan jalb qilingan resurslarning holati, ular bo'yicha kelishilgan muddati, iqtisodiy sohalar bo'yicha tasniflanishi, kreditlash uchun yo'naltirilgan manlag'larining bahosi va ularning daromadlilik, shuningdek boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha monitoring ishlarining doimiy tarzda olib borilishi, o'z navbatida kredit qo'yimlari manbalarining rentabelligiga va bankning optimal kredit portfelini shakllanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.




4-rasm. Kredit qo'yimlari manbalarini optimallashtirishning dolzarb vazifalari¹³

¹³ Boshqa olib borilgan tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

Olib borilgan izlanishlar asosida aytish mumkinki, mamlakatimiz bank tizimida tijorat banklarining depozit operatsiyalari banklarning resurs bazasida muhim o‘rin egallaydi. Tijorat banklarining depozit bazasi hajmi qancha ko‘p va mustahkam bo‘lsa, banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirish ko‘lami shuncha kengayadi. Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari balansi passivining asosiy ulushini majburiyatlar (asosan, jalb etilgan mablag‘lar) tashkil etib, ular jami bank resurslarining tarkibida 85-90 foizdan iborat bo‘ladi. Majburiyatlarning muddati va vujudga kelish manbasiga qarab, barqaror va beqaror mablag‘larga, ular uchun to‘lanadigan xarajatlar miqdoridan kelib chiqib, arzon va qimmat mablag‘larga ajratgan holda tahlil qilish mumkin.

Quyida keltirilgan rasmda iqtisodchi olim Ortiqov U.D. ilmiy izlanishlari asosida tijorat banklari kredit qo‘yilmalari mablag‘larining tasnifini keltiramiz.



5-rasm. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari mablag‘larining tasnifi¹⁴

Tijorat banklarining depozitlari kredit operatsiyalarining asosiy manbai hisoblanadi. Shu sababli, aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh pul mablag‘larini tijorat banklarining depozit hisobraqamlariga jalb etish ularning depozit bazasini mustahkamlash nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, tijorat banklari depozitlari hajmini oshirish bevosita ularning

¹⁴ Ortiqov U.D. (2023), “Tijorat banklari moliyaviy resurslari boshqarishni takomillashtirish”, DSc. diss. Avtoreferati ma’lumotlari asosida mustaqil tayyorlandi.

bahosiga bog‘liq. Shu sabab, kredit operatsiyalarni amalga oshirishdan oldin, uning manbalarni optimallashtirish zarur vazifa hisoblanadi, chunki buning natijasida moliyaviy resurslar baho va muddat jihatidan to‘g‘ri shakllanishiga erishiladi.

Ta’kidlash lozimki, kelgusida narxlar o‘shish sur’atlarining pasaytirib borilishi va barqaror past inflatsiya darajasining ta’minlanishi iqtisodiyotning o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi rivojlanishi uchun eng zarur shartlardan hisoblanadi. Xususan, inflatsiya va u bilan bog‘liq kutilmalarni barqaror past sur’atlarda bo‘lishiga erishish uzoq muddatli investitsiyalar hajmining oshishiga va bu uchun kerakli bo‘lgan jamg‘armalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Quyida keltirilgan jadval ma’lumotlari yordamida tijorat banklari kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslarining shakllanish mexanizmi va uning muhim elementlarini ko‘rib chiqamiz.

3-jadval

Tijorat banklari kredit resurslari shakllanish mexanizmining elementlari¹⁵

<i>N^o</i>	<i>Shakllanish yo‘llari</i>	<i>Shakllanish metodlari</i>	<i>Bozor instrumentlari</i>
1.	Kreditli moliyalashtirish	- banklararo kreditlar, - Markaziy bank kreditlari	Pul bozori instrumentlari
2.	Depozitli moliyalashtirish	- depozit va omonatlar - joriy hisobraqamlar	
3.	Qarzli moliyalashtirish	qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish orqali	
4.	Ulushli moliyalashtirish	aksiyalarni muomalaga chiqarish yordamida	Kapital bozori instrumentlari
5.	Balansdan tashqari operatsiyalar	- shartli majburiyatlar - kafolatlar - bozor operatsiyalar	Pul bozori va kapital bozori instrumentlari

¹⁵ Boshqa olib borilgan tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

Quyoridagi jadval ma'lumotlari asosida shuni ta'kidlash lozim, tijorat banklarida kreditlash uchun resurslar shakllanishida ikki asosiy bozor instrumenti muhim ahamiyat kasb etadi: pul bozori instrumentlari va kapital bozori instrumentlari. Pul bozori instrumentlarida banklararo kreditlar, yuridik va jismoniy shaxslarning depozit va omonatlari, Markaziy bank kreditlari, qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali resurslarni shakllantirish asosiy usullar hisoblanadi. Shu bilan birga, kapital bozori instrumentlari asosida kredit qo'yilmalari resurslarini shakllantirishda aksiyalarni muomalaga chiqarish orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, tijorat banklari boshqa xo'jalik subyektlari kabi o'zining xo'jalik va tijorat faoliyatini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni moliyaviy resurslariga ega bo'lishlari lozim. Tijorat banklari kreditlash uchun zarur resurlarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag'lari hisobidan tashkil topishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bank boshqa kapitallarni jalb qilish uchun o'z kapitalining yetarlilik darajasi miqdorini ta'minlashi lozim sanaladi.

Tijorat banklari regulyativ kapitalining passivlar hajmidagi salmog'i barqarorligini ta'minlash bankning to'lovga qobilligini oshirish imkonini beradi, ammo bu holat uning moliyaviy barqarorligini oshishiga olib kelmasligi mumkin. Chunki kapital qimmat moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Shuningdek, qarz mablag'lari banklarda aktiv operatsiyani amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning taxminan 90 foizini qoplaydi.¹⁶ Tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini safarbar etib, qarz oluvchilarning kreditga bo'lgan talablarini qanoatlantiradi.


Alohida ta'kidlash lozim, moliyaviy resurslarni shakllantirish, qo'shimcha zaruriy mablag'larni jalb qilish tijorat banki faoliyatining asosiy va ustuvor vazifasi bo'lib, usiz bank o'z faoliyatini samarali va ishonchli olib bora olmaydi. Bu zarur resurslar bankning o'z mablag'lari va ularga tenglashtirilgan mablag'lar hisobiga hamda jalb qilingan va qarz mablag'larini yuzaga kelishidan iboratdir. Shu bilan

¹⁶ Berdiyarov B.T. "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidiligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari".

birga, kredit qo'yilmalari manbalarini shakllantirish va qo'shimcha resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari faoliyatida kreditlash uchun zarur moliyaviy resurslari shakllanishining bozor mexanizmlarini keltiramiz.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz tijorat banklarida moliyaviy resurslar shakllanishida pul bozori instrumentlarining ahamiyati katta sanaladi. Tijorat banklarining ayrim aktiv va passiv operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari bank xizmatlari bozorida talab va taklif asosida shakllanadi. Ayni paytda, mazkur bozordagi stavkalarga e'tibor qaratadiganda, riskka tortilgan aktiv, asosan kreditlar va banklarning jalb qilingan depozitlari, o'zaro banklardan olingan kreditlarning foiz stavkalari sezilarli darajada yuqori bo'lib, bu ko'p hollarda bank mijozlari va aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.



6-rasm. Tijorat banklarida resurslar shakllanishining bozor mexanizmlari¹⁷

¹⁷ Boshqa olib borilgan tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarining pul va kapital bozori instrumentlari asosida shakllashinishida muhim farqli jihatlar mavjud. Ya'ni resurslarning muddat jihatidan farqi, likvidlilik darajasining farqli jihatlari, daromadlilik darajasi asosida farqlanishlar, moliyaviy resurslarni ajratadigan ishtirokchilar holatidan kelib chiqib farqlanishi mumkin.

Quyida keltirilgan rasm ma'lumotlari asosida pul bozori instrumentlari va kapital bozori instrumentlarining muhim farqli jihatlarini keltiramiz.

4-jadval

Kredit qo'yilmalari manbalarida pul va kapital bozorining farqli jihatlari¹⁸

№	Asosiy farqli jihatlar	Pul bozorining asosiy jihatlari	Kapital bozorining asosiy jihatlari
1.	Muddat jihatdan	Qisqa	Uzoq
2.	Likvidlilik jihatdan	Yuqori	Past
3.	Risklilik darajasi	Past	Yuqori
4.	Daromadlilik darajasi	Past	Yuqori
5.	Ishtirokchilar jihatdan	Markaziy bank, tijorat banklari, nomoliyaviy tashkilot	Fond birjalari, tijorat banklari, nomoliyaviy tashkilot
6.	Iqtisodiyotga ta'siri jihatdan	Iqtisodiyotda likvidlilikni ta'minlaydi	Iqtisodiyot barqarorligini ta'minlaydi

Ta'kidlash lozim, iqtisodiy rivojlanishning hozirgi sharoitida tijorat banklari moliyaviy resurslarini shakllantirish jarayoni va uni aktiv operatsiyalarga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Shu sabab tijorat banklari resurslarini shakllantirish, xususan kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun moliyaviy manbalar shakllanishida va shu bilan bog'liq tizimda tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yuqorida keltirilgan jadvalda kredit qo'yilmalari manbalari shakllanishida pul va kapital bozorining farqli jihatlarini ko'rishimiz mumkin (4-jadval ma'lumotlari).

¹⁸ Boshqa olib borilgan tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

Shu bilan bir qatorda, banklar tomonidan vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larni keng ko‘lamda jalb qilish hamda ulardan oqilona foydalanish banklarning muhim vazifasi hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida, banklarning barqaror resurs mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bilan bir qatorda, ushbu mablag‘larni shakllantirish, samarali boshqarish va ularning sifatini oshirishni taqozo etadi.

Quyida keltirilgan jadvalda tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozorida barqaror resurs mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish imkoniyatlari va banklarning asosiy faoliyati yo‘nalishlarini ko‘rishimiz mumkin.

5-jadval

Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati yo‘nalishlari¹⁹

№	Yo‘nalishlar	Faoliyat vositasi	Asosiy maqsad	Ko‘zda tutilgan natija
1.	Emission faoliyat orqali	aksiyalar, korporativ obligatsiya, depozit sertifikati, yevroobligatsiya, xalqaro aksiyalar	-ustav kapitalini shakllantirish, -ustav kapitalini oshirish, -qarz kapitalini jalb qilish	Moliyaviy resurslar bilan ta‘minlanadi, likvidlilik holatining barqarorligi
2.	Vositachilik faoliyat orqali	anderrayter, depozitariy, investitsion maslahatchi, kliring, diler, broker	-qo‘shimcha daromad, -o‘z qimmatli qog‘ozini joylashtirish	Fond bozori professional ishtirokchisi sifatida daromad olish, bozor tahlili asosida o‘z qimmatli qog‘ozlari muomalaga chiqarish
3.	Investitsion faoliyat orqali	aksiyalar portfeli, korporativ obligatsiya, davlat qimmatli qog‘ozlari	- aktiv operatsiyalar orqali daromad olish, -qo‘yilma manbalarini Diversifikatsiyalash	Kreditlashdan tashqari investitsion faoliyat bo‘yicha daromad olish

¹⁹ Boshqa olib borilgan tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

O'rganishlar va amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro va mahalliy amaliyotda tijorat banklari resurslarini boshqarish, kredit qo'yilmalari manbalarini shakllantirish usullari va jarayoni qator obyektiv hamda subyektiv omillar ta'sirida o'zgarib bormoqda. Xususan, 1980-yillarga kelib banklarda integratsiyalashuv jarayonining chuqurlashuvi, moliyaviy resurslarning mamlakatlararo suzib yuruvchanligiga sharoitning yaratilganligi va iqtisodiyotning tobora globalashuvi tijorat banklari likvidligini ta'minlash va zarur miqdorda foydasini shakllantirish uchun faqatgina bank aktivlarini shakllantirish va uni samarali boshqarish kifoya bo'lmay qoldi.²⁰

Xulosa qilib aytish mumkinki, tijorat banklari kredit resurslari dinamikasining dastlabki parametrlarini shakllantirish, ularning mudatlari va bahosi bo'yicha samarali boshqarish hamda qarz oluvchilar soni va kredit resurslari hajmining ekstremal qiymatlarini aniqlash, bank faoliyatining turli ko'rsatkichlari dinamikasini vaqtga bog'liq muvozanat qiymatini baholash asosida tijorat banki faoliyatida kapital dinamikasining tuzulishini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shu bilan birga, tijorat banklarida kreditlash uchun zarur resurslarni aniqlash va samaradorligini oshirish bo'yicha iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar va ijtimoiy taraqqiy etgan davlatlar tajribalaridan foydalanish hamda respublikamiz amaliyotida qo'llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqot ishimizning asosiy vazifasi hisoblanadi.

1.2. Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishning mezonlari va konsepsiyalari

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlarini moliyaviy manbalaridan eng asosiysi bo'lib, tijorat banklarining moliyaviy mablag'lari, asosan ajratilgan kredit qo'yilmalari hisoblanadi. Hozirgi kunda tijorat banklarida kreditlash resurslari-

²⁰ Рид Э., Коттер Р. Коммерческие банки. Усоскина В.М. 2-е издание. –М.: Космополис, 1991. С. - 168;

ning muddati va berilgan kredit qo'yilmalari muddatlarining o'zaro mutanosibligini ta'minlash, kreditlash faoliyati samaradorligini oshirishda barqaror resurs manbalarini samarali boshqarish, tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda, tahlil qilishda va baholashda zamonaviy usullardan keng foydalanish, kredit portfeli va uni shakllantirishda kredit potensialiga e'tibor berish, tijorat banklari kreditlarining iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga bog'liqligini kamaytirish orqali tizimli risklarni kamaytirish, muammoli kreditlarni kamaytirish, hozirgi global siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishga tijorat banklari tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.


Shuningdek, respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda xo'jalik subyektlarining moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondirish muhim masalalardan hisoblanadi. Bunda esa moliyaviy mablag'larning muhim manbasi sifatida bank kreditlari muhim o'rin tutadi. Hozirgi vaqtga kelib mamlakatimizda mijozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, xususan, kredit qo'yilmalari manbalarini samarali shakllantirishda bozor mexanizmlaridan optimal foydalanish, tijorat banklari tomonidan resurslarni jalb qilish maqsadida yangi omonatlar va mijozlar talablariga mos jozibador turlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

“Tijorat bankda kredit resurslarini samarali shakllantirish va uni boshqarishning yangi usullarini doimiy takomillashtirmasligi natijasida, nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar, balki rivojlangan mamlakatlar banklari ham iqtisodiy inqirozga yuz tutishi tabiiydir. Misol tariqasida, 1980-yillarning oxirida AQSh ssuda-jamg'arma uyushmalari va tijorat banklari iqtisodiy inqirozini keltirishimiz mumkin”. Buni XX asrning ikkinchi yarmida Osiyo, Lotin Amerika, G'arbiy Yevropa va Rossiya moliya tizimida bo'lib o'tgan iqtisodiy inqirozlar misolida ham ko'rish mumkin.²¹

²¹ Omonov A.A., “Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari”. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan diss. Avtoreferati. –T.: 2008, BMA, 36 b.

Zamonaviy sharoitda tijorat banklari moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, xususan kredit operatsiyalarining manbalarini shakllantirishda asosiy e'tibor bank faoliyati uchun yetarli ravishda pul mablag'larini shakllantirish, ya'ni "*uzun pullar*"ni jalb qilish muhim vazifa sanaladi. Bundan tashqari, tijorat banklarida moliyaviy resurslarni boshqarish, xususan banklarning kredit qo'yimalari manbalarini samarali shakllantirish ularning umumiy barqarorligi oshirishda va rentabelligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim.

Quyida keltirilgan rasm yordamida olib borilgan izlanishlar natijasi o'laroq hozirgi globallashtirish sharoitda tijorat banklari kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirishning nazariy asoslarini ko'rib chiqishimiz mumkin.



7-rasm. Zamonaviy sharoitda tijorat banklari kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirishning nazariy asoslari²²

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida aytish mumkinli, tijorat banklari kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirishning nazariy asoslari o'z ichiga bank emissiya qilgan aksiyalar qiymatini oshirish natijasida kapital hajmini ko'paytirish, risk va foyda o'rtasidagi o'zaro munosabatni to'g'ri ta'minlash, tijorat banklarining

²² Tadqiqotchi tomonidan boshqa ilmiy ishlar asosida mustaqil tayyorlandi.

kreditlash uchun zarur manbalarni shakllantirishda davlat resurslariga qaqramligini kamaytirish, bank faoliyatiga xos bo'lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish asosida ularning xarajatli faoliyatini cheklash, moliya bozorida teng raqobat sharoitini yaratish shular jumlasidan hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi sharoitida tijorat banklari moliyaviy resurslarini shakllantirish jarayoni va uni aktiv operatsiyalarga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Shu sabab tijorat banklari resurslarini shakllantirish, xususan kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun moliyaviy manbalar tizimida tubdan o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlarning bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Bular:

- banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta'minlanishi va bu o'z navbatida kredit riskini kamaytirganligi;

- iqtisodiyotda to'lovlar muammosining mavjudligi va ajratilgan kreditlarning qaytarilmasligi oqibatida tijorat banklarining zarar ko'rish imkoniyatining oshishi;

- aholi qo'lidagi omonatlarning munzamat ravishda o'sishi;


- korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi omillar sabab bo'lib kelmoqda.

Tijorat banklari passiv operatsiyalari hajmi, barqarorlik darajasi va shakllanish manbalari banklarning moliyaviy va iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda bozor munosabatlarining chuqurlashuvi va iqtisodiy islohotlarning keng qamrov-liligi, shuningdek, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tijorat banklari passiv operatsiyalarini, tijorat banklari faoliyatida bu bilan bog'liq siyosatning ahamiyatini oshirmoqda.

Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari moliyaviy resurslarini samarali shakllantirish va uni boshqarish uchun zarur hisoblangan asosiy yo'nalishlar, amalga oshirilishi lozim bo'lgan strategiyalar ya'ni, moliyaviy resurslarni boshqarishning asosiy elementlari keltirilgan.

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini, aktiv operatsiyalarning asosiy qismini tashkil etuvchi kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishning asosiy mezonlari to'g'risida so'z yuritishdan

oldin, ushbu jarayonning strategik maqsadini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi.




8-rasm. Tijorat banklarida moliyaviy resurslarni boshqarish elementlari²³

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini, shuningdek kredit qo'yilmalari manbalarini samarali tashkil etish va ularni jalb qilishda xalqaro amaliyotda muhim biri *AIDA* (Attention, Interest, Desire, Action) konsepsiyasi hisoblanadi. *AIDA* konsepsiyasida taklif qilingan jarayonlar quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi: Attention (e'tibor) – iste'molchi brendga e'tibor qaratadi, odatda reklama orqali mijozlarning oqimini ko'paytirish maqsadqilingan bo'ladi; Interest (qiziqish) – iste'molchida brendning afzalliklari va turmush tarziga mos kelishiga qiziqish uyg'onadi, shuning natijasida bankka moliyaviy mablag'larni yo'naltirishi ko'zda tutiladi; Desire (moyillik) – iste'molchida, ya'ni bankning mijozlari o'rtasida brendga nisbatan ijobiy munosabat rivojlanadi, natijada bankka

²³ Boshqa olib borilgan tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

ishochlilik oshib boradi; Action (harakat) – amalga oshirilgan vositalar asosida iste'molchi brenddan foydalanishga harakat qiladi.

Quyida tijorat banklari tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilishda xalqaro AIDA konsepsiyasining tasnifini keltiramiz.




9-rasm. Tijorat banklari moliyaviy resurslarni jalb qilishda AIDA konsepsiyasi tasnifi²⁴

Ta'kidlash lozim, tadqiqot ishi doirasini yanada kengaytirish va xorij tajribasini chuqurroq o'rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayrim rivojlangan va MDH mamlakatlari bank amaliyotida moliyaviy resurslarni boshqarish, kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish doirasida ma'lum darajada tegishli tajriba va andozalar mavjudki, ularning ijobiy jihatlarini mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatiga tatbiq etish foydadan xoli bo'lmaydi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan mablag'larning asosiy qismini kreditlarga joylashtirilishi ushbu banklarning majburiyatlarini bajarish bo'yicha ham muammoli holatlarni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur muammoni hal qilishda xorij bank amaliyotidagi ijobiy tajribani keng qo'llash maqsadga muvoffiq. Xususan, bank mahsulotlari va xizmatlarini sotishda AIDA konsepsiyasidan keng foydalanish orqali tijorat banklar jami moliyaviy resurslari tarkibida uzoq muddatli depozitlar ulushini ko'paytirish lozim.

²⁴ Boshqa olib borilgan tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

Fikrimizcha, tijorat banklari moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, kredit qo'yimalari manbalarini shakllantirishning nazariy asoslari hamda usullari obyektiv va subyektiv omillar ta'siri natijasida doimiy ravishda takomillashib borishni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, ayni paytda, mamlakat tijorat banklarida mazkur masalaga nazariy va amaliy jihatdan e'tibor berishi dolzarb bo'lib turibdi.

Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari faoliyatida kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirishda ta'sir etuvchi omillarni keltiramiz.



10-rasm. Tijorat banklari kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirishga ta'sir etuvchi omillar²⁵


Bank tizimi moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, kreditlash faoliyati uchun zarur mablag'larni shakllantirish bo'yicha taklif etilayotgan konsepsiyalar doirasida tegishli qarorlarni qabul qilinishi va amaliy ishlarni tashkillashtirilishi mavjud muammolarni yechimi va tijorat banklari resurslarini samarali boshqarish sohasida tegishli natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Quyida mamlakat bank tizimi moliyaviy resurslarini shakllantirish va samarali boshqarishning zamonaviy konsepsiyasi asosida kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirishga ta'sir etuvchi omillar xususida atroflicha to'xtalib o'tamiz.

²⁵ Boshqa olib borilgan tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

Ta'kidlash lozim, kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishda moliyaviy omillar ta'siri birinchi o'rganiladi. Moliyaviy omillar guruhiga Markaziy bankning monetar siyosati, tijorat banklari depozitlar va kreditlarining foiz stavkalari, inflyatsiya darajasi hamda iqtisodiyotda monetizatsiya koeffitsienti bilan bog'liq yo'nalishlar muhim sanaladi. Markaziy bank o'zining tegishli monetary siyosatining sifati jihatidan, xususan asosiy stavkani o'zgartirish orqali, shuningdek majburiy zaxira siyosati to'g'ri shakllantirish yordamida, shu bilan birga ochiq bozordagi operatsiyalari kabi instrumentlar orqali tijorat banklarining resurs bazasiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Quyorida sanab o'tilgan Markaziy bankning asosiy instrumentlari tijorat banklari faoliyatida kreditlash bilan bog'liq resurslar jalb qilish va uni optimallashtirishda muhim hisoblanadi.

Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari faoliyatida kredit qo'yilmalari manbalarini samarali tashkil etishda va uni optimallashtirishda asosiy omillar guruhi, ya'ni moliyaviy omillar ta'sirining tasnifini keltiramiz.



11-rasm. Kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishda moliyaviy omillar ta'siri²⁶

Olib borilgan izlanishlar asosida shuni ta'kidlash lozim, bugungi kunda kelib Markaziy bankning qayd etilgan monetar siyosatning


²⁶ Boshqa olib borilgan tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

instrumentlaridan sanab o‘tilgan usullaridan birortasi ham mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida samarali amal qilayapti, deya xulosa chiqarish noto‘g‘ri. Bundan tashqari, Markaziy bank qaysidir darajada mustaqil ravishda monetar siyosatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur masalalardan biridir.

Tahlillar va o‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, tijorat banklari moliyaviy resurslarning hajmi va muddatiga mamlakat milliy valyutasining qadrsizlanishi ham bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tijorat banklar resurslarini boshqarishda iqtisodiyotda monetizatsiya koeffisienti ham muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlardan hisoblanib, O‘zbekistonda monetizatsiya koeffisienti 2023-yil 1-yanvar holatiga 21,2 foizni tashkil etdi. Masalan, 2018-yilda monetizatsiya koeffisienti (yalpi ichki mahsulotning M1 va M2ga nisbati) Xitoyda 167,38 foiz, Yaponiyada 138,1 foiz va AQShda 68,08 foizdan iborat bo‘lgan.

Shu bilan birga, foiz stavkalarining oshishi tijorat banklari uchun foiz riskining oshishiga sabab bo‘ladi. Foiz riski - bank aktivlari va passivlari bo‘yicha nomaqbul bo‘lgan sharoitda foiz stavkalarining o‘zgarishi oqibatida bank moliyaviy yo‘qotishlarni boshidan kechiradi. Foiz riskining oshishi natijasida banklar oladigan daromadlari hajmining qisqarishiga yoki depozitlar bo‘yicha to‘laydigan xarajatlar summasining ortib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu o‘z navbatida, tijorat banklarining foydalilik darajasiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Banklarda foiz riskining manbalari sifatida qat’iy foiz stavkalari o‘rnatilgan aktivlar, passivlar va balansdan tashqari majburiyatlar bo‘yicha so‘ndirish muddatlarining nomuvofiqligini keltirish mumkin.

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda iqtisodiy omillar bo‘lgan YaIM, eksport, import va aholining daromadlari ham muhim o‘rin tutadi. Quyida keltirilgan rasmda kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirishda iqtisodiy omillar ta'sirini ko‘rib chiqamiz.



12-rasm. Kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishda iqtisodiy omillar ta'siri²⁷

Quyidagi ma'lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda iqtisodiy omillarning shakllanishi turli mamlakatlarda farqlanadi. Mamlakatning yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari, aholi daromadlarining o'sishi va uning tendensiyalari, iqtisodiyotda investitsiyalar hajmining oshishi va boshqa asosiy ko'rsatkichlar iqtisodiy omillar ta'siri hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarning yaxshilanishi, ijobiy holatda saqlanishi kredit qo'yilmalari manbalarini samarali shakllanishida va ularni optimallashtirib borishida muhim sanaladi. Shu bilan birga, iqtisodiy omillar ta'siri va ularning turlari yanada kengroq talqin qilinishi mumkin.

Tadqiqotchi fikricha, tijorat banklari moliyaviy resurslarini samarali tashkil etish va optimal boshqarishni yo'lga qo'yishda asosiy e'tiborni uzoq muddatga saqlanadigan depozitlar hajmini oshirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Masalan, ayrim rivojlangan Xitoy va Yaponiya kabi mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich YaIMga nisbatan 1,5 barobargacha darajani tashkil etadi. Uzoq muddatli depozitlarning asosiy qismi aholi tomonidan joylashtiriladigan mab-


²⁷ Boshqa olib borilgan tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

lagʻlar hissasiga toʻgʻri keladi. Shu bilan birga, tijorat banklari moliyaviy resurslari hajmi va muddatiga aholining oʻrtacha yillik daromadining hajmi ham bilvosita taʻsir qiladi. Chunki, mamlakat aholisi daromadining oʻrtacha yillik darajasining oʻsishi ularning jamgʻarma va investitsiyaga boʻlgan moyilligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli bank xizmatlarini ommalashtirishning innovatsion yoʻllarini joriy etish, tijorat banklari mobil ilovalari orqali mijozlarga sifatli xizmat koʻrsatish hajmini oshirish, on-layn banklar mijozlari sonini koʻpaytirish, mamlakatlararo on-layn xizmat koʻrsatish, bank xizmatlarini innovatsion va texnologik jihatdan takomillashtirish, bank xizmatlarini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

Fikrimizcha, kredit qoʻyilmalari manbalarini shakllantirishda va uni banklar tomonidan optimallashtirib borishda ijtimoiy omillar taʻsiri ham muhim hisoblanadi. Ijtimoiy omillarning taʻsiri va ularni samarali boshqarish asosida kredit qoʻyilmalari manbalarini optimallashtirishga ijobit taʻsiri oʻrganiladi.

Yuqorida keltirilgan rasmda tijorat banklari tomonidan kredit qoʻyilmalari manbalarini samarali shakllantirishda va uni optimallashtirib borishda ijtimoiy omillar taʻsiri va uning tahlilini keltiramiz.



13-rasm. Kredit qoʻyilmalari manbalarini optimallashtirishda ijtimoiy omillar taʻsiri²⁸


²⁸ Boshqa olib borilgan tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

Jahonda banklar rasman paydo bo'lganidan (XVII asr) boshlab, texnologik taraqqiyotning turli bosqichlarida iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan birinchilardan bo'lib ular faoliyati transformatsiya qilinib kelinmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarning tijorat banklari operatsiyalariga inqilobiy ta'siri esa bank operatsiyalarining xususiyatlari hamda banklararo global raqobatning yangi bosqichi shakllanishiga sabab bo'ldi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiy rivojlanish internet va axborot texnologiyalari (IT) yordamida raqamlashtirish hamda integratsiyalashuv jarayonlari bilan o'zaro uyg'unlikda amalga oshmoqda. Bank sohasi ham shiddat bilan raqamlashtirilib, tashkiliy jihatdan butunlay yangi format, ya'ni raqamli bank xizmatlari ko'rinishida namoyon bo'lib, ayniqsa bu to'lovlar xizmatida yaqqol ko'rinmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda butun dunyoda 2,1 milliard iste'molchi to'lash yoki pul yuborish uchun mobil hamyonidan foydalangan bo'lsa, 2020-yilda elektron tijorat hajmi 5855 mlrd. AQSh dollarini, mobil chakana savdo hajmi 1120 mlrd. AQSh dollarini va raqamli tovarlar 139 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan.

Mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillaridan boshlab bank tizimini yanada rivojlantirish, uni xalqaro bank amaliyotiga yaqinlashtirish, tijorat banklarining jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatadigan xizmatlarni, jumladan bank xizmatlari sifatini oshirib borishga ustuvor vazifa sifatida qaralib kelmoqda. Shuni inobatga olgan holda, tijorat banklari faoliyatida va ularning resurslar jalb qilishning jozibadorligini oshirishda texnik omillar ham asosiy o'rinni egallaydi. Texnik millar qatoriga tijorat bankida dasturiy ilovalarning mavjudligi, ularning qamrov darajasi va ahamiyati, online xizmatlar soni va ularning ko'lami, boshqa zarur omillar ta'siri muhim hisoblanadi.

Quyida keltirilgan rasm asosida tijorat banklari tomonidan resurslarni samarali jalb qilish, shakllantirilgan moliyaviy mablag'larni tizimli boshqarishda mavjud texnik omillar ta'sirini ko'rib chiqamiz.



14-rasm. Kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishda texnik omillar ta'siri²⁹

Fikrimizcha, tijorat banklari moliyaviy resurslarini shakllantirish va uni boshqarishning zamonaviy sharoitida samarali konsepsiyalarni ishlab chiqish mumkin, biroq ularni amaliyotga joriy etish orqali tegishli samaraga erishish tijorat banklari faoliyatida qator vazifalarni belgilab beradi.

Tijorat banklarining kredit resurslarini optimallashtirish murakkab vazifa bo'lib, turli omillar va mulohazalarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunga kelib tijorat banklari o'zlarining kredit qo'yilmalari manbalarini faqatgina o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirish va uni boshqarishlari ancha murakkab bo'lgan masala hisoblanadi. Ularga o'zlarining kreditlash uchun zarur moliyaviy manbalarni samarali tashkil etilishi va optimal holatda resurslar jalb qilish uchun rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va xalqaro moliya institutlari bilan aloqalar o'rnatishlari ko'p muammolarni hal qilinishida yordam beradi.

²⁹ Boshqa olib borilgan tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.


1.3. Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishning ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi

Dissertatsiya ishimizning bu qismida asosan rivojlangan va rivojlanayotgan bank tizimiga ega davlatlar tajribasini o'rganish, mamlakatlarning xususiyatlaridan kelib chiqib tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishda amalga oshirilgan va bajarib kelinayotgan ishlarni o'rganib, mamlakatimiz bank tizimining kreditlash uchun zarur resurslarini optimallashtirish konsepsiyasini yaratishda ularning tajribasidan foydalanishni maqsad qilganmiz.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida ta'kidlash joziki, xorijiy davlatlarda tijorat banklari mijozlarga keng ko'lamda moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi muassalar hisoblanadi. Bu jarayon bir tomondan iqtisodiyotda bo'sh turgan mablag'larni bank-moliya tizimiga jalb qilish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan mablag' zarur bo'lgan kompaniya, tashkilotlar va start-up loyihalarga kredit va qarzlarni ajratish, turli hisob-kitoblar, maslahat xizmatlarini o'zida mujassam etadi. Xorijiy mamlakatlar o'zlarining noyob iqtisodiy sharoitlari, tartibga solish muhiti, zamonaviy boshqaruv usullari va moliyaviy tizimlaridan kelib chiqqan holda kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish uchun turli xil strategiyalar va yondashuvlarni amalga oshirib kelmoqdalar.

Shuningdek, rivojlangan davlatlarda tijorat banklari iqtisodiy tizimning muhim komponentlaridan biri bo'lib, ular moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari manbalari ularning faoliyatining asosi hisoblanadi. Ushbu manbalarni optimallashtirish, nafaqat banklarning moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilash, balki iqtisodiyotning umumiy samaradorligini oshirish uchun ham muhimdir.

Rivojlangan davlatlarda tijorat banklarining kredit qo'yilmalari manbalari ko'plab omillarga asoslanadi, odatda ular yanada diversifikatsiya qilingan va rivojlangan tizimga ega. Quyida keltirilgan rasmda rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining kredit qo'yilmalari manbalari shakllanishining tahlili, uning asosiy tasnifi afro-licha keltirilgan.



15-rasm. Rivojlangan davlatlar tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalari³⁰


Rivojlangan davlatlarda tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish jarayoni bir qator omillar va muammolarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, banklar xarajatlarni kamaytirish va likvidlikni ta'minlash uchun turli xil manbalarni izlash bo'lsa, ikkinchidan, banklarning risklarni boshqarish tizimlari, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatlari va raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir.

Tijorat banklarining kredit qo'yilmalarini optimallashtirishning xorijiy davlatlardagi tajribasi ko'rsatadiki, moliyaviy resurslarning diversifikatsiyasi va yangi manbalarni jalb qilish banklar uchun muvaffaqiyatli bo'lishning muhim omili hisoblanadi. Xorijiy banklar risklarni kamaytirish va barqarorlikni ta'minlash maqsadida balansdan tashqaridagi (off-balance) aktivlarga ko'proq e'tibor berib, suveren jamg'armalar, xususiy kapital va sug'urta kompaniyalari bilan ishlashga alohida ahamiyat qaratmoqda. Bu jarayon banklarning

³⁰ Boshqa olib borilgan tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

moliyaviy salohiyatini oshirishga va kreditlash hajmini kengaytirishga xizmat qiladi.

Quyida keltirilgan rasmda global moliyaviy zahiralarning manbalarining tarkibini atroflicha holati ko'rsatib, tijorat banklarining balansidagi va balansdan tashqaridagi aktivlarning tahlili keltirilgan.



16-rasm. Global moliyaviy zaxiralar manbalarining tarkibiy tuzulishi³¹

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, 2015- 2022-yillar oralig'ida moliyaviy zaxiralar manbalari tarkibida banklarning balansdan tashqaridagi aktivlari (off-balance sheet) sezilarli darajada oshganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni tahlil qilinayotgan davr davomida 58% dan 63% gacha oshganligini ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, tijorat banklarining balansida saqlanayotgan aktivlar kamayganligini, ya'ni tahlil qilinayotgan davr boshida 42% dan tahlil qilinayotgan davr oxiriga kelib 37% ga pasayganligining guvohi bo'lamiz.

³¹ <https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/global-banking-annual-review> ma'lumotlari.

Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishning ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish asosida, quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tish jozi:

1. Balansdan tashqaridagi aktivlarning o'sishi: Ilg'or xorijiy davlatlarda tijorat banklari balansdan tashqaridagi (off-balance sheet) aktivlarni oshirishga e'tibor qaratmoqda. Bu moliyaviy risklarni kamaytirishga va banklarning barqarorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu aktivlarga suveren jamg'armalar, pensiya fondlari mablag'lari, sug'urta kompaniyalari moliyaviy resurslari va boshqa institutsional investitsiyalar kiradi. 2022-yilga kelib, sug'urta va pensiya fondlari tomonidan boshqarilayotgan aktivlar 19% ni tashkil etgan, bu esa tahlil qilinayotgan davr boshiga, 2015-yildagi 9% ko'rsatkichga nisbatan sezilarli darajada o'sishni ko'rsatganligini ta'kidlash lozim.

2. Xususiy kapitalning (Private capital) ahamiyati: 2015-yildan 2022-yilgacha xususiy kapital (private capital) aktivlarining yillik o'sish sur'ati (CAGR) 19% ga yetgan. Tadqiqotlar natijasi shuni ta'kidlaydiki, bu holat tijorat banklari uchun yangi manbalar jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi. Xususiy kapital orqali jalb qilingan mablag'lar katta hajmdagi loyihalarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi.

3. Chakana investitsiyalar (Retail assets under management): Retail yoki chakana sarmoyalar boshqaruvi ham rivojlangan davlatlarda o'sib bormoqda va tahlil qilinayotgan davr oxirida kelib, 2022-yilda global moliyaviy zaxiralarning tarkibida 21% ni tashkil etgan. Bu o'z navbatida chakana investorlar o'z mablag'larini boshqarishda banklar va boshqa moliyaviy institutlarga murojaat qilayotganidan darak beradi.

4. Balansdagi aktivlar qisqarishi: tijorat banklari faoliyatini 2015-yil bilan solishtirilganda, banklar balansidagi aktivlar (on-balance sheet) 42% dan 37% gacha pasayganli aniqlashadi. Bu tijorat banklari risklarni kamaytirish maqsadida balansdan tashqaridagi manbalarni ko'proq jalb qilayotganidan darak beradi. Xorijiy tajribalar ko'rsatadiki, bu strategiya moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda samarali vosita hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar bank amaliyotida tijorat banklarining jami barqaror mablag‘lari va ularga ta’sir etuvchi omillar ichki va tashqi omillarga ajratilib o‘rganiladi. Ichki omillarga kreditlarning o‘rtacha stavkasi, depozitlar stavkasi, muddatsiz depozitlarni va boshqa omillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bank siyosatining to‘g‘ri yuritilinishi bankning umumiy barqarorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Ta’kidlash lozim, kreditlar stavkasi, depozitlar stavkasi bank jozibadorligini oshirib, bankning barqarorligini mustahkamlaydi.

Tashqi omillarga esa iste’mol narxlar indeksi, YaIM deflyatori, o‘rtacha oylik ish haqi hamda qayta moliyalashtirish stavkasi keltiriladi. Ushbu ta’sir etuvchi omillarning o‘zgarishi aholining yoki bank mijozlarining harakatini yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, aholida oylikdan ortiqcha mablag‘ jamg‘arish hosil bo‘lsa, albatta buning uchun o‘rtacha oylik ortishi va iste’mol narxlar indeksi pasayishi kerak bo‘ladi, bank siyosatidan kelib chiqib aholining jamg‘arishi depozit sifatida bankning umumiy barqarorligini kuchaytirib boradi. Quyida keltirilgan jadvalda tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirishda ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni keltiramiz.

6-jadval

Kredit qo‘yilmalari manbalarini shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar³²

Tashqi omillar	Ichki omillari
Iste’mol narxlar indeksi	Kreditlar o‘rtacha stavkasi
O‘rtacha oylik ish haqi	Depozitlar o‘rtacha stavkasi
Qayta moliyalashtirish stavkasi	Muddatsiz depozitlar ulushi
YaIM deflyatori	Nodepozit mablag‘lar bahosi

Quyida keltirilgan jadvalda global moliyaviy xizmatlar bozorida tijorat banklarining moliyaviy manbalari va jalb qilingan

³² Boshqa olib borilgan tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

mablag‘lardan foydalanishning turli yo‘nalishlari ko‘rsatilgan. Grafik ikki asosiy qismga bo‘lingan: On banking balance sheet (balansdagi mablag‘lar) va Off banking balance sheet (balansdan tashqaridagi mablag‘lar). Har bir qismda moliyaviy manbalar va ularning foydalanish yo‘nalishlari aks etgan.

7-jadval

Banklarning balans va balansdan tashqari aktivlari manbalari, ulardan foydalanish yo‘nalishlari (2022-yil, trln. dollarda)³³

	Omonatlar	Bank obligatsiyalari, boshqa majburiyatlar va kapital	Korporativ va davlat depozitlari		Chakana boshqaruvdagi aktivlar ¹	Sug‘urta va pensiya boshqaruvdagi aktivlar	Boshqa institutsional boshqaruvdagi aktivlar	Boshqa
Mablag‘ manbalari	64	58	51		76	65	37	52
Bank balansidagi					Bank balansidan tashqari			
Mablag‘dan foydalanish	49	59	59	10	60	59	16	89
	Chakana kreditlar	Balansda saqlangan qimmatli qog‘ozlar	Korporativ va davlat kreditlari	Boshqa aktivlar	Davlat obligatsiyalari	Aksiya qimmatli qog‘ozlari	Korporativ obligatsiyalar	Boshqa investitsiyalar

³³ <https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/global-banking-annual-review> ma’lumotlari.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida, global moliyaviy xizmatlar bozorida tijorat banklarining moliyaviy manbalari va jalb qilingan mablag'lardan foydalanishning turli yo'nalishlari tahlili asosida quyidagilar qayd etildi.

Tijorat banklarining balansdagi mablag'larining asosiy yo'nalishlari:

1. Shaxsiy depozitlar (64 trln. dollar), banklarning obligatsiyalari va boshqa majburiyatlar (58 trln. dollar), korporativ va davlat depozitlari (51 trln. dollar) tijorat banklari balansidagi asosiy moliyaviy manbalarni tashkil qilgan. Bu mablag'lar odatda bankning ichki faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, ya'ni kreditlar ajratishda, shuningdek, turli xil aktivlar bilan ishlashda foydalaniladi.

2. Tijorat banklarining balansdagi mablag'larining asosiy yo'nalishlari:

- iste'mol (chakana) kreditlari (49 trln. dollar), balansdagi mablag'larning katta qismi chakana yoki iste'mol kreditlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

- qo'lga kiritilgan qimmatli qog'ozlar (59 trln. dollar), korporativ va davlat kreditlari (59 trln. dollar) ham bank balansidan foydalangan holda moliyalashtiriladigan asosiy aktivlar hisoblanadi.

Tijorat banklarining balansdan tashqaridagi mablag'larining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Balansdan tashqaridagi mablag'lar asosan chakana aktivlar boshqaruvi

(76 trln. dollar), sug'urta va pensiya fondlari aktivlari (65 trln. dollar) va institutsional aktivlar (52 trln. dollar) kabi manbalardan iborat. Ushbu mablag'lar uzoq muddatli investitsiyalar va moliyalashtirish uchun qo'llaniladi.

2. Balansdan tashqaridagi mablag'lardan foydalanish yo'nalishlari:

- davlat obligatsiyalari (60 trln. dollar), korporativ obligatsiyalar (16 trln. dollar) va kapital bozori sarmoyalari (59 trln. dollar) asosiy yo'nalishlar hisoblanadi. Bu mablag'lar, asosan, investitsiya loyihalarini va yirik moliyaviy dasturlarni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi.

- boshqa investitsiyalar (89 trln. dollar) esa balansdan tashqaridagi manbalar asosida turli xil alternativ investitsiya imkoniyatlari uchun ishlatilishi mumkin.

Tijorat banklari uchun optimallashtirishning muhim yoʻnalishlari sifatida quyidagilarni belgilab berish muhim vazifa hisoblanadi:

1. ***Xavflarni diversifikatsiya qilish***: Tijorat banklari oʻz kredit qoʻyilmalarini diversifikatsiya qilishi orqali kapitalni nafaqat oʻz balansida, balki balansdan tashqarida ham faol boshqarishi zarur. Xususan, xususiy kapital va pensiya fondlari kabi uzoq muddatli aktivlar bilan ishlash orqali risklarni samarali boshqarish mumkin.


2. ***Kapital bozorlarida faol ishtirok***: Ilgʻor davlatlar tajribasida banklar kapital bozorlarida obligatsiya chiqarish, xususiy kapital jalb qilish kabi mexanizmlar orqali oʻz kapital bazalarini kengaytiradi. Bu esa kreditlash imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

3. ***Texnologiyalar orqali mablagʻlarni jalb qilish***: Xorijiy tajriba shuni koʻrsatmoqdaki, banklar fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilib, innovatsion moliyaviy texnologiyalar orqali yangi mablagʻlarni jalb qilishlari va bu orqali oʻz kapital resurslarini kengaytirishlari mumkin.

4. ***Sugʻurta va pensiya jamgʻarmalari bilan hamkorlik***: Sugʻurta kompaniyalari va pensiya fondlari bilan yaqin aloqalarni rivojlantirish orqali uzoq muddatli sarmoya jalb qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu yirik tijorat banklari uchun strategik ahamiyatga ega.

Tijorat banklari faoliyatida depozit mablagʻlari banklar uchun asosiy kredit qoʻyilmalari manbasi hisoblanadi. Omonatchilar tomonidan banklarga qoʻyilgan mablagʻlar banklar tomonidan yigʻilib, kredit sifatida bizneslarga va jismoniy shaxslarga taqdim etiladi. Bu jarayon orqali banklar omonatchilar mablagʻlarini iqtisodiyotga investitsiya qilib, kreditlar orqali korxonalar va isteʼmolchilarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlaydi. Shu sababli, depozitlar banklarning kredit berish salohiyatini oshiruvchi asosiy resurslardan biri hisoblanadi. Quyida keltirilgan rasmda 2023-yilda ayrim mamlakatlarda

tijorat banklari depozitlarining yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati foizlarda ko'rsatilgan.



17-rasm. Ayrim mamlakatlarda bank depozitlarining YaIMga nisbati, %da³⁴

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich Yaponiyada bo'lib, bu yerda bank depozitlari YaIMga nisbatan 260% ni tashkil etadi. Bu juda yuqori foiz bo'lib, Yaponiya iqtisodiyotida bank omonatlari katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Fransiyada bu ko'rsatkich 107%, AQShda 101%, Germaniyada esa 95% ga teng bo'lib, ushbu mamlakatlarda ham depozitlar iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, Braziliya, Chili va Qozog'iston kabi rivojlanayotgan davlatlarda esa bu ko'rsatkich nisbatan pastroq: Braziliyada 71%, Chilida 63%, Qozog'istonda esa atigi 30% ni tashkil qiladi. Bu, ushbu davlatlarda bank depozitlari orqali kredit ta'minotining ahamiyati yuqoriga qaraganda pastroq ekanligini ko'rsatadi. Fikrimizcha, depozitlar kredit ta'minotining asosiy manbasi bo'lib, mamlakatlar o'rtasida sezilarli farq mavjud.

³⁴ Boshqa olib borilgan tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

Shuningdek, 2023-yilda mamlakatimiz bank tizimida depozitlarning majburiyatlardagi ulushi oshgan bo'lsada, bu ko'rsatkich Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlariga nisbatan hali ham past darajada saqlanib qolmoqda. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda tijorat banklari depozitlari qoldig'ining jami majburiyatlardagi ulushi o'rtacha 44 foizni tashkil etgan, bu esa 2023-yil boshiga nisbatan 5 foiz bandga oshgan. 2023-yil yakuniga kelib, xususiy banklar bo'yicha ushbu ko'rsatkich o'rtacha 66 foizni tashkil qilgan bo'lsa, davlat banklarida bu ko'rsatkich o'rtacha 33 foizga teng bo'lgan. Xususiy banklar depozitlardan kreditlarni moliyalashtirishda asosiy manba sifatida keng foydalanayotganligi ushbu farqni izohlaydi³⁵.

Bugungi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar moliyaviy texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida tijorat banklarining kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirishda yangi yo'nalishlarga ega bo'lmoqda. Ular, nafaqat an'anaviy manbalarni, balki alternativ moliyalashtirish usullarini ham o'z ichiga olishi mumkin. Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida 2024-yilda kredit qo'yimalari manbalari yuqori darajada optimallashtirilgan top - 10 eng yaxshi banklar ro'yxatini va ular faoliyatining tahlilini keltiramiz.

8-jadval

Kredit qo'yimalari manbalari optimal Top-10 banklar reytingi³⁶ (2024-yil holatida)

Reyting	Bank Nomi	Davlat	Bank Reytingi	Kredit qo'yimalari manbalari	Asosiy xususiyatlar
1.	JPMorgan Chase	AQSh	AA+	Depozitlar, depozit sertifikatlari, obligatsiyalar,	Katta aktivlar, kuchli likvidlik, diversifikatsiya

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, pul-kredit siyosatining 2024-yil davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari ma'lumotlari.

³⁶ Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi. Manba: www.moody.com, www.spglobal.com, www.fitchratings.com, www.forbes.com, www.bloomberg.com

2.	Bank of America	AQSh	A+	Depozitlar, sarmoyalar, pul bozori mahsulotlari	Innovatsiyalar, raqamli xizmatlar
3.	Citibank	AQSh	A	Depozitlar, Moliyaviy bozorlar, depozit sertifikatlari,	Global qamrov, xalqaro savdo xizmatlari
4.	Wells Fargo	AQSh	A-	Depozitlar, Kredit kartalari	Keng mijoz bazasi, kuchli kredit bozor
5.	Goldman Sachs	AQSh	A+	Investitsiyalar, Obligatsiyalar	Investitsiya banki, yuqori rentabellik
6.	HSBC	Birlashgan Qirollik	A+	Depozitlar, Xalqaro moliya	Global strategiya, moliyaviy xizmatlar
7.	Morgan Stanley	AQSh	A	Sarmoya, Moliyaviy bozorlar, depozit sertifikatlari	Yuqori darajadagi xizmatlar, professional maslahat
8.	Barclays	Buyuk Britaniya	A-	Depozitlar, Obligatsiyalar	Raqamli transformatsiya, kuchli brend
9.	UBS	Shvetsariya	A	Investitsiyalar, Xalqaro bozor, depozitlar	Keng ko‘lamli xizmatlar, yuqori darajadagi mijozlar
10.	Credit Suisse	Shvetsariya	A-	Sarmoya, Moliyaviy bozorlar	Sifatli xizmatlar, xususiy mijozlar

Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida aytish mumkinki, 2024-yilda kredit qo'yilmalari manbalarining samarali shakllanishi bo'yicha eng yirik 10 ta bankning aktivlari tarkibidagi turli moliyaviy manbalarning taqsimlanishi keltirilgan. Har bir bank kreditlar uchun ishlatadigan moliyaviy manbalar (resurslar) – obligatsiyalar, qimmatli qog'ozlar, depozitlar, depozit sertifikatlari, kredit kartalari va boshqa aktivlar o'rtasidagi balansni turlicha saqlaganligini ko'rishimiz mumkin. Bu balans tijorat banklarining moliyaviy strategiyasiga va ularning kreditlashda qanday manbalarga tayanishiga bog'liq hisoblanadi.

Masalan, Goldman Sachs va JPMorgan Chase obligatsiyalarga katta e'tibor berib, o'z aktivlarining mos ravishda 22% va 20% qismini obligatsiyalarga ajratgan. Bu esa ularning moliyaviy xavfsizlik va barqarorlik uchun an'anaviy bozor vositalariga ko'proq suyanishini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, Credit Suisse va UBS obligatsiyalarga nisbatan pastroq ulush ajratib, bu borada nisbatan xavfliroq, lekin diversifikatsiyalangan strategiyani tanlagan.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha, Goldman Sachs yana yetakchilik qilib, aktivlarining 37% qismini qimmatli qog'ozlarga joylashtirgan. Bu ko'rsatkich uning qimmatli qog'ozlar orqali daromad olish strategiyasiga asoslanganligini bildiradi. Credit Suisse va UBS bu yo'nalishda, ya'ni qimmatli qog'ozlarga joylashtirgan aktivlar ulushi pastroq ko'rsatkichga ega, ular qimmatli qog'ozlarga nisbatan boshqa moliyaviy vositalarga ko'proq tayanmoqda.

Depozitlar esa banklarning asosiy kredit manbasi bo'lib qolmoqda. Citigroup va Credit Suisse depozitlarga katta e'tibor qaratib, mos ravishda 50% va 49% ulushni bu yo'nalishga ajratgan. Bu banklar mijozlarning omonatlarini kreditlash uchun asosiy manba sifatida ko'rmoqda. Goldman Sachs va boshqa ba'zi banklar esa depozitlarga nisbatan kamroq ulush ajratib, boshqa vositalardan ko'proq foydalanishga harakat qilmoqda.

Umuman olganda, har bir tijorat banki o'z moliyaviy resurslarini qanday taqsimlashi ularning kreditlash strategiyasi va moliyaviy barqarorlikka bo'lgan yondashuvini o'zida aks ettiradi. Banklar

orasidagi bu farqlansh ularning kreditlash bozorida qanday raqobat qilishini ham belgilaydi.

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida, top-10 tijorat banklarining kredit qo'yimalari manbalarining shakllanishi va ular joriy holatining tahlilini keltiramiz. Bu yerda asosiy manbalar shakllanishida obligatsiyalar ulushi, emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarning hissasi, depozit mablag'larining ulushi va boshqa manbalar atroflicha tahlil qilingan.

9-jadval

Top-10 tijorat banklarining kredit qo'yimalari manbalari tahlili, 2023-yil³⁷

Banklar nomi	Obligatsiyalar (%)	Qimmatli qog'ozlar (%)	Depozitlar (%)	Boshqalar (%)
JPMorgan Chase	20	35	40	5
Bank of America	18	32	45	5
Citigroup	15	29	50	6
Wells Fargo	17	33	42	8
Goldman Sachs	22	37	38	3
HSBC	21	34	43	2
Barclays	16	30	44	10
Morgan Stanley	19	31	46	4
UBS	14	29	48	9
Credit Suisse	13	27	49	11

2024-yil FDIC ma'lumotlariga ko'ra, jami depozitlar jalb qilish bo'yicha JPMorgan Chase (jami depozitlar \$2,061,107,000) va Bank of America (jami depozitlar \$1,929,388,000) yuqori o'rinni egallab kelmoqda. Mijozlar, shuningdek, AQShda muqim yashashi va W-9 sertifikatiga ega bo'lishi kerak. J.P. Morgan Premium depoziti uchun

³⁷ Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi. Manba: www.moody.com, www.spglobal.com, www.fitchratings.com, www.forbes.com, www.bloomberg.com

maksimal umumiy depozit har bir hisob uchun 3 million dollarni tashkil qiladi. Minimal talab qilinadigan summa: \$0. Bundan tashqari JPMorgan Chase & Co. - 3,9 trln. dollarlik aktivlari va butun dunyo bo‘ylab operatsiyalari bilan yetakchi moliyaviy xizmatlar kompaniyasi hisoblanadi. JPMorgan Chaseda hisob ochish 1000 AQSh dollari miqdorida boshlang'ich sarmoyani talab qiladi.

Quyidagi jadvalda yirik xalqaro banklar tomonidan taqdim etilgan muddatli depozit (CD) hisobvaraqlari taqqoslanmoqda. Har bir bankning minimal depozit talabi, yillik foiz daromadi (APY), muddatlar oralig‘i va muddatidan oldin mablag‘ni yechib olish uchun belgilangan jarimalar darajasi ko‘rsatilgan.

10-jadval

Kredit qo‘yilmalari manbalari optimal Top-10 banklarda depozitlar foiz stavkasi va muddati³⁸ (2024-yilda)

Banklar nomi	Minimal depozit	APY (%)	Muddatlar	Muddatidan oldin yechish jarimasi
Wells Fargo	\$2,500	0.01%– 4.01%	3 oydan 5 yilgacha	90 kundan 12 oygacha
Marcus by Goldman Sachs	\$500	4.30%– 5.05%	6 oydan 6 yilgacha	90–180 kun
HSBC	\$1,000	0.50%– 4.50%	3 oydan 5 yilgacha	90–365 kun
Morgan Stanley	\$1,000	0.75%– 4.60%	6 oydan 5 yilgacha	180 kun
Barclays	\$0	4.30%	1 yildan 5 yilgacha	90–180 kun
UBS	\$1,000	1.00%– 3.75%	6 oydan 5 yilgacha	90–365 kun
Credit Suisse	\$1,000	0.75%– 4.00%	1 yildan 5 yilgacha	90–365 kun

³⁸ Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi. Manba: www.moodys.com, www.spglobal.com, www.fitchratings.com, www.forbes.com, www.bloomberg.com ma'lumotlari.

CD hisobvaraqlari uzoq muddatli jamg'arma strategiyalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularda belgilangan muddat davomida mablag'lar saqlanadi va mijozlar ma'lum foiz daromadi oladi. Ushbu jadval banklarning taklif qilayotgan foiz stavkalari va shartlarini solishtirish orqali mijozlarga eng maqbul variantni tanlashda yordam beradi. Masalan, Marcus by Goldman Sachs va Barclays banklari yuqoriroq foiz stavkalarini taklif qiladi va bu ular uchun raqobatbardosh imkoniyat hisoblanadi. Shu bilan birga, jarimalar va minimal depozit miqdorlari ham bankdan bankka farqlanadi.

Tijorat banklarining kredit manbalarini optimallashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy davlatlarning tajribasi moliya institutlari faoliyati samaradorligini va ular faoliyati barqarorligini oshirishga qaratilgan bank resurslarini boshqarishning muhim yo'nalishini tashkil etadi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar boshqa mamlakatlar uchun qo'llanma bo'lishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatli strategiyalarni ishlab chiqdilar. Keling, ushbu tajribaning bir nechta asosiy jihatlari ko'rib chiqaylik.

1. Tijorat banklari faoliyatida moliyalash manbalarini diversifikatsiya qilish:

AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida tijorat banklari moliyalashtirish manbalarini faol diversifikatsiya qilmoqdalar. Banklar jismoniy va yuridik shaxslarning an'anaviy depozitlaridan tashqari obligatsiyalar chiqarish, banklararo kreditlarni jalb qilish va qimmatli qog'ozlarni sotish orqali mablag' jalb etadi. Bu ularga mijozlar depozitlariga qaramligini kamaytirish va likvidlik risklarini kamaytirish imkonini beradi.

Yaponiya va Germaniyada davlat bilan hamkorlikda kreditlash dasturlarini ishlab chiqishga katta e'tibor berilmoqda. Bu qarz olish xarajatlarini kamaytiradigan va iqtisodiyotni rag'batlantiradigan davlat kredit dasturlari va kafolat sxemalariga kirishni o'z ichiga oladi.

2. Raqamli texnologiyalar va fintech yechimlarini ishlab chiqish:

Fintech bank tizimiga faol integratsiya qilinayotgan Singapurda tijorat banklari omonatlarni jalb qilish va mijozlarga xizmat ko'rsa-

tishni yaxshilash uchun raqamli platformalardan foydalanmoqda. Bu sizga operatsion xarajatlarni kamaytirish va onlayn depozitlar va mobil ilovalar orqali mablag'larni jalb qilish uchun yangi kanallarni yaratish imkonini beradi.

Buyuk Britaniyada ochiq bank texnologiyasining rivojlanishi tufayli banklar kredit va depozit takliflarini optimallashtirish, raqobatni kuchaytirish va xizmatlar sifatini oshirish uchun boshqa banklar mijozlari ma'lumotlariga kirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

3. *Likvidlik va kapitalni boshqarish:*

Kanada va Avstraliya likvidlikni boshqarishning ilg'or usullariga ega, jumladan kapital va zaxira talablari. Ushbu mamlakatlarda banklar uchun stress test tizimlari joriy qilingan, bu esa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan likvidlik inqirozlarini oldindan bashorat qilish va oldini olish imkonini beradi. Shveysariyada yuqori kapital talablari bilan bir qatorda banklar arzon moliyalashtirishni jalb qilish va yuqori likvidlikni saqlash uchun xalqaro kapital bozorlari vositalaridan faol foydalanmoqda.

4. *Davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash:*

Niderlandiyada va Fransiyada banklarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari subsidiyalangan kredit liniyalari va davlat depozitlari kafolatlarini o'z ichiga oladi, bu esa bank tizimini zarbalarga chidamliroq qiladi va banklarga kredit stavkalarini pasaytirish imkonini beradi. Germaniya, shuningdek, uzoq muddatli mijozlar munosabatlari va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan moliyaviy infratuzilma orqali barqaror omonat manbalarini ta'minlaydigan samarali jamg'arma kassalari (Sparkassen) tizimiga ega.

5. *Innovatsion moliyaviy mahsulotlar:*

Skandinaviya mamlakatlarida, Shvetsiya va Daniya kabi barqaror moliyalashtirishga, jumladan yashil depozitlar va kreditlarga yo'naltirilgan innovatsion bank mahsulotlari faol rivojlanmoqda. Bu barqaror loyihalarga investitsiyalarni jalb qiladi va banklar uchun yangi mablag' manbalarini yaratadi.

Tijorat banklarining kredit depozitlari manbalarini optimallashtirish sohasidagi yetakchi xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, raqamli

texnologiyalarni joriy etish, likvidlik va kapitalni samarali boshqarish, shuningdek, davlat bilan faol hamkorlik muvaffaqiyatning asosiy omillari hisoblanadi. Bu chora-tadbirlar bank tizimi barqarorligini oshirish, kredit resurslari tannarxini pasaytirish va iqtisodiyotni barqaror moliyalashtirishni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

AQSh, Kanada, Angliya, Germaniya, Shvetsariya, Norvegiya, Italiya, Shvetsiya va boshqa rivojlangan davlatlar tijorat banklarida mavjud aktiv va passivlarni samarali tashkil etish va sifatli boshqarish uchun (Asset Liability Management) ya'ni ALM katta miqdordagi, asosan likvidlilik darajasi past, turli xil kredit qo'yilmalari manbalarini tashkil etish bilan muammolarga ega bo'lgan tijorat banklari va boshqa moliya institutlari uchun asosiy maslahatchi bo'lib hisoblanadi.

II-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARI MANBALARINING AMALIY HOLATI

2.1. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarining joriy holati tahlili

Bank va moliya tizimida islohotlarni jadal davom ettirish, sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini keng joriy etish zarur³⁹. Respublika iqtisodiyoti rivojlanishida boshlangan yangi davr bank tizimi oldida dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda, ularni yechimi tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini kengaytirib, samaradorligini oshirish orqali amalga oshiriladi. Banklarda barqaror resurs bazasini kengaytirish, depozit va omonatlarning yangi turlarini muntazam ravishda joriy qilish, shuningdek, aholidan jamg‘arma va muddatli depozitlarni qabul qilish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida banklarning kredit portfeli hajmining oshishiga erishiladi. Bu esa, davr talabi bo‘lgan banklar tomonidan yanada ko‘proq investisiya loyihalarini moliyalash, mamlakatda iqtisodiy o‘sish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan har qanday bank mamlakat bozor iqtisodiyotining eng muhim elementi hisoblanadi. Banklar pul mablag‘lariga ehtiyoji mavjud bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga kredit berish orqali mamlakatda ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, istemolni rivojlantirishga, moddiy farovonlikning oshishiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Chunki kreditlar turli maqsadlar uchun yo‘naltiriladi, jumladan maishiy texnika sotib olishdan biznesni rivojlantirishga, shu bilan birga korxonalarini modernizatsiyalashga ajratiladi. Banklar resurs bazasini mustahkamlash va kreditlash uchun zarur mablag‘larni optimal holatda jalb qilinishi ular faoliyati barqarorligi hamda daromadlilikning asosiy me’zoni hisoblanadi.

³⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2022. www.uza.uz

Tijorat banklari kredit portfelini samarali shakllantirishda, kredit operatsiyalaridan yuqori daromad olinishida kredit qo'yilmalari manbalarining tuzulishi va ajratilgan kreditlarning sohalar, tarmoqlar bo'yicha taqsimoti katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun banklarning kredit portfelini samarali shakllantirishda va uning samaradorligini oshirishda kredit qo'yilmalarining manbalari, tuzulishi va berilgan kreditlar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.


Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida shu ma'lum bo'ldiki, mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida kredit qo'yilmalari manbalari o'sishi, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarining boshlanishi, dollarlashuv darajasining kengayishi va boshqa bir necha asosiy omillar ta'siri doirasida kredit qo'yilmalarining keskin o'sishi kuzatildi. Xususan, tijorat banklarida kreditlar qoldig'ining yillik o'sishi 2017-2023-yillarda o'rtacha 45,3 foizni tashkil etgan bo'lib, bunda milliy valyuta almashuv kursi hisobiga xorijiy valyutadagi kreditlarning qayta baholanishi va 2019-yilda O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (O'TTJ) mablag'lari hisobidan ajratilgan qariyb 4,4 mlrd. dollar ekvivalentidagi kreditlarning jamg'arma balansiga qaytarilishi ta'siri ham mavjud (ushbu omillar ta'sirini chiqarib tashlab hisoblaganda kredit qo'yilmalarining yillik o'sishi 34 foiz atrofida bo'lgan)⁴⁰.

Ta'kidlash lozim, tijorat banklarining jami kredit qo'yilmalari 2024-yil 1-yanvar holatiga 420,6 trln. so'mni tashkil etib, ularning 74 foizi korporativ kreditlar va qolgan 26 foizi chakana kreditlar hissasiga to'g'ri keladi. Jami kredit portfeli o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20 foizga yoki 63,7 trln. so'mga, xususan, korporativ kreditlar 13 foizga (32,2 trln. so'm) va aholi kreditlari 45 foizga (31,5 trln. so'm) o'sganligi muhim ahamiyatlidir.

Quyidagi keltirilgan rasmda mamlakatimizda tijorat banklari kredit qo'yilmalari o'sishining asosiy manbalari to'g'risida va ularning tahlil ma'lumotlari keltirilgan. Keltirilgan rasm ma'lumotlari asosida shuni aytish mumkinki, ushbu tahlil qilinayotgan davrda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga ajratilgan kredit

⁴⁰ O'zbekiston Markaziy Banki, Kredit tashkilotlari prudensial nazorati departamenti ma'lumotlari: "Bank tizimi daromadliligi tahlili" ma'lumotlari, 2024-yil 1-yanvar.

qo'yilmalarining asosiy moliyalashtirish manbasi hukumat mablag'larini tashkil qilgan.



18-rasm. Tijorat banklari kredit qo'yilmalari o'sishining asosiy manbalari⁴¹, (trln. so'm)

Xususan, hukumat mablag'lari tarkibida O'zbekiston Tiklanish va Taraqqiyot jamg'armasining (O'TTJ) moliyaviy resurslari hisobiga tijorat banklari kreditlar ajratishgan. Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan keng hajmda jalb etilgan tashqi qarz mablag'lari kreditlash faoliyatini amalga oshirishdagi asosiy moliyaviy resurslar bo'lganligi bilan izohlanadi.

Fikrimizcha, tijorat banklari faoliyatida mazkur manbalardan iqtisodiyotga kredit qo'yilmalari manbalari sifatida doimiy ravishda foydalanishning imkoni yo'q va bir qator salbiy oqibatlari mavjudligini ta'kidlash lozim. Shulardan biri, hukumat va O'TTJ mablag'lari hisobidan turli sohalarga imtiyozli kreditlarning ajratilishi markazlashgan mablag'larga bo'lgan bosimni oshirib fiskal sharoitlarning o'zgarishiga olib kelsa, tashqi qarz mablag'larining muttasil o'sib borishi banklarning tashqi xatarlarga bo'lgan ta'sirchanligini va iqtisodiyotda dollarlashuv darajasini oshirishga xizmat qiladi.

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Pul-kredit siyosatining 2023-2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida, tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirish bank resurslarini boshqarish siyosatini oqilona yuritilishidan iborat bo‘ladi. Shu sababli ham, tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarining tarkibini tadqiq qilish, uni o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarining bazasini shakllantirish nafaqat bankka yangi mijozlarni jalb etish yo‘li orqali, balki moliyaviy resurslar manbalari tuzilmasini doimiy ravishda o‘zgartirib, optimallashtirib turishni ham o‘z ichiga olgan holda, bank aktivlari va passivlaridan oqilona foydalanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining kapitali tarkibi va uning o‘zgarish dinamikasi xususida ma’lumotlar keltirilgan.

11-jadval

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining o‘z mablag‘lari tarkibi va uning o‘zgarish dinamikasi⁴²

Tarkibi	2019	2020	2021	2022	2023
Ustav kapitali	73,6	82,1	76,5	77,2	75,2
Qo‘shimcha kapital	0,3	0,3	0,7	1,0	1,3
Zaxira kapitali	11,2	7,5	8,9	11,9	9,2
Taqsimlanmagan foyda	14,9	10,1	13,9	9,9	14,3
Jami kapital	100	100	100	100	100


Yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlari asosida aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari o‘z mablag‘lari tarkibida ustav kapitali asosiy ulushni tashkil etmoqda. Xususan, tahlil etilayotgan davr mobaynida, ya’ni 2019-2023-yillar oralig‘ida ustav kapitalining ulushi o‘z mablag‘lari tarkibida o‘rtacha 76,4

⁴² O‘zbekiston Markaziy Banki, Kredit tashkilotlari prudensial nazorati departamenti ma’lumotlari: 2024 yil 1-yanvar.

foizni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, tahlil davrining boshida, 2019-yilda ustav kapitali 73,6 foizga tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 75,2 foizni qayd etgan. Bu qayd etilgan ko‘rsatkich bir jihatdan qaraganda ijobiy holatga o‘xshaydi, albatta. Lekin, o‘rganib chiqilgan tadqiqot ishlari asosida ta’kidlash lozim, tahlil natijalari asosida mamlakatimiz tijorat banklari kapitalining yetarliligi asosan ular faoliyatida muomalaga qo‘shimcha emissiya qilinayotgan aksiyalar hisobidan shakllanmoqda.

Fikrimizcha, tijorat banklari aksiyalarini sotish va ularning bahosini oshirishga obyektiv va subyektiv omillarning ta’siri yuqoriroq bo‘lib hisoblanadi. Xususan, mamlakat tijorat banklari o‘rtasida raqobatning shakllanmaganligi, kapital tarkibida davlat ulushining yuqoriligining saqlanib kelinayotganligi, aholi va mijozlarning bank tizimiga bo‘lgan ishonchining yuqori darajada emasligi va boshqa omillar shular jumlasidandir. Mazkur jarayonga ustun jihatdan ta’sir qiluvchi asosiy omil - banklar faoliyatiga davlat aralashuvining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari faoliyatida aksiyalarini sotish va ularning bahosini oshirish bilan bog‘liq muammolar keltirilgan va atroflicha tahlil qilingan.



19-rasm. Tijorat banklari aksiyalarini sotish va bahosini oshirish bilan bog‘liq muammolar⁴³

⁴³ Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

Shu bilan birga, xalqaro bank amaliyotini chuqur tahlil qilgan holatda to‘xtalib o‘tish joiz, passivlarni boshqarishda asosiy e’tibor depozitlarni, ya’ni: talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar (muddatsiz depozitlar); muddatli depozitlar; jamg‘arma depozitlarni jalb etishga qaratiladi. Shu bois, xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining passiv mablag‘lari tarkibida depozitlarning ulushi 65-70 foizni tashkil etadi. O‘zbekiston bank tizimi depozitlarning jalb qilinishi bilan bog‘liq holat va ularning majburiyatlar tarkibidagi ulushini quyida keltirilgan jadval ma’lumotlarida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Ta’kidlash joiz, majburiyatlar tarkibida ikki asosiy manba yillar davomida katta ulushni tashkil etib kelmoqda. Birinchi asosiy manba, depozitlar zimmasiga to‘g‘ri kelsa, ikkinchi asosiy resurslar ulushini olingan kreditlar va lizing tashkil etgan. Quyidagi keltirilgan jadvalda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining majburiyatlari tarkibi va uning o‘zgarish dinamikasi tahlili keltirilgan (12-jadval).

12-jadval

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi majburiyatlari tarkibi va uning o‘zgarish dinamikasi⁴⁴

Manbalar	2019	2020	2021	2022	2023
Depozitlar	37,3	41,1	37,4	41,8	45,4
Markaziy bank hisobvaraqlari	0,3	0,8	0,3	0,2	0,2
Boshqa bank mablag‘lari - rezidentlar	3,4	4,3	4,2	3,5	3,9
Boshqa bank mablag‘lari - norezidentlar	0,3	0,4	1	1,2	4,8
Olingan kreditlar va lizing	55,6	47,5	49,3	46,5	39,1
Chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar	0	1,3	3,1	2,8	2,3
Subordinar qarzlilar	0,1	1,8	1,3	1,1	1,4
To‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan to‘lovlar	1,2	1,1	1,2	1	1,3
Boshqa majburiyatlar	1,8	1,7	2,2	1,9	1,6
Jami majburiyatlar:	100	100	100	100	100

⁴⁴ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston bank tizimi majburiyatlari tarkibiy tuzulishida 2019-2023-yillar davomida sezilarli darajada o'zgarishlar yuz bergan. Albatta, bu tabiiy jarayon bo'lib, tijorat banklari resurslari manbalarining tarkibi va ularning ulushiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bank tizimi majburiyatlari tarkibida depozitlar ulushi oxirgi uch yilda o'sish dinamikasini qayd etganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, majburiyatlari tarkibida eng katta ulushni tashkil etgan kreditlar va lizinglar kamayish tendensiyasini hosil qilmoqda, yani 2019-yilda tijorat banklari tomonidan olingan kreditlar va lizing 55,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, tahlil davri oxiriga kelib 39,1 ga yetganligini ko'ramiz.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan mamlakatlar tijorat banklari moliyaviy resurslari tarkibida asosan depozit mablag'larining ulushi yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq, aksincha nodepozit mablag'larining ulushi past darajada bo'lishi maqsadli hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining moliyaviy resurslari tarkibida nodepozit mablag'larning ulushi depozitlarga nisbatan yuqori ulushni tashkil etmaydi. Misol tariqasida, AQSh bank tizimi resurslari tarkibida nodepozit mablag'larning ulushi o'rtacha 23,2 foizni tashkil etib, e'tiborli jihati shundaki, ushbu manbalarning ham asosiy qismi mahalliy bank tizimidagi kabi banklararo kreditlar va lizing hisobidan shakllanmasdan, balki xalqaro majburiyatlar va nobank moliyaviy institutlarning majburiyatlari hisobiga to'g'ri kelmoqda. Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida mamlakatimiz bank tizimi resurslari tarkibida nodepozit mablag'lari tarkibi va dinamikasi bo'yicha ma'lumotlar keltirigan.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining nodepozit mablag‘lari tarkibi va uning o‘zgarish dinamikasi⁴⁵

Manbalar tuzulishi	2019	2020	2021	2022	2023
Markaziy bank hisobvarag‘i	0,3	0,8	0,3	0,2	0,2
Resident banklar mablag‘lari	3,4	4,3	4,2	3,5	3,9
Norezident banklar mablag‘lari	0,3	0,4	1	1,2	4,8
Olingan kreditlar va lizing	55,6	47,5	49,3	46,5	39,1
Qimmatli qog‘ozlar	0	1,3	3,1	2,8	2,3
Subordinar qarzlar	0,1	1,8	1,3	1,1	1,4
To‘lanadigan hisoblangan oizlar	1,2	1,1	1,2	1	1,3
Boshqa majburiyatlar	1,8	1,7	2,2	1,9	1,6
Majburiyatlar tarkibidagi ulushi:	62,8	59,1	62,7	58,3	54,6


Yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlari asosida aytish mumkin, tahlil qilinayotdan davr mobaynida quvonarli holat nodepozit mablag‘lari tarkibida olingan kredit va lizing ulushi yillar davomida kamayib bormoda. Tahlil davrining boshida, 2019-yilda 55,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda kelib bu ko‘rsatkich 39,1 foizga teng bo‘ldi. Bu holat tijorat banklari kreditlash uchun qimmat resurslardan asta-sekin voz kechyapti degan fikrni keltirib chiqaradi. Shuningdek, nodepozit mablag‘larning jami majburiyatlar tarkibidagi ulushi ham tahlil boshida 62,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 8,2 foiz bandga pasayib, 54,6 foizga teng bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari majburiyatlari tarkibida subordinar qarzlarining ulushi yuqori bo‘lishi lozim. Buning ijobiy jihati shundaki, bank uchun barqaror riskka

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

tortilgan aktivlar bo'yicha operatsiyalarni bajarish imkoniyatini berish bilan birga, lividlilikni ta'minlashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, banklarning depozitlari hajmini onlayn omonatlar hisobidan oshirish bo'yicha tegishli ishlarni yanada jonlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.⁴⁶

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi bank tizimining o'z mablag'lari, shuningdek depozit va nodepozit mablag'larining miqdori, muddati va ulushi nuqtai-nazaridan yechimini kutayotgan qator dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda. Shu jihatdan moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va uni optimallashtirish yuzasidan ilgari surilgan ilmiy takliflarni amaliyotda qo'llash tijorat banklari uchun muhim vazida hisoblanadi.



20-rasm. O'zbekiston bank tizimida moliyaviy resurslarni optimallashtirish bilan bog'liq muammolar⁴⁷

Quyida keltirilgan rasm asosida mamlakatimiz bank tizimida moliyaviy resurslarni shakllantirish va uni optimallashtirish bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammolar shakllantirilgan (2.3-rasm). Quyi-

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti ma'lumotlari.

⁴⁷ Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

da keltirilgan rasm ma'lumotlari asosida aytish mumkinki, tijorat banklari moliyaviy resurslarini samarali tashkil etish va uni tizimli boshqarishni yo'lga qo'yishda asosiy e'tiborni uzoq muddatga saqlanadigan moliyaviy manbalarga, asosan uzoq muddatli depozitlar hajmini oshirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Masalan, ayrim rivojlangan davlatlarda, xususan Xitoy va Yaponiya kabi mamlakatlarda uzoq muddatli depozitlar hajmining ulushi YaIMga nisbatan 1,5 barobargacha darajani tashkil etadi.

Shuningdek, tijorat banklari moliyaviy resurslari hajmi va muddatiga aholining o'rtacha yillik daromadining hajmi ham bilvosita ta'sir qiladi. Chunki, mamlakat aholisi daromadining o'rtacha yillik darajasining o'sishi ularning jamg'arma va investitsiyaga bo'lgan moyilligini oshirishga xizmat qiladi.

O'rganilgan tadqiqot ishlari natijasida aytish mumkinki, hozirgi vaqtda tijorat banklarining kredit resurslarini samarali shakllantirish va yaxshi tashkil etilgan ko'rsatkichlari tizimi, shuningdek banklarning kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishning yagona metodikasi mavjud emas. Har bir tijorat banki o'zining siyosatidan kelib chiqib, mijozlarining kreditga bo'lgan talabi asosida, bankning ustuvor yo'nalishlari va hamda boshqa omillarga qarab o'z kredit resurslarini shakllantirib, optimal kreditlash resurslari manbalarini izlab topishga intilib kelmoqda. Shu bilan birga, ayrim rivojlangan va MDH mamlakatlari bank amaliyotida moliyaviy resurslarni shakllantirish va samarali boshqarish yuzasidan ma'lum darajada tegishli tajriba va andozalar mavjudki, ularning ijobiy jihatlarini mamlakat tijorat banklariga tatbiq etish muhim vazifa hisoblanadi.

Tijorat banklarida likvidlik miqdorining pasayishi, o'z navbatida banklararo pul bozoridan mablag'larni jalb qilish bo'yicha operatsiyalar hajmining ham sezilarli o'sishiga olib keldi. Depozit operatsiyalari yordamida tijorat banklarining 70 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin. Depozit operatsiyalarini tijorat banklari o'zlarining depozit siyosatlari asosida olib boradilar. Tijorat bankining depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, banklarning

resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir.

Tijorat banklari depozit bazasining yetarliligini baholashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlardan biri, fikrimizcha, o'zida ham transaksion depozit hisob-raqamini, ham muddatli depozit hisobraqamini namoyon etayotgan yangi hisobraqamlarining paydo bo'layotganligi hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarning, xususan, AQSh, Yaponiya va Yevropa Ittifoqining qator davlatlarida jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari tijorat banklari depozit bazasining umumiy hajmida yuqori salmoqni egallaydi. Olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklari uchun jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari yuridik shaxslarning muddatli depozitlariga nisbatan arzon va uzoq muddatli kreditlash resurslari manbai hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, tijorat banklari o'z mijozlarining bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish bilan bir vaqtning o'zida bu mablag'larni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun banklar faoliyati doimiy barqaror likvidlikka ega bo'lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo'lib, ular aholining bo'sh turgan pul mablag'larining bankka sari oqimini ta'minlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, tijorat bankining ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo'lgan holatda mijozlar o'z mablag'larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi.

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida butun mamlakatimiz tijorat banklarining depozit mablag'larining tarkibiy tuzulishi va uning tahlili atroflicha bayon qilingan. Shu bilan birga tadqiqot obyekti bo'lgan AT "Aloqabank"ning yuridik shaxslar depozitlari va aholi omonatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Tijorat banklarining depozit mablag‘lari tarkinining tuzulishi⁴⁸
(mlrd. so‘m)

Ko‘rsatkichlar/ Yillar	Jami depozitlar	Yuridik shaxslar depozitlari		Aholi omonatlari	
		Jami	% da	Jami	% da
Barcha banklar					
2019	90 009	69 957	76,71	21 052	23,29
2020	114 747	87 343	76,12	27 404	23,88
2021	156 190	118 884	76,12	37 306	23,88
2022	216 738	153 614	70,88	63 124	29,12
2023	241 687	155 342	64,27	86 345	35,73
AT “Aloqabank”					
2019	4 898,8	4 471,2	91,27	427,6	8,73
2020	4 924,1	4 331,2	87,96	592,9	12,04
2021	6 796,1	5 930,9	87,27	865,2	12,73
2022	7 698,7	6 028,9	78,31	1669,8	21,69
2023	9 227,0	5 916,0	64,12	3 311,0	35,88

Yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, Respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi yillar davomida o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib kelmoqda. Jumladan, 2019-yilda tijorat banklari tomonidan 70 001 mlrd. so‘m miqdorida depozit jalb qilingan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023-yilga kelib 3 barobardan ko‘pga oshganligini ko‘rinadi hamda 216 738 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Mijoz turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, 70-80 foiz ulush yuridik shaxslarga tegishli bo‘lsada, oxirgi yillarda ularning ulushi kamayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida aholining bankka bo‘lgan ishonchi ortishi natijasida, aholining omonatlarini salmog‘i jami depozitlarda oshib bormoqda. Bu holatni tijorat banklari tomonidan depozitlar jalb qilish va ularni samarali boshqarish masalalariga alohida e’tibor qaratayotganliklari bilan izohlash mumkin.

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Shuningdek, bu holat banklardagi aholi omonatlari va yuridik shaxslar depozitlari miqdorlarining oshishida ham o‘z isbotini topadi. Lekin, yuridik shaxslar depozitlari va aholi omonatlarining jami depozitlar tarkibidagi ulushini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu yerda yuridik shaxslar depozitlari 70-80 foiz ulushga aholi omonatlari 20-30 foiz ulushga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu holat, tadqiqot obyekti hisoblangan AT “Aloqabank” ning depozitlariga baho beradigan bo‘lsak, aholi omonatlarini oxirgi yillarda salmog‘ini sezilarli darajada oshgan, ya’ni 2022-yilda aholi omonatlarining ulushi 21,69 foizgacha oshgan. Bunday oshishini ijobiy baholashimiz mumkin, albatta.

15-jadval

AT “Aloqabank” kreditlari va ularning daromadliligi, foizda

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Kreditlar, mlrd. so‘m	5 601	5 705	7 754	9 161	10 293
Kreditlardan olingan foizli daromadlar, mlrd. so‘m	827	809	923	1 350	1 707
1 so‘mlik kreditga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi, %	14,8	14,2	11,9	14,7	16,6

Yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, Aloqabank kreditlarining miqdori 2019-2023-yillarda o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori ushbu davrda (2019-2023-yillarda) o‘shishi kuzatilgan. Kreditlarining daromadlilik darajasi 2023-yilda 2019-yilga nisbatan sezilarli darajada ko‘paygan. Bu esa, Aloqabankning daromad bazasining barqarorligini ta’minlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish va shu orqali mamlakatda ishlab chiqarish hamda investitsion faollikni rag‘batlantirish bank tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Bu o‘z navbatida, banklarning uzoq muddatli depozitlari va qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq bo‘lgan emissiya operatsiyalari hajmini

o'shish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash va uni shakllantirish bilan bog'liq xarajatlarning qisqarishi, mos ravishda kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining pasayishiga olib keladi.

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida tadqiqot obyekti bo'lgan tijorat banki, AT "Aloqabank"ning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasini ko'rib chiqamiz.

16-jadval

AT "Aloqabank"ning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi⁴⁹,
(mlrd. so'm)


Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
<i>Aktivlar</i>	5 669	7 399	8 108	12 638	16 083
<i>Kapital</i>	1 123	1 348	1 568	1 673	1 795
<i>Majburiyatlar</i>	4 546	6 050	6 539	10 964	14 288
<i>Kredit portfeli</i>	4 742	5 731	5 705	7 754	9 161
Shu jumladan, jismoniy shaxslar kreditlari	312	546	1 022	1 438	2 564
-ipoteka kreditlari	70	121	373	558	554
-avtokredit kreditlar	148	264	337	395	1 370
-mikroqarz	38	150	165	367	138
-istemol kredit	55	114	146	116	500
<i>Depozitlar</i>	3 541	4 898	4 924	6 796	7 697
Shu jumladan, jismoniy shaxslar omonatlari	311	427	592	865	1 669

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida, tadqiqot obyekti hisoblangan AT "Aloqabank" faoliyatining asosiy ko'rsatkichlariga baho beradigan bo'lsak, barcha ko'rsatkichlar oxirgi 5 yil davomida sezilarli o'sish tendesiyasini ko'rsatgan. Ayniqsa, jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan xizmatlar son jihatidan ham, miqdor jihatidan ham o'sgan-

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

ligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, AT “Aloqabank” tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar miqdori 2019-yilga nisbatan 2023-yilda 8,2 barobarga oshgan bo‘lsa, boshqa tomondan bankka aholi omonatlarining oqimi 5,4 barobarga oshganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, sof foizli marja ko‘rsatkichi hisoblanadi. Dunyo bank amaliyotida sof foizli marja ko‘rsatkichidan tijorat banklarining daromad bazasi barqarorligini baholashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri sifatida foydalaniladi. Quyida Aloqabankning sof foizli marja ko‘rsatkichi darajasining tahlilini ko‘rib chiqamiz.



21-rasm. AT “Aloqabank”da sof foizli marjaning darajasi, foizda

Quyida keltirilgan rasm ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, “Aloqabank”da sof foizli marjaning darajasini 2019-2022 yillarda pasayish tendensiyasi kuzatilgan. 2023 yilda esa, mazkur ko‘rsatkichning darajasi 2022 yilga nisbatan sezilarsiz darajada oshgan, biroq, uning me‘yoriy darajasi (4,5 %) ta‘minlanmagan. Mazkur holatlar Aloqabankning daromad bazasini barqarorligini ta‘minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Tijorat banki tomonidan muddatli va jamg‘arma depozitlariga nisbatan belgilangan foiz stavkalari mijozga ma‘qul kelgandagina ular pul mablag‘larini bankka qo‘yadi. Ammo tijorat banki depozit-

larga mijozlar manfaatiga mos keladigan foiz stavkalarini belgilash imkoniyatiga ega bo'lishi uchun sof foizli spread koeffitsientining me'yoriy darajasini ta'minlagan holda faoliyat yuritishi lozim. Aks holda, tijorat banki depozitlarning foiz stavkalarini oshirish uchun moliyaviy imkoniyatga ega bo'lmaydi.

Depozit foiz stavkalari darajasini har bir tijorat banki O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hisob stavkasi, pul bozori holati va o'zining depozit siyosatidan kelib chiqib, tijorat banklari mustaqil ravishda belgilaydi. Depozit hisobraqamlarining alohida ko'rinishlari bo'yicha daromad hajmi qo'yilma muddati, summasi, hisobvaraqni amal qilish xususiyati, xizmatlar hajmi va xarakteri hamda mijozning qo'yilma shartnomasi shartlariga amal qilishi bilan bog'liq sanaladi.

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida mamlakatimiz tijorat banklarining milliy valyutadagi depozit va kreditlari bo'yicha shakllangan o'rtacha foiz stavkalari keltirilgan.

17-jadval

Tijorat banklarining milliy valyutadagi depozit va kreditlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkalari ⁵⁰

№	Yillar / Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
1.	Tijorat banklari depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasi	17,4	14,8	16,7	18,6	19,1
2.	Muddatli depozitlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi	16,6	16,3	17,7	18,9	18,2
3.	Tijorat banklari qisqa muddatli kreditlarining o'rtacha yillik foiz stavkasi	23,6	18,4	21,2	21,7	22,3
4.	Tijorat banklari uzoq muddatli kreditlarining o'rtacha yillik foiz stavkasi	24,4	19,1	20,5	22,2	21,7
5.	Inflatsiya darajasi	15,2	11,1	9,9	12,2	9,3
6.	Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi darajasi	14,0	14,0	15,0	14,0	13,5
7.	Tijorat banklari talab qilib olinadigan depozitlarining brutto depozitlar hajmidagi salmog'i,	38,7	42,8	42,3	42,7	44,1

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Keltirilgan jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkasi tahlil qilinayotgan davr mobaynida 1,7 foiz bandga oshgan, ya'ni 2019-yilda 17,4 foizga teng bo'lsa, 2023-yilga kelib 19,1 foizni tashkil qilgan. Muddatli depozitlar bo'yicha ham o'rtacha yillik foiz stavkasi o'sish dinamikasini tashkil qilgan. Muddatli qo'yilmalar bo'yicha foiz stavkasi, hajmini o'rnatishdagi muhim omil bo'lib, mablag'lar joylashtirilgan muddat hisoblanadi. Muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha yillik foiz stavkasi tahlil qilinayotgan vaqt mobaynida 16,6 foizdan 18,2 foizga yetganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Shuningdek, tijorat banklari talab qilib olinadigan depozitlarining brutto depozitlar hajmidagi salmog'i ham yillar davomida o'sish dinamikani tashkil qilgan. 2019-yilda brutto depozitlar tarkibida talab qilib olinadigan depozitlarining ulushi 38,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 44,1 foizni qayd etgan.

Markaziy bank emissiya markazi sifatida makroiqtisodiy darajadagi pul aylanishi hamda bank tizimining likvidliligi nuqtai nazardan tijorat banklarining ularda jalb qilingan mablag'lardan foydalanish imkoniyatlarini doimiy ravishda tartibga solib turadi. Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan majburiy zahira talablari bank tizimida depozit va kreditlarni oshirishning bevosita cheklovchisi bo'lib xizmat qiladi. Bank resurslarining muhofazasining ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan ham bir qator tadbirlar ishlab chiqilganligini ham inobatga olgan holda, ayrim amaliyotlarga cheklovlarni ham keltirib o'tishimiz mumkin, masalan dahldor shaxslar bilan amaliyotlar hamda bir kredit oluvchiga nisbatan kreditning maksimal miqdorini belgilanishi, hamda kapitalning adekvatliligiga qo'yiladilar talablarni ham shu yulda qilingan ishlar qatorida olishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon o'tgan davr mobaynida moliya-kredit sohasida qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarining tobora chuqurlashuvi tijorat banklari depozit siyosatining samaradorligini oshirish va takomillashtirish bilan bog'liq dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda. Xususan, tijorat banklari resurslari tarkibida depozit mablag'lari ulushining pastligi, bank depozit xizmatlari

innovation iqtisodiyot va mijozlar uchun manfaatli bo‘lgan turlarini amaliyotga joriy etish hamda samaradorlik darajasini oshirish borasidagi muammolar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari moliyaviy resurslar yordamida tashkiliy faoliyatni amalga oshiradi, kreditlar berish salohiyati, to‘lovlarni amalga oshiriladi, buning natijasida banklarning daromadlari vujudga keladi. Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa o‘z navbatida banklar faoliyatini doimiylikiga asos hisoblanadi.

2.2. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini samarali boshqarish asoslari

Tijorat banklari resurslarini boshqarishdan ko‘zlangan maqsad iqtisodiyotdagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini banklarga jalb qilish, ulardan oqilona foydalanish orqali bankning foydasini vujudga keltirishdan iboratdir. Qisqacha qilib aytadigan bo‘lsak, tijorat banklari resurslarini samarali boshqarishning vazifasi ularning to‘lov qobiliyatini ta‘minlab turish uchun zarur bo‘lgan miqdordagi resurslarni topish va ushbu mablag‘larni iqtisodiy jihatdan foydali maqsadlarga joylashtirish hisoblanadi. Shunisi e‘tiborliki, jahon iqtisodiyotining tobora globallasuvi va moliyaviy institutlar o‘rtasida raqobatning kuchayishi jamiyatdagi mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishning zarurligini keltirib chiqarmoqda.

Tijorat banklari resurslarini boshqarish - tijorat banklari moliyaviy resurslari, ularni turkumlanishi, banklarga bush pul mablag‘larini jalb etish, bank resurslarini iqtisodiy tahlil qilish, hisob yuritish bo‘yicha maslahatlar berish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kundagi globallasuv sharoitida O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy pirovard maqsadi – bu banklarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, aktiv va passiv opratsiyalarining daromadliligini oshirishdan iboratdir.

Ta‘kidlash lozim, bank faoliyati yetarli bank resurslarini talab qiladi. Bank resurslarini mukammal tashkil etish va tejamkor foydalanish har qanday banklarning samarali ishlashi uchun asos

bo'lib xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yaratilgan resurslar tijorat banklarning iqtisodiy faoliyatini oqilona amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish nafaqat yangi mijozlarni jalb etish, balki resurslar manbalari tuzilmasini doimiy ravishda o'zgartirib turishni ham o'z ichiga olgan holda, bank aktivlari va passivlaridan oqilona foydalanishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bank passivlaridan samarali foydalanish depozit siyosatining oqilona yuritilishidan iborat bo'ladi.

Iqtisodiyot rivojlanishining yangi bosqichiga o'tish bilan birga, tijorat banklariga kredit resurslarini optimallashtirish mexanizmini ishlab chiqish va takomillashtirish masalalari, mavjud risklarni minimallashtirish, buning natijasi o'laroq bank kredit operatsiyalarining daromadligini oshirish vazifalari dolzarb etib qo'yildi. Bugungi kunda banklarda samarali tashkil etilgan va optimallashtirib borayotgan kredit qo'yilmalari manbalari tijorat bankining hisobot davridagi kreditlash faoliyati natijalarini prognozlash qilishda hamda aktiv operatsiyalar sifatini baholash imkonini beradigan mezon bo'lib xizmat qilmoqda.

Tijorat banki kredit portfelini optimallashtirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarining tarkibi va tuzulishimi ochib berish;

kredit resurslarining risklari, mijozlar tarkibi va muddatlari bo'yicha optimallashtirish;

kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;

bank kreditlari resurslarini diversifikatsiya qilishni, ularning likvidliligini va daromadliligini ta'minlash;


tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini sifat tahliliga asoslangan holda shakllantirib borish.

Tijorat banklari tomonidan kredit manbalarini optimallashtirish jarayonida ushbu vazifalarning bajarilishi, bankning faoliyatining samaradorligini oshirib, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, hukumat tomonidan bank tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni aniqlik bilan bajarib, bankning oladigan daromadi, foydasi va rentabellik darajasining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Bankning barqarorligini taminlashda kredit portfelining sifati va portfel daromadligini maqbul holatga keltirish asosiy vosita hisoblanadi. Buning uchun muhim vazifalardan biri bankning kreditlash manbalarini optimallashtirish hisoblanadi. Mavjud kredit resurslarining miqdori (davlat tomonidan arzon mablag‘lar beriladigan bir davrda), ularning qiymati, resurslarni jalb qilish shartlari bo‘yicha cheklovlar mavjud bo‘lgan holatda kredit qo‘yilmalarini samarali shakllantirish va uni optimallashtirish muammosi bank mutaxassislari uchun asosiy va doimiy yechilishi lozim bo‘lgan masala hisoblanadi.

Bankning moliyaviy barqarorligi ushbu qarorlarning to‘g‘riligiga bog‘liq bo‘ladi. Bank likvidligi bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishi, aktiv va passiv operatsiyalarni amalga oshirish jarayonlari samaradorligini oshirishni talab etadi. Shu asosda, kreditlash manbalarini shakllantirishda bank siyosatida nazarda tutilgan masalalarni samarali amalga oshirish, ishonchli kredit resurslarini tanlash muhim vazifalardan bo‘lishi kerak.

Quyida keltirilgan rasm ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasi bank tiziming asosiy ko‘rsatkichlari holatini keltiramiz.



22-rasm. O‘zbekiston bank tiziming asosiy ko‘rsatkichlari holati⁵¹


Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida ta’kidlash lozim, tahlil qilingan asosiy ko‘rsatkichlar holati bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlardan

⁵¹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, “Pul-kredit siyosatining 2023-2024-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari” ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

biri jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning depozitlarga nisbatida kuzatildi. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilda 2020-yilga nisbatan 17 foiz bandga pasayib, 147 foizni tashkil etdi. Ushbu holat 2020-2022-yillardagi tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslar uchun taklif qilinayotgan depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining jozibadorligi oshganligi natijasida aholidan jalb qilingan depozitlarning o'sish sur'atlari ularning moliyaviy majburiyatlari (kreditlari) oshishidan birmuncha yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi.

Banklarning aholi bilan munosabatlarida, so'nggi yillarda aholiga ajratilgan kredit qo'yilmalari hajmining keskin o'sishi va banklardagi aholi jamg'armalarining ham sezilarli oshishi ko'zga tashlanmoqda. Bunda, kreditlarning o'sishi depozitlarga nisbatan yuqoriroq bo'lib, oldingi davrlardan yig'ilib kelgan kechikkan talabning yuzaga chiqqanligini bildiradi. Xususan, banklarning aholidan talablari (asosan, kreditlar) 2017-yildagi YaIMga nisbatan 5 foizdan 2022-yil yakunida 11,4 foizgacha oshgan bo'lsa, aholi oldidagi majburiyatlarining (asosan, depozitlar) YaIMga nisbatan ushbu davrda 6,9 foizdan 8,2 foizgacha ko'tarilgan⁵².

Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari depozitlarining ajratilgan kreditlarga nisbati keltirilgan.



23-rasm. Tijorat banklari depozitlarining kredit qo'yimlariga nisbati⁵³

⁵² O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Kredit tashkilotlari prudensial nazorati departamenti, "Bank tizimi daromadlilik tahlili" ma'lumotlari, 2023-yil 1-yanvar.

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Pul-kredit siyosatining 2023-2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.


Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash lozim, tijorat banklari tomonidan tashqi qarz mablag'larining faol jalb etilishi va hukumat tomonidan mablag'larning yo'naltirishi bank tizimi majburiyatlarida depozitlar ahamiyatini pasaytirib yubordi. Xususan, depozitlarning kreditlarga nisbati barqaror pasayuvchi tendensiyani namoyon etib, 2012-yil boshidagi 85,1 foizdan 2017-yil boshida 72,3 foizgacha va tahlil davrining oxiriga kelib, 2023-yil 1-yanvar holatida kelib 33,6 foizgacha pasayganligini ko'rishimiz mumkin (2.5-rasm)⁵⁴.

Bank tizimi resurs bazasida, ya'ni tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini samarali boshqarishda ahamiyati oshib borayotgan yana bir muhim komponent hukumatning markazlashgan resurslari hisoblanib, tahlil natijalariga ko'ra banklarning hukumat oldidagi majburiyatlari so'nggi 5 yilda muntazam oshib bormoqda va 2022-yil yakuni bo'yicha 81trln. so'mdan oshganligini ta'kidlash joiz. Davlat dasturlari asosida kreditlar ajratish bo'yicha mablag'larning ajratilishi hamda hukumatning vaqtincha bo'sh pul mablag'larining depozitlarga joylashtirilishi hisobiga hukumat resurslarining jami bank majburiyatlaridagi ulushi o'sish dinamikasini hosil qildi, ya'ni 2017-yil boshidagi 11,7 foizdan 2023-yil 1-yanvarda 21,6 foizgacha oshganligi muhim ahamiyat kasb etadi⁵⁵.

Quyidagi keltirilgan rasmda mamlakatimiz tijorat banklarining hukumat oldidagi majburiyatlari holati va uning o'zgarish dinamikasi keltirilgan.

⁵⁴ Mazkur nisbat "Pul-kredit statistikasi" ma'lumotlari asosida hisoblangan bo'lib, umumiy bank tizimi statistikasidan farqi kreditlarda ham, depozitlarda ham hukumat, banklararo va norezidentlarning kredit va depozitlari hisobga olinmaydi.

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, pul-kredit siyosatining 2023-2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.



24-rasm. Bank tizimining hukumat oldidagi majburiyatlari dinamikasi (trln. so'mda) va jami majburiyatlardagi ulushi⁵⁶, (%da)

Yuqoridagi rasm ma'lumotlari asosida aytish mumkinki, bank tizimining hukumat oldidagi majburiyatlari asosan Yangi O'zbekiston bank tizimi davriga to'g'ri keladi. Hukumat oldidagi majburiyatlar 2017-yilgacha 10 trln. so'm atrofida shakllangan bo'lsa, tahlil davri-ning oxiriga kelib, 2023-yil 1-yanvar holatida 80 trln. so'mdan oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida shuni ta'kidlash joizki, davlatning banklarga markazlashgan resurslar taqdim etish hajmini va imtiyozli kreditlash amaliyotini qisqartirish iqtisodiyotning barcha subyektlari uchun teng sharoitlar yaratish, bank tizimini xususiylashtirish va banklarning ichki bozordan depozitlarni jalb etishini rag'batlantirishda muhim omillar hisoblanadi. O'z o'rnida, hukumatning tijorat banklaridan talabi ham YaIMga nisbatan o'rtacha 20 foiz darajasida shakllangan bo'lib, nominal YaIM o'sish darajasiga mos ravishda oshib borganligi ayrim davlat investitsion loyihalarining tijorat banklari orqali amalga oshirilganligi hamda aholi tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va davlat ipoteka dasturlari doirasida banklarga mablag'lar ajratilganligini o'zida ifoda etadi.

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, pul-kredit siyosatining 2023-2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bozor iqtisodi sharoitida bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tus olib bormoqda, chunki tijorat banklarining foydasi bank kapitali to'planishining va bank rivojlanishining asosiy manbasidir. Bank foydasining o'sib borishiga ta'sir qiladigan bir necha xil omillar mavjud ular – bankning rentabelligi, vaqtincha bo'sh mablag'larning samarali ishlatilishi, turli xil pullik xizmatlar doirasini (faktoring, lizing, trust xizmatlari va h.k.) kengaytirish, foyda keltirmaydigan aktivlarni kamaytirish, foyda keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish.

Shuningdek, tijorat banklari regulyativ kapitalining passivlar hajmidagi salmog'i barqarorligini ta'minlash bankning to'lovga qobilligini oshirish imkonini beradi, ammo bu holat uning moliyaviy barqarorligini oshishiga olib kelmasligi mumkin. Chunki kapital qimmat moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Lekin ta'kidlash joizki, B.Berdiyarovning sof foydaning o'sish sur'ati bilan jami aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash to'g'risidagi xulosasi respublikamiz tijorat banklari uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. A.Abdullayevning xulosasiga ko'ra, respublikamiz tijorat banklarida aktivlardan olingan daromadlarni me'yorga nisbatan 0,91 va 0,93 foizli punktga, olingan foydaning 0,81 va 0,96 foizli punktga past bo'lib, mazkur holatlar tijorat banklari resurslarini daromad keltiruvchi aktivlarga qulay joylashtirilmaganligi bilan izohlanadi.

Kredit qo'yilmalari manbalarini baholashda, ularni optimallashtirishda, kreditlash faoliyatini yuqori daromadli va sifatli tashkil etishda, aktivlar va majburiyatlar shartlarini boshqarish tizimini o'zgartirish, natijada foiz stavkalari farqi va pirovard natijada rentabellik muhim ahamiyatga ega. Har bir manbaning o'ziga xos xususiyatlari, o'zgaruvchanligi va zaxira talablari mavjudligini inobatga olish lozim. Ularni boshqarishga yondashuv har bir mablag' manbasini alohida ko'rib chiqadigan moliyaviy resurslarni konvertatsiya qilish usuli hisoblanadi.

Quyida keltirilgan jadvalda mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatining bozor qamrovi holari keltirilgan.

**Tijorat banklari kreditlash faoliyatining bozor qamrovi,
(mlrd. so‘m)⁵⁷**

Yillar / Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Tijorat banklari soni	28	29	30	32	33	35
Depozitlar umumiy miqdori	59 579	70 001	91 009	114 747	156 190	216 738
Kreditlar umumiy miqdori	110 572	167 391	211 581	276 975	326 386	420 615
Bank tizimi kreditlarini bozor qamrovi darajasi, (%)	53,9	41,8	43,0	41,4	47,9	49,2

Quyorida keltirilgan jadval ma’lumotlari asosida aytish mumkinki, tijorat banklari kreditlash faoliyatining bozor qamrovi darajasi oxirgi 3 yil uchun o‘shish dinamikasini tashkil qilgan. Shuningdek, tahlil davrining boshiga nisbatan, 2018-yilga nisbatan 4,2 foiz bandga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin.

Aytish kerakki, bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston bank tizimida, balki butun dunyoda kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirishda tijorat banklari uchun yagona metodologiya yo‘q, chunki har bir bankning mijozlar bazasi bir-biridan farqli, mamlakatlardagi qonunchilik farqlanadi, banklar taklif etadigan kredit mahsulotlari turlicha hisoblanadi. Har bir bank ushbu jarayonni optimallashtirish uchun umumiy modelini ishlab chiqadi maqsadga muvofiq. Muvaffaqiyatli tashkil etilgan va to‘g‘ri boshqarilgan kreditlash resurslari tijorat bankining moliya bozorida raqobatbardoshligini ta’minlaydi, yuqori rentabellikka erishishda asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda XXRning yirik tijorat banklaridan biri hisoblanadigan Xitoy Sanoat va Tijorat bankining passivlari tarkibi va tuzulishi haqida ma’lumotlarni ko‘rib chiqamiz.

⁵⁷ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Xitoy Sanoat va Tijorat banki passivlarining tarkibiy tuzulishi⁵⁸, foizda

Yillar / Manbalar	2019	2020	2021	2022	2023
Muddatsiz depozitlar	72,3	70,9	69,9	70,4	72,1
Banklar va boshqa moliya instrumentlari	10	9	9,1	9,5	10
Qimmatli qog‘ozlar	3,2	3,6	3,2	3,1	3
Jami xarajatli majburiyatlar (1+2+3)	85,5	83,5	82,2	83	85,1
Jami xarajatsiz majburiyatlar	6,5	7,1	6,5	5,7	5,4
Jami majburiyatlar	92	90,6	88,7	88,7	90,5
Banklarning kapitali	8	9,4	11,3	11,3	9,5
Jami:	100	100	100	100	100

Yuqorida keltirilgan jadval asosida, tadqiqot ishi doirasini kengaytirish, tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini samarali boshqarishni tashkil etish hamda xorijiy davlatlar tajribasini yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida ayni paytda dunyoda yetakchi mamlakat maqomiga tobora kuchli da’vogarlik qilayotgan va tijorat banklari aktivlari hajmi bo‘yicha top o‘rinni egallab kelayotgan Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) bank tizimining resurslarini shakllanishi va samarali boshqarish bilan bog‘liq munosabatlarni atroflicha ko‘rib chiqamiz.

Tahlil natijalari asosida shuni ta’kidlash lozim, Xitoy Sanoat va Tijorat bankida moliyaviy resurslarni jalb qilish samarali yo‘lga qo‘yilgan. Bu albatta, tijorat bankida moliyaviy resurslarni samarali shakllantirish va optimallashtirib borishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, tahlil etilayotgan 2019-2023-yillarda bankning jalb qilingan mablag‘larning 72,1 foizdan ortig‘i muddatli depozitlar hissasiga to‘g‘ri kelib, bankning jami xarajatli majburiyatlari o‘rtacha 83,8 foizni tashkil etmoqda. Bundan ko‘rinadiki, tijorat banklari

⁵⁸ Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

faoliyatida likvidlik darajasini barqaror ta'minlash bo'yicha deyarli muammolari mavjud emas, chunki bankning passivlari tarkibida jami xarajatsiz majburiyatlari 2018-2023-yillarda o'rtacha 5,4 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin (2.9-jadval).

Quyida keltirilgan ma'lumotlar asosida Xitoy Sanoat va tijorat banki aktivlari tarkibining tashlikiy tuzulishi holati keltirilgan.

20-jadval

**Xitoy Sanoat va tijorat banki aktivlarining tarkibiy tuzulishi⁵⁹,
foizda**

Yillar / Manbalar	2019	2020	2021	2022	2023
Kreditlar	58,7	58,8	59,8	61,2	61,6
Investitsiya	22,0	22,7	24,0	24,5	24,9
Markaziy bankka talablar	12,7	11,0	9,5	8,8	8,3
Boshqa banklarga talablar	6,5	7,5	6,7	5,4	5,2
Daromadli aktivlar jami	93,2	92,0	92,7	94,0	95,2
Daromadsiz aktivlar jami	8,3	9,5	8,8	7,7	6,6
Ehtimoliy yuqotishlarga zaxira	-1,5	-1,6	-1,6	-1,7	-1,8
Jami aktivlar:	100	100	100	100	100

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida ta'kidlash lozim, aktivlar tarkibida asosiy ulushni ajratilgan kreditlar va qilingan investitsiyalar tashkil etmoqda. Tahlil qilinayotgan davrning boshida, 2019-yilda jami aktivlar tarkibida 80,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 86,5 foizga yetgan. Shu bilan birga, aktivlar tarkibida Markaziy bankka talablari va boshqa tijorat banklaridagi talablari kamayish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. 2019-yilda Markaziy bankka talablar 12,7 foizni, boshqa tijorat banklaridagi talablar 6,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, tahlil qilingan davr oxiriga kelib, mos ravishda 8,3 va 5,2 foizga tushgan.

⁵⁹ Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

Shuningdek, Amerika Qo‘shma Shtatlari yaxshi rivojlangan bank sektoriga ega va tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirish uchun turli strategiyalardan keng foydalanadi. AQSh bank tizimida uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish va ularning ulushining yuqoriligi boshqa davlatlar bank tizimining resurslar tuzulishi bilan farqlanadi.

Quyidagi jadvalda AQSh bank tizimining jalb qilingan resurslari tarkibi xususida fikrlar va ularning tahliliy ma’lumotlari keltirilgan.

21-jadval

AQSh bank tizimining jalb qilingan mablag‘lari tarkibi va dinamikasi⁶⁰, %

Yillar / Manbalar	2019	2020	2021	2022	2023
Muddatsiz depozitlar	6,1	6,2	7,5	6,5	5,7
Muddatli va jamg‘arma depozitlar	62,3	61,2	61,2	56,3	61,3
Xalqaro majburiyatlar	10,2	13,0	12,2	19,7	13,4
Hukumatning depozitlari	0,9	0,7	0,9	1,3	0,9
Banklardan olingan kreditlar	0,7	0,9	0,6	0,9	0,9
Nobank moliyaviy institutlar majburiyatlari	10,1	8,5	7,6	4,5	8,0
Banklarning kapitali	9,7	9,5	10,0	10,8	9,8
Jami jalb qilingan esurslar	100	100	100	100	100

Quyorida keltirilgan jadval ma’lumotlari asosida aytish mumkinki, AQSh bank tizimi resurslari tarkibida muddatli va jamg‘arma depozitlarning ulushi yuqori saqlanib, qariyb 60 foizdan yuqori ulushni tashkil etmoqda. Xorij amaliyotidagi ijobiy jihatlardan biri mijozlarning mablag‘larini onlayn omonatlarga jalb qilish hisoblanadi. O‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, xalqaro amaliyot-

⁶⁰ Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

da moliyaviy resurslarni jalb qilishning turli konsepsiyalari, modul-lari, usullaridan keng qo‘llaniladi.

Fikrimizcha, AQSH va XXRning yirik tijorat banklarini tahlil qilish natijasida aytish mumkinki, xalqaro amaliyotda tijorat banklari resurslarni samarali boshqarishda asosiy e‘tiborni investitsiyalarga qaratmoqda. Shu bilan birga, tahlil qilinayotgan tijorat banklarida investitsiyalarning ulushi 35 foizdan yuqori ko‘rsatkichga egaligi ijobiy holat emas, sababi ushbu banklar daromadining asosiy qismini speku-lyativ yo‘llar bilan shakllanmoqa deyish mumkin. Buning salbiy jihati shundan iboratki, mazkur banklarning moliyaviy resurslari real sektorni moliyalashtirish orqali yangi qo‘shimcha qiymat topishga emas, balki moliyaviy pufaklarni vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Tadqiqot ishi davomida mamlakatimiz bank tizimiga juda o‘xshash bo‘lgan Rossiya bank tizimi resurslarining tarkibi va ularning o‘zgarish dinamikasi tahlilini ko‘rib chiqamiz.

22-jadval

Rossiya bank tizimining jalb qilingan mablag‘lari tarkibi va dinamikasi⁶¹, foizda

Yillar / Manbalar	2019	2020	2021	2022	2023
Muddatsiz depozitlar	24,5	26,3	23,5	19,5	23,5
Muddatli va jamg‘arma depozitlar	30,2	32,4	34,6	32,9	35,4
Bozor instrumentlari	6,9	6,8	5,6	6	5,4
Muzlatilgan depozitlar	0,4	0,7	0,9	0	0,1
Xalqaro majburiyatlar	18,5	12,4	15,9	19,2	18,6
Hukumat depozitlari	1,5	2,9	3,2	5,3	1,4
Nobank moliyaviy institutlarning kreditlari	2,8	2,1	2,2	1,5	2,6
Banklar kapitali	11,3	12,3	12,6	11,6	12,3
Boshqa passivlar	3,9	4,1	1,5	4,0	0,7
Jami:	100	100	100	100	100

⁶¹ Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, boshqa MDH mamlakatlari kabi, Rossiya bank tizimida ham, ya'ni tijorat banklari resurslari tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlarining miqdori hamda ulushi rivojlangan mamlakatlarnikiga nisbatan pastroq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, xorij amaliyotida tijorat banklari moliyaviy resurslarni samarali boshqarishning asosiy usullaridan biri sifatida passivlar tarkibida uzoq muddatli va nisbatan arzon moliyaviy mablag'larni jalb qilish amaliyotiga e'tibor qaratishi amaliy jihatdan muhim hisoblanadi, aynan shu jarayon mamlakatimiz tijorat banklarifaoliyatida moliyaviy resurslarni boshqarishdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ayrim rivojlangan va MDH mamlakatlarining tijorat banklarida resurslarni shakllantirish, jalb qilish va samarali boshqarish bilan bog'liq tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimiz bank tizimi uchun quyidagi tajribalarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalari tarkibida uzoq muddatli moliyaviy resurslarning ulushi sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatdi, bu o'z navbatida ularning likvidligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

bankning majburiyatlarini bajarish bo'yicha talablar ham unchalik darajada yuqori emasligi resurslar tarkibida talab qilib olinguncha mablag'lar ulushidan sezish mumkin, bu holat ham banklarning moliyaviy resurslarni boshqarishda samarali ta'sir ko'rsatish vositasidir;

yagona vakillik hisobvaraqlari orqali mablag'larni samarali joylashtirish va boshqarish imkoniyatiga egaligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda banklar o'zlarining kredit qo'yilmalari manbalarini faqatgina o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirishlari va uni boshqarishlari ancha murakkab bo'lgan masala hisoblanadi. Ularga o'zlarining kreditlash uchun zarur resurslarni jalb qilish, shakllantirish va uni optimallashtirish hamda sifatli boshqarilishi uchun boshqa moliya institutlari bilan aloqa o'rnatishlari, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish ancha yordam beradi.

Keyingi yillarda Markaziy bankning qayd etilgan monetar siyosatning instrumentlaridan usullaridan birortasi ham samarali amal qilayapti, deya xulosa chiqarish noto‘g‘ri. Bundan tashqari, Markaziy bank qaysidir darajada mustaqil ravishda monetar siyosatni amalga oshirish imkoniyatiga ham ega emas. Xususan, Markaziy bank monetar siyosatining muhim instrumenti hisoblangan asosiy stavkasi 2024-yil holatida 13,5 foizni tashkil etayotgan bo‘lsa, barcha tijorat banklari ham ushbu foiz stavkasi asosida Markaziy bankdan ma’lum muddatga kredit olish imkoniyatiga ega emas. Markaziy bank ushbu kreditlarni asosan davlat ulushi yuqori bo‘lgan tijorat banklariga berishi mumkin.

Shu bilan birga, asosiy stavka darajasi juda yuqori bo‘lib uni kelgusida bosqichma-bosqich pasaytirish asosida 8 foizgacha tushirish maqsadga muvofiq. Markaziy bank tomonidan asosiy stavkani taklif etilayotgan darajaga tushirilishi natijasida, birinchidan, tijorat banklarining arzon moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyati ortadigan bo‘lsa, ikkinchidan, tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan kreditlarning foiz stavkalari ham pasayishi yuz beradi. Markaziy bankning asosiy monetar instrumentlaridan biri majburiy zaxira siyosati hisoblanib, ayni paytda tijorat banklari tomonidan jalb qilingan mablag‘larning muddati va manbalaridan qa’tiy nazar milliy valyutadagilarga 4 foiz, xorijiy valyutalarga 18 foiz qilib belgilangan.

Fikrimizcha, tijorat banklari resurslari tarkibida depozitlar hajmining nisbatan patligi sharoitida, shuningdek jalb qilinayotgan mablag‘lar manbasi qimmat va qisqa muddatga ekanligini hisobga olib, Markaziy bankning majburiy zaxira me’yorini bekor qilish yoki yanada pasaytirish maqsadga muvofiq. Tijorat banklarining ayrim aktiv va passiv operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalari bank xizmatlari bozoridagi talab va taklif asosida shakllanadi. Ayni paytda, mazkur bozordagi stavkalarga e’tibor qaratadiganda, riskka tortilgan aktivlar, asosan kreditlar va banklarning jalb qilingan depozitlari, o‘zaro banklardan olingan kreditlarning foiz stavkalari sezilarli darajada yuqori bo‘lib, bu ko‘p hollarda bank mijozlari va aholining haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, foiz stavkalarining oshishi tijorat banklari uchun foiz riskining oshishiga sabab bo‘ladi. Foiz riski - bank aktivlari va passivlari bo‘yicha nomaqbul bo‘lgan sharoitda foiz stavkalarining o‘zgarishi oqibatida bank moliyaviy yo‘qotishlarni boshidan kechiradi. Foiz riskining oshishi natijasida banklar oladigan daromadlari hajmining qisqarishiga yoki depozitlar bo‘yicha to‘laydigan xarajatlar summasing ortib ketishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida, tijorat banklarining foydalilik darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Banklarda foiz riskining manbalari sifatida qat‘iy foiz stavkalari o‘rnatilgan aktivlar, passivlar va balansdan tashqari majburiyatlar bo‘yicha so‘ndirish muddatlarining nomuvofiqligini keltirish mumkin. Tahlillar va o‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, tijorat banklari moliyaviy resurslarning hajmi va muddatiga mamlakat milliy valyutasining qadrsizlanishi ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ayni paytda mamlakatdagi rasmiy inflyatsiya darajasi 2022-yilda 12,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil holatida 9,3 foizni tashkil etmoqda.

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini shakllantirish va samarali boshqarishda iqtisodiyotda monetizatsiya koeffisienti ham muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlardan hisoblanib, O‘zbekistonda monetizatsiya koeffisienti 2023-yilda 21,2 foizni tashkil etdi. Masalan, 2018-yilda monetizatsiya koeffisienti (yalpi ichki mahsulotning M1 va M2ga nisbati) Xitoyda 167,38 foiz, Yaponiyada 138,1 foiz va AQShda 68,08 foizdan iborat bo‘lgan. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda iqtisodiy omillar bo‘lgan YaIM, eksport, import va aholining daromadlari ham muhim o‘rin tutadi.

Yuqorida olib borilgan o‘rganishlar asosida shuni ta‘kidlash lozim, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida, bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta‘minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan qator vazifalar mavjud. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalari

samarali boshqarish, kreditlash resurslarini optimallashtirish ushbu vazifalarning muhim biri hisoblanadi.

2.3. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirishga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili

Dissertatsiya ishining ushbu qismida tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirish, banklarda moliyaviy resurslarni prognozlashtirishni takomillashtirish, tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishning zamonaviy konsepsiyasi va uni amaliyotda qo‘llash mexanizmi, milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida tijorat banklari kreditlash uchun zarur resurslarini boshqarish amaliyotini takomillashtirish yo‘llari ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirishda unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlab olish zarur. Kredit portfelini optimallashtirishga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlilini amalga oshirish uchun bir nechta statistik usullardan foydalanish mumkin. Bu usullar bankning likvidligini ta’minlashda, bank resurslarini samarali shakllantirishda, passiv operatsiyalar rentabelligini oshirishda, kredit portfelining samaradorligini oshirishda va bankning foydasini oshirishga qaratilgan vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Olib borilgan izlanishlar natijasida shuni ta’kidlash lozim, turli iqtisodchi olimlar o‘z izlanishlarida kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirishda turli xil mustaqil o‘zgaruvchi va tobe o‘zgaruvchilarning ta’sirini tadqiqot qilishgan. Ekonometrik modellar qatoriga Parametrik model, Markov Market Share Model, Panel ma’lumotlar modeli, Logistik regressiya modeli, Dinamik panel modeli, portfel nazariyasi (portfolio theory) modeli, Fixed effects estimator (FEE) Modeli, Randam effects estimator (FEE) Modeli, Pooled OLS Modeli (POLSE) va boshqa modellar orqali optimal portfel omillari tahlil qilinadi.

Ekonometrik modellashtirishda tadqiqotlar **“Dinamik panel model”** asosida ko‘plab kuzatuvlarni keng ko‘lamli ma’lumotlar

bilan ta'minlaydi, natijada kovariatsiyani va tushuntirish o'zgaruvchilari o'rtasidagi kollinearlikni ochib beradi. Panel ma'lumotlari bir nechta ketma-ket vaqt oralig'ida izchil obyektlar guruhiga tegishli statistik ma'lumotlarni anglatadi. Shuningdek, panel ma'lumotlari bilan ishlab chiqilgan ekonometrik modellarga nisbatan Gauss Markov, Durbin Watson, Shariro Wilk va Hausman testlarining fundamental baholash olib boriladi. Model asosida o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarning bog'liqligi, tabiati va o'lchov kattali alohida o'rganiladi.

Dissertatsiyaning ushbu qismida kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish darajasiga ta'sir etuvchi omillarining statistik tahlili olib borilgan. Bunda, YaIM, tijorat banklarining muddatli depozitlari, jamg'arma depozitlar, banklararo kreditlar miqdori, emissiya qilingan obligatsiyalar, aholi daromadlarining oshishi, kreditlash stavkasi, depozitlar foiz stavkasi, Markaziy bankning asosiy stavkasi, Markaziy bankning majburiy zaxira stavkasi, monetizatsiya koeffitsiyenti, portfel diversifikatsiyasi, kredit foiz stavkasi kabi 12 ta asosiy belgilovchilarning ma'lumotlari qo'llanildi.

Tijorat banklari moliyaviy samaradorlikni oshirishga, kredit portfeli risklarini kamaytirishga va xarajatlarni qisqartirishga harakat qilib, o'zi uchun eng optimal bo'lgan kredit portfeli tuzilmasini shakllantiradilar. Bank tizimi faoliyatiga hamda uning kredit samaradorligiga ta'sir etuvchi faktorlardan biri bu uning kredit portfeli strukturasi sanaladi.

Shuningdek, optimal kredit portfelini shakllantirishda va uni aniqlashda quyida keltirilgan bog'liq o'zgaruvchi va kontrol o'zgaruvchilardan foydalanamiz.

Bog'liq o'zgaruvchi kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish (Optimization the sources of credits of commercial banks - OCCB) sifatida olindi.

Kontrol o'zgaruvchilar quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:
YaIMga nisbatan kreditlar qo'yilmalari (LPtoGDP),
inflatsiya darajasi (InR),
muddatli depozitlar (TD),
aholi daromadlari (In),

depozit foiz stavkasi (DR),
 kreditlar o‘rtacha foiz stavkasi (Ci),
 Markaziy bankning asosiy stavkasi (RR),
 nodepozit mablag‘lar bahosi (NDR),
 istemol narxlar indeksi (CPI),
 jamg‘arma depozitlar (SD),
 emissiya qilingan obligatsiyalar (OB),
 banklararo kreditlar bahosi (BC).

Shu bilan birga ushbu modeldan foydalanish orqali tijorat banklarining kreditga yo‘naltirilgan resurslari sifatini oshirish, kredit qo‘yilmalari manbalarini likvidlik, daromadlilik va risklilikka ko‘ra tahlil etilishi asosida optimallashtirish imkoniyatlari yaratiladi.

Quyida keltirilgan jadval ma’lumotlari asosida mustaqil hamda kontrol o‘zgaruvchilar uchun korrelyatsiyalar jadvali hamda tasviriy statistika keltirilgan.

23-jadval

Bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikning korrelyatsiya matritsasi⁶²

Indicator -variable	(1)	(2)	(3)	(4)	5)	6)	(7)	(8)	(9)	(10)	(11)	(12)
(1) LP_GDP)	1.000											
(2) InR	-0.280	1.000										
(3) TD	-0.042	-0.048	1.000									
(4) In	-0.012	-0.213	-0.158	1.000								
(5) DR	-0.032	0.008	0.067	-0.017	1.000							
(6) Ci	-0.079	0.458	-0.029	-0.086	-0.165	1.000						
(7) RR	-0.083	0.436	-0.035	0.082	-0.125	-0.108	1.000					
(8) NDR	-0.048	-0.045	0.093	-0.023	-0.312	0.045	-0.096	1.000				
(9) CPI	-0.012	0.351	0.092	0.231	0.013	-0.056	0.056	-0.076	1.000			
(10) SD	0.056	0.213	-0.235	0.147	0.058	0.039	-0.045	-0.049	0.041	1.000		
(11) OB	-0.061	-0.415	0.405	-0.12	0.033	0.065	-0.012	0.063	-0.021	-0.048	1.000	
(12) BC	-0.044	0.105	-0.042	0.251	-0.079	-0.024	0.023	-0.031	0.056	0.085	0.024	1.000

⁶² STATA 15 dasturidan foydalangan holda tadqiqotchi tomonidan mustaqil hisoblab chiqildi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikning korrelyatsiya matritsasi tahlili keltirilgan. Bunda, korrelyatsiya matritsasi natijalariga ko'ra o'zgaruvchilar o'rtasida yuqori darajadagi korrelyatsiya (*significant correlation*) mavjud emasligi, shuning uchun biz ularni regression analizda qo'llay olamiz aniqlanganligini ko'rishimiz mumkin.

24-jadval

Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikning tasviriy statistikasi⁶³

Indikator	Kuzatuvlar soni	O'rtacha	Standart og'ish	Min	Max
LP_GDP)	134	3.102	4.026	.337	51.33
InR	134	.263	.31	.374	.96
TD	134	.154	.951	0	11.93
In	134	3.39	3.972	.128	28.11
DR	134	2.15	.562	0	4.65
Ci	134	.132		0	2.87
RR	134	1.13	.235	0	
NDR	134	.362		.457	3.11
CPI	134	.149	1.345	0	
SD	134	1.25		0	
OB	134	2.15		1.103	
BC	134	.306		-2.085	

Shu bilan birga, ekonometrik modelga asoslanib, quyidagi regression tenglamagani hosil qilamiz:

$$OCP_{it} = \beta_0 + \beta_1 LPtoGDP + \beta_2 InR_{it} + \beta_3 PL_{it} + \beta_4 ROA_{it} + \beta_5 NPL_{it} + \beta_6 DSR_{it} + \beta_7 DSTI_{it} + \beta_8 LTV_{it} + \beta_9 YP_{it} + \beta_{10} PD_{it} + \beta_{11} CR_{it} + \delta_t + \varepsilon_{it}$$

Ushbu ekonometrik model tuzilgandan so'ng, regressiya analizi orqali ma'lumotlar va o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishingiz mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, model parametrlarini

⁶³ STATA 15 dasturidan foydalangan holda tadqiqotchi tomonidan mustaqil hisoblab chiqildi.

aniqlash va ularning natijalarini tushuntirish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlar asosida regressiya natijalari va ularning tahlilini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

25-jadval

Regressiya natijalari⁶⁴

	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)
O'zgaruvchilar	Model	Model	Model	Model	Model
YaIMga nisbatan kredit qo'yilmalari (LPtoGDP),	-4.341***	-4.254***	-3.874**	-3.805***	-4.112***
	(1.345)	(1.485)	(1.246)	(1.421)	(1.524)
inflatsiya darajasi (InR),	-0.214***	-0.413***	-0.217**	-0.346***	-0.130**
	(0.104)	(0.0965)	(0.102)	(0.0801)	(0.0562)
muddatli depozitlar (TD),	0.694**	0.729**	0.532*	0.659**	0.506*
	(0.293)	(0.281)	(0.298)	(0.305)	(0.255)
aholi daromadlari (In),	-2.524*	-2.647*	-2.678*	-2.347	-3.001**
	(1.412)	(1.431)	(1.314)	(1.325)	(1.347)
depozit foiz stavkasi (DR),	-0.0554		-0.0602	-0.0608	-0.0801*
	(0.0447)		(0.0389)	(0.0426)	(0.0424)
kreditlar o'rtacha foiz stavkasi (Ci),	-0.325*	-0.298*	-0.286*	-0.154	0.332*
	(0.0256)	(0.0154)	(0.0147)	(0.0237)	(0.0187)
Markaziy bankning asosiy stavkasi (RR),	0.0225*	0.0256*	0.0245	0.0305**	0.0322**
	(0.0196)	(0.0128)	(0.0204)	(0.0140)	(0.0156)
nodepozit mablag'lar bahosi (NDR),	0.0494*	0.0537*	0.0378	0.0568**	0.0631**
	(0.0279)	(0.0268)	(0.0281)	(0.0250)	(0.0238)

⁶⁴ STATA 15 dasturidan foydalangan holda tadqiqotchi tomonidan mustaqil hisoblab chiqildi.

istemol narxlar indeksi (CPI),	0.119**	0.115**	0.0874*	0.100*	0.108*
	(0.0532)	(0.0531)	(0.0482)	(0.0509)	(0.0567)
jamg'arma depozitlar (SD),			-1.943*		
			(0.892)		
emissiya qilingan obligatsiyalar (OB),				-2.395**	
				(0.721)	
banklararo kreditlar bahosi (BC).					-4.833***
					(1.648)
Constant	62.92***	65.84***	88.54***	64.04***	63.37***
	(12.85)	(12.87)	(11.48)	(12.15)	(13.79)
Observations	134	134	134	134	134
R-squared	0.603	0.605	0.601	0.615	0.628
Number of Country ID	29	29	29	29	29
Country FE	Yes	Yes	Yes	Yes	Yes
Year FE	Yes	Yes	Yes	Yes	Yes
Adj. R-squared	0.571	0.583	0.635	0.594	0.617
Robust standard errors in parentheses					
*** p<0.01, ** p<0.05, p<0.1					

Ushbu tadqiqot natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, YaIMga nisbatan kreditlar qo'yilmalari (LPtoGDP), muddatli depozitlar (TD), aholi daromadlari (In), depozit foiz stavkasi (DR), Markaziy bankning asosiy stavkasi (RR), nodepozit mablag'lar bahosi (NDR), jamg'arma depozitlar (SD), banklararo kreditlar bahosi (BC) omillari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish uchun yuqori statistik ahamiyatga ega ekanligi regressiya natijalari asosida aniqlandi.

Shuningdek, kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish uchun tanlab olingan inflatsiya darajasi (InR) va kreditlar o'rtacha

foiz stavkasi (Ci) kabi ko'rsatkichlar moliyaviy resurslarni optimallashtirishda statistik ahamiyati pastroq deb baholandi.

Quyida keltirilgan jadvalda "Dinamik panel model" regressiyasi natijalari bo'yicha omilli va natijaviy belgilar holatini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

26-jadval

"Dinamik panel model" regressiyasi natijalari bo'yicha omilli va natijaviy belgilar tenglamasi⁶⁵

Y (dependent variabe)	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf Interval]	Sig
LP_GDP)	.019	.002	0.31	.756	-.008 .087	**
InR	.435	.174	4.23	0	.36 1.081	*
TD	.097	.01	7.03	0	.05 .089	***
In	.123	.008	2.90	.005	.007 .031	***
DR	.194	.043	2.19	.031	.009 .18	**
Ci	-.206	.022	-9.51	0	-.241 -.168	***
RR	.205	0.52	1.36	0	.145 .84	**
NDR	-.125	.034	-3.12	.023	.495 .423	**
CPI	.142	.554	2.98	0	-.029 .389	***
CD	.014	.326	0.96	0	.124 -.018	***
OB	-.421	.412	-4.21	.023	.312 .54	***
BC	.89	.108	-2.83	.019	.065 -.19	**
Constant	2.467	.535	3.39	0	.1141 3.29	***
Mean dependent var	-0.119		SD dependent var		0.915	
R-squared	0.641		Number of obs		100	
F-test	89.608		Prob > F		0.000	
Akaike crit. (AIC)	218.65		Bayesian crit. (BIC)		58.758	
*** p<.01, ** p<.05, * p<.1						

Modeldan kelib chiqib tadqiqot ishimizda quyidagi regression tenglamaga ega bo'lamiz:

⁶⁵ STATA 15 dasturidan foydalangan holda tadqiqotchi tomonidan mustaqil hisoblab chiqildi.

$$OCP = 2.467 + 0.019LP_{GDP} + 0.435InR + 0.970PL + 0.123ROA + 0.194ROE - 0.206NPL + 0.205DSR - 0.125DSTI + 0.142LTV + 0.014YD - 0.421PD + 0.89CR$$

Tadqiqot ishida foydalanilgan model ko'rsatishicha: tijorat banklari muddatli depozitlarning bir foizga ortishi tijorat banklari faoliyatida jami barqaror mablag'larni 0.358 foizga ortishiga olib kelishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, jamg'arma depozitlarni bir foizga o'zgarishi jami barqaror mablag'larni 0.215 foizga o'zgarishiga sabab omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, banklararo kreditlarni bir foizga ortishi baqaror mablag'larni 0.444 foizga o'sishiga olib kelishi tadqiqot ishida statistik aniqlandi.

Tanlab olingan model bo'yicha tijorat banklari moliyaviy resurslarini 2024-2028-yillar bo'yicha prognoz natijalarini joriy, pessimistik va optimistik nuqtai-nazaridan quyidagicha holat ko'rib chiqildi:

27-jadval

Tijorat banklari barqaror mablag'larini prognoz ko'rsatkichlari⁶⁶, (mlrd. so'mda)

Yillar	Joriy	Optimistik (max)	Pessimistik (min)
2024	196 336,3	240 072,9	152 624,7
2025	212 897,1	263 449,5	162 345,8
2026	239 240,3	297 417,9	181 062,6
2027	255 801,2	322 118,4	189 483,8
2028	279 209,6	356 402,8	273 468,3

Tadqiqot ishi metodi asosida olib borilgan tahlil va uning ahamiyatligini bir qator testlarda, xususan, Dickey-Fullar, Portmanteau, Brosh-Pagan, Shapiro-Vilk, Brosh-Godfrey testlari asosida to'liq tekshirilib prognoz qiymatlarini ishonchli ekanligi

⁶⁶ STATA 15 dasturidan foydalangan holda tadqiqotchi tomonidan mustaqil hisoblab chiqildi.

tasdiqlandi. Xususan, 2028-yilda tijorat banklari barqaror mablag'larini joriy prognoz bo'yicha 279 209,6 mlrd. so'mni, pessimistik nazariya bo'yicha 273 468,3 mlrd. so'mni tashkil etishi va yana bir holatda, optimistik nazariyaga ko'ra 356 402,8 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Olib borilgan modellashtirish asosida tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish maqsadida quyidagi xulosalar shakllantilgan:

- asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich sifatida ish haqi tijorat banklarining barqarorligiga, likvidligiga, depozitlar holatiga to'g'ridan to'g'ri va statistik kuchli ta'sir qilishi aniqlandi;

- tijorat banklari tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini samarali shakllantirish, uni optimallashtirish va bank likvidligini muntazam oshirish, avvalo, bankning siyosatiga ko'proq bog'liq. Shu bilan birga, bu barcha modellarda tashqi omillarga nisbatan ichki omillar ustuvorlikka ega ekanligi bilan izohlanadi;

- barcha o'n ikkinta ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, har qaysi tijorat bankida asosiy, muhim, jozibador va ishonchli ko'rsatkich sifatida kredit stavkasi namoyon bo'ladi. Kredit stavkasi bo'yicha olib borilgan to'g'ri siyosat kredit qo'yilmalari manbalarini samarali shakllantirish, uni optimallashtirishga, depozitlarga va likvidlikni oshirish bo'yicha eng yuqori ustuvorlikni ta'minlashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi;

- modellardagi koeffisientlarning ishonchlilik holatidan kelib chiqib, muddatli va jamg'arma depozitlarni jalb qilish, bank likvidligini oshirishda muddatsiz depozitlar ham muhim o'ringa ega.

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan ustuvorliklardan to'g'ri va oqilona foydalanish uchun xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan bank mexanizmlarini qo'llab, muddatsiz depozitlarni, avvalo belgilangan muddatga jalb qilib, so'ngra kredit vositasida qo'llashni taqozo etadi. Shundagina banklarning likvidligi barqaror holatda ortib boradi hamda tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini samarali shakllantirish va moliyaviy manbalarni optimallashtirish imkoniyati kengayadi.

Olib borilgan o'rganishlar asosida shuni ta'kidlash lozim, tijorat banklari o'z ichki faoliyatini ya'ni depozitlar bilan kreditlar foiz stavkasini to'g'ri amalga oshira boshlagandan so'ng, banklarning likvidiligini oshirish uchun obligatsiyalarni emissiya qilish va monitoring qilib borish ham ishonchli va samarali ekanligi isbotlandi. Tadqiqot ishi jarayonida amalga oshirilgan ilmiy va amaliy natijalarga asoslanib tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishning zamonaviy konsepsiyasi loyihasini yaratgan.

III-BOB. TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARI MANBALARINI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalari samaradorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar

Dunyoda keyingi 200 yil ichida 20 dan ortiq turli darajadagi moliyaviy- iqtisodiy inqirozlar ro‘y bergan bo‘lib, ularning asosiy sabablaridan biri, mamlakatda moliya va fond bozorlari hamda kredit muassasalarida yetarli darajada boshqaruvning yo‘lga qo‘yilmaganligi va mavjud iqtisodiy riskning aniq baholanmaganligi bilan izohlanadi. Buning natijasi o‘laroq, nafaqat mazkur mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti, balki ularga qo‘shni bo‘lgan va iqtisodiy hamkor mamlakatlar iqtisodiyoti ham katta miqdorda zarar ko‘rmoqda.

Shuningdek, 2023-yilda jahonda moliyaviy barqarorlik xatarlari oshdi. AQSh va Yevropa moliyaviy tizimlarida yuzaga kelgan noaniqlik bir qator banklarning moliyaviy yo‘qotishlarga uchrashiga olib keldi. AQShda bir nechta banklarning (Silicon Valley Bank, Signature Bank va First Republic Bank) bankrot deb e‘lon qilinishi hamda Shveysariyaning Credit Suisse bankining UBS tomonidan qo‘shib olinishi ortidan boshqa banklarning defoltga uchrash xavfi kuchayib bormoqda⁶⁷. Bu esa, moliyaviy bozorlarda tahlika uyg‘o-nishiga va tebranuvchanlikning oshishiga sabab bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari tashqi va ichki xatarlarga nisbatan bardoshlilikini ko‘rsatib, banklarning iqtisodiyotni kreditlar bilan ta‘minlash hamda potensial shoklar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni qoplash uchun yetarli darajada kapital bilan ta‘minlanganini ta‘kidlash lozim. Shuningdek, kreditlar qoldig‘ining o‘sishi, xorijiy valyutada berilgan kreditlar ulushining ko‘payishi, majburiyatlar tarkibida barqaror bo‘lmagan moliyalashtirish manbalarining mavjudligi tahlil etilayotgan davr mobaynida shakllanayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Moliyaviy barqarorlik sharhi, 2023-yil, 4-5-bet ma‘lumotlari.


Tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish nafaqat yangi mijozlarni, balki resurslarni jalb etish manbalari tuzilmasini doimiy ravishda o'zgartirib turishni ham o'z ichiga olib, tijorat banki aktivlari va passivlaridan oqilona foydalanishning tarkibiy qismi hisoblandi. Passivlardan samarali foydalanish to'g'ri depozit siyosatini yuritishni talab qiladi. Tijorat banklarida depozit siyosati samaradorligini baholash uslubiyati masalalarini o'rganish asosida tijorat banklari resurs bazasida ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan qarz mablag'lari salmog'ining oshib borishi hamda jismoniy va yuridik shaxslardan jalb etilgan depozitlar salmog'ining kamayib borishi mazkur jarayonning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklari depozit siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan o'rganishlar, tahlillar va tadqiqotlarning natijalariga asoslangan holda, quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

- mamlakatimiz tijorat banklari depozit siyosatini takomillash-tirish maqsadida xalqaro va mahalliy fond-moliya bozorlarida vujud-ga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni inobatga olish, depo-zit siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha marketing va menej-ment faoliyatini tashkil etish,

- hisobot davrining yakunida depozit siyosatida belgilangan vazifa va asosiy yo'nalishlarning bajarilishi bank Boshqaruvida muhokama qilish va tegishli qarorlar qabul qilish lozim;

- tijorat banklarida depozit siyosatini ishlab chiqishda asosiy e'tibor qaratiladigan masalalardan biri likvidlilik va rentabellik o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zarur ahamiyat kasb etadi.

Banklarning joriy holatini o'rganish va tahlil qilish asosida depo-zit operasialarini amalga oshirish tijorat bankining depozit siyosatini shakllantirish zaruratini tug'diradi. Bank depozit siyosatining shakllanishidagi har bir jarayon bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mukammal depozit siyosatini ishlab chiqish va bank depozit operasialarini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lib hisoblanadi. Shu munosabat bilan, tijorat banklari depozit siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:



25-rasm. Tijorat banklari depozit siyosatining asosiy yo'nalishlari

Resurslar barqarorligi masalalarini ko'rayotganda omonatlarni kafolatlanishiga ham e'tibor qaratish lozim. Chunki ushbu holatning borligi mijozlarning banklarda mablag'saqlash psixologiyasiga ta'sir etuvchi eng zarur omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida omonatchilarning omonatlarini himoya qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2002-yildagi 326-sonli qarori bo'yicha "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi" tashkil etilgan. Fond faoliyatining maqsadi, bankning bank operatsiyalarining amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasi Markaziy bank tomonidan chiqarib olingan taqdirda, fuqarolarning banklardagi omonatlariga ham to'lanishini qonunchilikda nazarda tutilgan shartlarda va miqdorda kafolatlashdan iboratdir.


Bank o'z faoliyatida omonatning bir qator turlarini amaliyotga tadbiiq etgan, lekin aholi omonatlari bo'yicha olib borilayotgan ishlar talab darajasiga bormay qolmoqda, chunki aholi jamg'armalarining ulushi o'rtacha hisobda 6-7 foizdan oshmay kelmoqda.

Fikrimizcha, bank o'zining depozit faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi:

- depozit, kredit va boshqa operatsiyalarini bankning barqarorligini ta'minlashi bo'yicha bog'likligini yanada kuchaytirishi;
- risklarni kamaytirish uchun resurslarni diversifikatsiya qilinish lozim;
- depozit portfelni turkumlash (mijozlar bo'yicha);
- mijozlarni turlari bo'yicha individual yo'nalish olib borish;
- xizmatlarning raqobatbardosh bo'lishi.

Yuqorida keltirilgan xulosa va takliflarni bank amaliyotida qo'llanilishi tijorat banklari depozit siyosatini takomillashtirish imkoniyatini berish bilan birga, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish va banklarning real sektorni kreditlashga yo'naltirayotgan mablag'lari hajmini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari manbalari ikki yo'nalishda shakllanadi: 1) depozit mablag'lari hisobidan, 2) nodepozit mablag'lar hisobiga. Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari jami resurslari tarkibida asosiy manbalar: depozit mablag'lari va nodepozit mablag'larining nisbati va dinamikasini ko'rishimiz mumkin.



26-rasm. Tijorat banklari jami resurslari tarkibida asosiy manbalar nisbati va dinamikasi, (trln. so'm)⁶⁸

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, tahlil davrining boshidan, 2018-yildan 2021-yilgacha jami resurslari

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Pul-kredit siyosatining 2023-2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

tarkibida nodepozit mablag‘larining ulushi ko‘proq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tahlil davrining oxiriga kelib, 2023-yilda jami resurslari tarkibida depozit mablag‘lari nodepozit manbalardan 7,2 foiz banda oshib 241,7 trln. so‘mga yetgan. Shuningdek, nodepozit mablag‘lar ham yillar davomida o‘shish dinamikasini tashkil etgan holda, 2023-yilda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 14,2 foiz bandga o‘shib, 225,5 trln. so‘mga yetganligini ko‘rishimiz mumkin.

Quyida keltirilgan jadval ma’lumotlari asosida tadqiqot obyekti bo‘lgan AT “Aloqabank”ning depozit turlari va ularning jami bank resurslari tarkibidagi ulushini ko‘rishimiz mumkin.

28-jadval

AT “Aloqabank”ning depozit turlarining tarkibi va dinamikasi⁶⁹, (mlrd. so‘m)


Yillar / Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2019	2020	2021	2022	2023
Jami resurslar tarkibida depozitlar ulushi	<i>foizda</i>	75	82	75	62	54
Muddatsiz depozitlar	<i>summasi</i>	1067	1499	2036	2786	2692
	<i>ulushi</i>	20	29	28	33,9	30,8
Muddatli depozitlar	<i>summasi</i>	3797	3425	4759	4911	5509
	<i>ulushi</i>	73	64	66	60	63
Jamg‘arma depozitlar	<i>summasi</i>	356	389	452	521	549
	<i>ulushi</i>	7	7	6	6,1	6,2
Jami depozitlar		4898	5313	7247	8218	9227

Quyida keltirilgan jadval ma’lumotlari asosida tadqiqot obyekti bo‘lgan AT “Aloqabank”ning depozit ko‘rsatkichlari dinamikasini ko‘rib chiqamiz. AT “Aloqabank”ning passiv operatsiyalarining asosiy ko‘rsatkichlariga baho beradigan bo‘lsak, barcha ko‘rsatkichlar oxirgi 5 yil davomida sezilarli o‘shish tendensiyasini ko‘rsatgan. Ayniqsa, jismoniy shaxslarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar son jihatidan ham, miqdor jihatidan ham o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xorijiy valyutada tijorat banklari majburiyatlarining ortib borishi va ularning kredit qo‘yilmalarini moliyalashtirishdagi rolining ortishi bilan bank tizimida depozitlarning ulushi qisqarib borishi mumkinligi aniqlandi. Xususan, tijorat banklarida kreditlarning jami aktivlardagi ulushi so‘nggi 5 yil davomida o‘rtacha 73 foiz darajasida barqaror saqlangan bo‘lsa, jalb qilingan depozitlarning jami majburiyatlardagi ulushi pasayuvchi tendensiyaga ega bo‘ldi va tahlil davrining boshida, ya’ni 2017-yilda qariyb 50 foizdan tahlil davrining oxirida, 2022-yil yakunida 33 foizgacha pasayganligini ko‘rishimiz mumkin (3.3-rasm).

Fikrimizcha, bank tizimida depozitlar bazasini oshirishga va hukumatning bank tizimini moliyalashtirishdagi rolini pasaytirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Shuningdek, banklar optimal kredit portfelini shakllantirishda jalb qilingan mablag‘larining safarbar etilishi (mobilizatsiya) darajasi, tijorat banklari kredit potensialining tuzilishi va banklar amaliyotida tashkil etilayotgan rezerv va fondlar e’tiborga olgan holda amalga oshirishlari muhim.



27-rasm. Tijorat banklari kreditlarining aktivlardagi va depozitlarining majburiyatlaridagi ulushlari⁷⁰, (% da)

⁷⁰ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, “Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023-2024-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari” ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, mazkur holat kredit qo'yilmalarini moliyalashtirishda depozitlar ulushining qisqarib, banklarning xorijiy manbalarga bog'liqligining va tashqi xatarlarga ta'sirchanligining ortib borayotganligini bildiradi. Tahlil qilingan ma'lumotlar asosida shuni aytishki, tijorat banklari kreditlarining aktivlardagi ulushi eng yuqori ko'rsatkichi 2018-yilda qayd etilgan bo'lib, 76,8 foizga yetgan. Shu bilan birga, tahlil davrining oxiriga kelib bu ko'rsatkich 68,1 foizni tashkil qilgan bo'lib, 8,7 foiz bandda pasayganligini ko'rishimiz mumkin.


Ikkinchi asosiy ko'rsatkich, tijorat banklari depozitlarining majburiyatlaridagi ulushlari ham oxirgi 5 yilda o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Xususan, eng past holat 2019-yilda erishilgan bo'lib, bu yilda 25,6 foizni tashkil etgan. Tijorat banklari depozitlarining majburiyatlaridagi ulushining yuqori darajasi 2016-yilda, tahlil davrining boshida qayd etilgan bo'lib, 48,6 foizga yetgan. Tahlil davrining oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich 33,4 foizni tashkil etilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi tahlil natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, makroiqtisodiy va moliyaviy tizim barqarorligi nuqtai nazaridan ushbu holatni ijobiy baholab bo'lmaydi. Ushbu holat moliyaviy tizimda nobarqarorlikni yuzaga keltirishi, xususan, tashqi xatarlar, xorijiy kredit liniyalari oqimining kreditlash resurslari sifatida qisqarishi va hukumatning fiskal konsolidatsiya siyosati sharoitida iqtisodiyotda moliyaviy resurslar taqchilligini yuzaga keltirishi mumkin. Bank tizimida risklarning asosiy omillari jahonda makromoliyaviy sharoitlar, tashqi geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi, taklif zanjiridagi uzilishlar, yuqori inflyatsiya darajasi, energiya resurslari narxlarining o'sishi, iqtisodiy o'sishning sekinlashishi ta'sirida shakllanmoqda. Shuningdek, korporativ sektorda paydo bo'ladigan zaifliklar asosan dollarlashuv darajasining yuqoriligi bilan bog'liq.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda so'nggi yillarda korporativ sektorga ajratilgan xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi pasayish tendensiyasini ko'rsatayotgan bo'lsada, hanuz yuqoriligicha qolmoqda. Bu esa, valyuta almashuv kursining keskin tebranuvchanligi sharoitida korxonalarining to'lovga layoqatlik qobiliyatiga

salbiy ta'sir ko'rsatadi va bank tizimi uchun bevosita bosim yuzaga keltirishi mumkin. Buning natijasida kredit portfelining risklilik darajasi oshib, bank uchun moliyaviy yuqotishlarga sabab bo'ladi.

Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklarining tashqi dunyodan majburiyatlari va uning o'zgarish tendensiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.




28-rasm. Tijorat banklarining tashqi dunyodan majburiyatlari⁷¹,
(YaIMga nisbatan foizda)

Tahlil natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, tijorat banklarining tashqi sektordan majburiyatlari hajmi asosan so'nggi 3 yil davomida keskin o'sgan bo'lib, aktiv operatsiyalarini moliyalashtirishda tashqi qarz mablag'larining keng jalb etilganligi bilan izohlanadi. Natijada, tijorat banklarining tashqi sektordan jami majburiyatlari 2017-yildagi YaIMga nisbatan 8,6 foizdan 2022-yil yakunida deyarli 17 foizgacha ortgan. Bank tizimining milliy va xorijiy valyutadagi majburiyatlari 2018-yilda mos ravishda 0,07 foiz va 8,57 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilga kelib 1,7 foiz va 15 foizga yetgan. Bunda, so'nggi 2 yilda tashqi qarzni milliy valyutada jalb qilish amaliyoti yo'lga qo'yilganligi ijobiy holat bo'lib, tashqi xatarlarning bank tizimiga ta'sirini ma'lum darajada yumshatish imkonini beradi.

⁷¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Pul-kredit siyosatining 2023-2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

So‘nggi yillarda iqtisodiyotda nisbatan yuqori real foiz stavkalarining ta‘minlanishi, milliy valyuta kursining barqarorligi va milliy valyutadagi depozitlar bo‘yicha banklar tomonidan taklif etilayotgan yuqori foiz stavkalari milliy valyutadagi depozitlarning ko‘payishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ichki depozitlarning kreditlarni moliyalashtirish manbai sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, so‘nggi 2 yilda depozitlar o‘sish sur‘atining kreditlar o‘sish sur‘atiga nisbatan yuqori darajada shakllanayotganligi kuzatilmoqda. Bu o‘z navbatida, tijorat banklarining tashqi xatarlarga ta‘sirchanligini pasaytiradi, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasini yaxshilaydi va banklarning nisbatan barqaror ichki resurs bazasiga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Quyida keltirilgan rasmda jismoniy shaxslarning bank tizimidagi depozitlari ulushi holatini ko‘rib chiqamiz.




29-rasm. Jismoniy shaxslarning bank tizimidagi depozitlari ulushi⁷²

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, tahlil davrining oxirida jismoniy shaxslarning depozitlari ulushi bank tizimidagi jami depozitlar hajmining atigi 30,3 foizini tashkil etgan. Biroq, so‘nggi yillarda aholi depozitlarining o‘sish sur‘atilari sezilarli darajada tezlashdi. Xususan, milliy valyutadagi aholi omonatlarining

⁷² Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023-2024-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari ma‘lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

o‘shish sur‘ati 2018-yilda 38,2 foizni tashil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 31,7 foizni tashkil etdi. Xorijiy valyutadagi depozitlar hajmi 2018-yilda 2 foizga, 2023-yilda 27,7 foizga o‘sd⁷³. Shuningdek, oldingi davrlarda valyuta siyosatidagi cheklovlar, aholining milliy valyutaga nisbatan ishonchsizligi, inflyatsiyaning nisbatan yuqori darajasi, hamda aholining muqobil jamg‘arma instrumentlarining kamligi banklarda depozitlar dollarlashuv darajasining yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Quyida keltirilgan rasmda yuridik shaxslarning bank tizimidagi depozitlari ulushining tahlilini keltiramiz.



30-rasm. Yuridik shaxslarning bank tizimidagi depozitlari ulushi⁷⁴

So‘nggi yillarda kredit qo‘yilmalari o‘shishini moliyalashtirishda hukumatning markazlashgan manbalari (oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va ipoteka kreditlari ajratish bo‘yicha davlat dasturlari asosida) va banklarning tashqi kredit liniyalari mablag‘laridan keng ko‘lamda foydalanilganligini ko‘rish mumkin. Ayni paytda, bank tizimida kreditlar va depozitlarning dollarlashuv darajasi yuqoriligi saqlanib qolib, so‘nggi 5 yillikda mos ravishda o‘rtacha 46 va 44 foizga teng bo‘ldi.


⁷³ Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023-2024-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

⁷⁴ Pul-kredit siyosatining 2023-2024-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

Shuningdek, tijorat banklari jami majburiyatlarining dollarlashuv darajasi depozitlarnikidan ancha yuqori bo'lib, 2023-yil yakuni bo'yicha 52,7 foizga teng bo'ldi. Mazkur holat bank tizimiga so'nggi yillarda xorijiy kredit liniyalari oqimi faolligining keskin ortishi bilan izohlanadi. Xalqaro moliyaviy bozorlarda foiz stavkalarining pasayib borishi sharoitida mamlakatimizdagi yuqori foiz stavkalari va valyuta kursining 2018-2023-yillarda nisbatan barqaror shakllanishi (o'rtacha yillik qadrsizlanish 7,5 foiz) tashqi kredit liniyalari jalb etilishini rag'batlantiruvchi omillardan bo'ldi.

Tashqi iqtisodiy sharoitlarda xatarlar yuzaga kelganda ularning bank tizimiga ta'sirini kuchaytiruvchi omillardan biri valyuta nomunosibligi bo'lib, bizning sharoitda xorijiy valyutadagi aktivlarning majburiyatlarga nisbati 2018-yilga qadar ijobiy ko'rsatkichni qayd etgan bo'lsa, so'nggi 3-4 yilda banklar tomonidan tashqi qarzlarning keng ko'lamda jalb etilishi hisobiga ushbu nisbat neytral darajaga yaqinlashdi.

Quyida keltirilgan rasmda MDH davlatlari kesimida bank tizimi depozitlari va kreditlarining dollarlashuv darajasining holatini ko'rib chiqamiz.



31-rasm. MDH davlatlari kesimida bank tizimi depozitlari va kreditlarining dollarlashuv darajasi,⁷⁵ (2017-2022 yillar, o'rtacha yillik)

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023-2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy

Yuqorida kelirilgan ma'lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkin, tanlab olingan MDH davlatlari bilan solishtirganda depozitlar dollarlashuvi o'rtachadan pastroq va kreditlar dollarlashuvi o'rtachadan yuqori darajada shakllangan. Umuman olganda, dollarlashuv muammosi barcha MDH davlatlariga xos bo'lib, pul-kredit siyosati samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Shu sababli ham ushbu davlatlarda "dollarlashuv darajasini pasaytirish siyosati" kun tartibidagi muhim vazifalardan hisoblanadi hamda differensiyalashgan majburiy zaxiralash instrumentidan faol foydalaniladi.

Shuningdek, banklar valyutaviy talablarining asosiy qismini korporativ sektorga bo'lgan talablar tashkil etadi (jami valyuta aktivlarining 40 foizi atrofida)⁷⁶. Ushbu sektorni, valyuta kursining mumkin bo'lgan tebranishlaridan to'liq himoyalalmaganligi, kelgusida bank tizimida to'lov qobiliyati va likvidlik bo'yicha xatarlar oshishiga olib kelishi mumkin. Xorijiy kredit liniyalari oqimining pasayishi iqtisodiyotda moliyaviy resurslar tanqisligini keltirib chiqarishi mumkin, bu esa depozit bazasini kengaytirish va bank tizimidagi davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarni kuchaytirishni talab qiladi.

Fikrimizcha, dollarlashuv darajasini kamaytirish choralari sifatida quyidagilar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Ma'lumki, banklar tomonidan jismoniy shaxslarga xorijiy valyutada kreditlar ajratish qonunan taqiqlangan. Bundan tashqari, aholining valyuta kursi o'zgarishiga nisbatan sezuvchanligi yuqori ekanligi sababli ham ularga xorijiy valyutada kreditlar taqdim etilmaydi. Shuningdek, majburiy zaxiralash instrumentidan ham dollarlashuv darajasini qisqartirishda faol foydalanilmoqda. Bunda, banklar tomonidan xorijiy valyutadagi depozitlari bo'yicha shakllantiriladigan majburiy zaxiralarga 18 foizlik me'yor o'rnatilgan. Shu bilan birga, majburiy zaxiralash bazasiga xorijiy kredit liniyalari va banklarning boshqa kreditorlik qarzlari kiritilmaganligi sababli ushbu instrumentning

yo'nalishlari ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, "Pul-kredit siyosatining 2023-2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

kreditlar va bank majburiyatlari dollarlashuvini qisqartirishga ta'siri nisbatan past bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birga, inflyatsion targetlash rejimi chora-tadbirlari ta'sirida o'rta muddatli istiqbolda inflyatsiya darajasi pasayishi bilan Markaziy bankning asosiy stavkasi ham mos ravishda pasaytirib boriladi. Natijada, iqtisodiyotda kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining pasayishi va uning ta'sirida kreditlar dollarlashuvining qisqarishi kutilmoqda. Bundan tashqari, banklarga valyutaviy xatarlarni boshqarish orqali xorijiy valyutada jalb qilingan resurslar hisobidan milliy valyutada kreditlar ajratish imkonini beruvchi banklararo valyuta fyucherslari bozori tashkil etilishi lozim.

Shuningdek, bir qarashda bank tizimida salbiy valyuta nomutanosibligining mavjud emasligi xatarsizdek ko'rinishi mumkin, biroq ushbu holat valyuta nomutanosibligi va mos ravishda tashqi xatarlarga ta'sirchanlikning bank tizimidan iqtisodiyotdagi tadbirkorlik subyektlariga o'tganligi, tashqi xatarlar sharoitida ularda moliyaviy muammolarning yuzaga kelishi mumkinligi sababli mos ravishda banklardan olingan kreditlar to'lovi bo'yicha intizomning yomonlashishi kuzatilishi mumkin. Bu, o'z navbatida, bank tizimi barqarorligiga ham putur yetkazadi. Shu sababli ham, iqtisodiyotda dollarlashuv darajasini pasaytirish, tashqi kredit liniyalarini jalb etishda ehtiyotkorlik bilan yondashish, depozit bazasini oshirish imkoniyatlarini qo'llash va valyuta xatarlarini boshqarish instrumentlarini amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda, Markaziy Bank tomonidan iqtisodiyotning dollarlashuv darajasini pasaytirish bo'yicha bir qator muhim prudensial choralar amalga oshirildi:

- jismoniy shaxslarga xorijiy valyutada kredit ajratish amaliyotini bekor qilinishi;

- valyuta bo'yicha tabaqalashtirilgan majburiy zaxira me'yorlari;
- valyuta turlariga ko'ra likvidlikni qoplash me'yori koeffisientlari;

- valyuta turlariga ko'ra sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffisientlari;

- valyuta turlariga ko'ra tabaqalashtirilgan tavakkalchilik vaznlari;
- ochiq valyuta pozitsiyasi bo'yicha cheklovlar va boshqalar qo'llanilib, tijorat banklarining kredit portfelini optimallashtirishga olib kelinmoqda.

3.2. Tijorat banklari kredit qo'yimlari manbalarini optimallashtirish yo'nalishlari


Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun kredit resurslari manbalarini optimallashtirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kreditlash faoliyati bankning asosiy daromad manbalaridan biri bo'lib, bu orqali banklar iqtisodiyotda moliyaviy vositachilik rolini o'ynaydi va turli sohalarni moliyalashtirishga hissa qo'shadi. Biroq, zamonaviy bozor sharoitida banklar uchun resurslar narxining oshishi, likvidlikka bo'lgan ehtiyojning o'sishi va xalqaro moliyaviy bozorlardagi o'zgarishlar ko'plab qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, banklar resurslarni jalb qilish va ularni boshqarishda samaradorlikka erishishi kerak.

Banklar uchun resurslar manbalarini diversifikatsiya qilish va ulardan foydalanish jarayonlarini takomillashtirish strategik ahamiyatga ega. Masalan, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish orqali xorijiy investitsiyalar va imtiyozli kreditlarni jalb qilish, ichki bozorning talablarini inobatga olgan holda moslashuvchan depozit siyosatini ishlab chiqish, bank kapitalizatsiyasini oshirish, shuningdek, davlat dasturlarida ishtirok etish kabi qator yo'nalishlar mavjud.

Tijorat banklari mavjud barcha moliyaviy mablag'lardan aktiv operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida foydalana olmaydi. Bu holat tijorat banklari kredit potensialini to'g'ri baholashni taqozo etadi. Tijorat banklari kredit potentsiali qanchalik barqaror va mustahkam bo'lmasin, boshqa bir tomondan jamiyatda mazkur kreditlarning barchasiga ham talab mavjudligi yoki yo'qligi ham muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, tijorat banklari kredit potentsiali deyilganda

likvidlilikni ta'minlash maqsadida talab etilgan rezerv qoplamalari ajratilgan holda resurslarning safarbar qilingan (mobilizatsiya qilingan) qismiga aytiladi. Banklar kreditlash uchun zarur resurslarni shakllantirishda tijorat bankining kredit potensialiga qarab mablag'lar jalb qilishlari va ajratilgan kreditlar talab va taklif, daromad va risklilik asosida taqsimlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari kredit qo'yilmalar manbalarini optimallashtirishda kredit potensialiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rishimiz mumkin.




32-rasm. Tijorat banklari kredit potensialiga ta'sir qiluvchi omillar⁷⁷

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida shuni xulosa qilish muminki, kredit potensialining qisqa va uzoq bo'lishi, o'z navbatida jalb qilingan mablag'larning muddatiga bog'liqdir. Shu jihatdan kredit potentsiali uzoq muddatli bo'lishi ko'p jihatdan jalb etilayotgan mablag'larni uzoq muddatlarga jalb etish samaradorligini oshirishni talab etadi. Ya'ni, uzoq muddatli depozitlar miqdorini oshirish kredit potensialining uzoq muddatli bo'lishini ta'minlaydi. Bizga ma'lumki, depozitlar tarkibida talab qilib olinguncha (transaksion) depozitlar miqdori respublikamiz tijorat banklari amaliyotida yuqori salmoqqa ega. Bu esa, ular tomonidan uzoq muddatli kreditlar salmog'ini oshirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy omil sanaladi.

O'rganilgan tadqiqotlar hamda yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan muhohazalardan kelib chiqib, quyida keltirilgan rasmda respublikamiz

⁷⁷ Muallif tomonidan boshqa tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish va kredit potensialini oshirishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlarning ketma-ketligi keltirilgan.



33-rasm. Tijorat banklari kredit potensialini oshirish imkoniyatlari⁷⁸

Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini samarali shakllantirish va uni optimallashtirish kredit potensialini va kredit portfelining balanslashganligi tahlil muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar uzoq muddatli kredit potensialini muammosiga duchor bo'ladi. Kredit potensialini va kredit portfelining muvozanati buzilganda (masalan, kredit resurslari muddati bo'yicha yetishmaganda) bank o'zi uchun zarur bo'lgan mablag'larning manbalarini topish kerak (masalan, uzoq muddatli mablag'larni jalb qilish, banklararo kreditlash bozoriga kirish, qo'shimcha uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni chiqarish, kapitalni kengaytirish imkoniyatlarini tahlil qiladi).

Shu bilan birga, uzoq muddatli kredit potensialining yetishmasligi va uni to'ldirish manbalarini topish imkoniyati mavjud emasligi, banklarni qisqa muddatli kredit potensialini uzoq muddatli kredit potensialiga o'zgartirishga majbur bo'ladi, bu o'z navbatida bank likvidliligi muammosiga sabab bo'ladi.

⁷⁸ Muallif tomonidan boshqa tadqiqotlar asosida mustaqil tayyorlandi.

Fikrimizcha, tijorat banking faoliyatida jalb qilingan resurslar va ularni kreditga joylashtirish jarayonida ajratilayotgan kreditlar quyidagilarga javob berishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

-bank ixtiyorida mavjud kredit resurslari muddati va summasiga javob berishi;

-daromadlilik darajasi maksimal darajada bo‘lishi;

-risk darajasi minimal, maqbul darajaga tushirilishi shart.

Quyida keltirilgan jadvalda mamlakatimiz tijorat banklari kreditlari, depozitlari va umumiy kapitali dinamikasining holatini keltiramiz.

29-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlari, depozitlari, umumiy kapitali dinamikasi⁷⁹, trln. so‘m

№	Ko‘rsatkichkar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1.	Tijorat banklari kreditlari	167,4	211,6	276,9	326,4	390,1	420,7
2.	Tijorat banklari resurslari, jami	96,7	141,1	173,1	227,1	296,3	331,7
2.1.	Tijorat banklari depozitlari	70	90,0	114,7	156,2	216,7	241,6
2.2.	Tijorat banklari umumiy kapitali	26,7	51,1	58,4	70,9	79,6	90,1
3.	Tijorat banklari kapitali va depozitlarning kreditlarga joylashtirilishi	-70,7	-170,5	-103,8	-99,3	-93,8	-89
4.	Tijorat banklari kapitali va depozitlarni kreditlarga yo‘naltirish darajasi, % da	173,1	149,9	159,9	143,7	131,7	126,8

Yuqoridagi ma’lumotlar orqali shuni xulosa qilish mumkinki, mamlakatimiz tijorat banklari o‘z majburiyatlaridan ya’ni, jalb qilingan mablag‘lar va o‘z mablag‘laridan kredit tarzida to‘laqonli foydalanib kelmoqda. Bu ko‘rsatkich oxirgi ikki yilda mos ravishda 2021-yilda 143,7 foizni, 2022-yilda 131,7 foizdan ortiqni tashkil etgan. 2017-yildan boshlab tijorat banklari kapitali va depozitlari

⁷⁹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

banklar tomonidan berilgan kreditlar summasidan kam bo'lgan. Bunda tijorat banklari kredit resursi sifatida bank kapitali va depozitlardan tashqari boshqa manbalardan keng foydalanganligidan dalolat beradi. Bu esa, o'z navbatida tijorat banklari aktiv operatsiyalarida kredit bilan bog'liq operatsiyalar juda yuqori ekanligidan dalolat beradi.


Shuningdek, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining shakllanishida inflyasiya darajasi, pul bozoridagi resurslarning narxi, iqtisodiyot subyektlarining inflyasion kutilmalari va ular asosida shakllangan depozit foiz stavkalari asosiy omillardan hisoblanadi. Tijorat banklari faoliyatining asosiy daromadlari kredit operatsiyalari orqali kelib tushadi va bu tijorat banklari foizli daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi (deyarli 90 foizi). Kredit foizlarining shakllanishi banklarning marja darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, kredit operatsiyalari yuqori xavflilik bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, ular bank faoliyatining maqsadlariga javob berishi kerak, ya'ni likvidlikning maqbul darajasi bilan maksimal foyda olish.

Bank faoliyatining yakuniy natijasi bajarilgan operatsiyalardan olingan foyda hisoblanadi. Foyda – tijorat bankining bosh maqsadi hisoblanadi. Bank foydasining o'sishi kredit portfelining yuqori daromadlilik va sifatiga, bu o'z navbatida samarali kredit resurslarini jalb qilish, ularning shakllanishiga bog'liqdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bank depozitlari va uy xo'jaliklari omonatlari banklarning moliyaviy aktivlari va bank kreditlarining asosiy manbasi bo'lib, bank kreditlarining samaradorligini oshiradi.

Tijorat banklari faoliyatida kredit qo'yilmalari samaradorligini va sifatini ta'minlashda foizli daromadlar va foizli xarajatlarning o'zaro mos ravishda shakllantirilishi muhim jarayon hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqot ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tahlil davri boshida, ya'ni 2018-yilda tijorat banklari kredit portfelining keskin o'sishi (54%) natijasida, 2019-yilda foizli daromadlar o'tgan yilgan mos davriga nisbatan 69 foizga o'sgan bo'lsa, o'z navbatida, banklarda likvidlilik talablarining kuchaytirilishi natijasida banklar tomonidan faol tarzda qo'shimcha resurslarning jalb qilinishi

doirasida foizli xarajatlarning tahlil davri davomida 78 foizga o‘shiga olib kelgan.

Quyida keltirilgan rasm ma’lumotlari asosida tijorat banklari-ning foizli daromadlari va foizli xarajatlarining o‘zgarish dinamikasi tahlili keltirilgan.




34-rasm. Tijorat banklari foizli daromadlari va foizli xarajatlarining o‘zgarish dinamikasi⁸⁰, (% da), (2019-2022-yillar)

Yuqoridagi rasm ma’lumotlari asosida ta’kidlash lozimki, tahlil qilinayotgan davr oxiriga kelib foizli daromadlar o‘tgan yilga nisbatan 26 foiz bandga oshib 40 foizni tashkil etgan bo‘lsa, o‘z navbatida foizli xarajatlarning 36 foizdan 35 foizgacha, 1 foiz bandga tushganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Shuningdek, foizli xarajatlar tarkibida mijozlar depozitlari bo‘yicha xarajatlar ulushi 2 foiz bandga oshib, 49 foizga yetgan bo‘lib, ya’ni jami xarajatlarning deyarli yarmiga teng ekanligini qayd etish lozim.

Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, sof foizli marja ko‘rsatkichi hisoblanadi. Tijorat banklarida sof foizli marjaning yuqori va barqaror darajasini ta’minlash ikki omilga bog‘liq: 1) bankning foizli daromadlari va foizli xarajatlari o‘rtasidagi nisbatning o‘zgarishi; 2) sof foizli daromadning o‘shish sur’ati bilan brutto aktivlarning o‘shish

⁸⁰ O‘zbekiston Markaziy Banki, Kredit tashkilotlari prudensial nazorati departamenti ma’lumotlari: “Bank tizimi daromadliligi tahlili”, 2023 yil 1-yanvar.

sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikning ta'minlanmaganligi. Qayd etish joiz, sof foizli marja ko'rsatkichi tijorat banklari moliyaviy barqarorligining optimal darajasini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida tadqiqot obyekti bo'lgan "Asakabank" AJning sof foizli marja darajasini keltiramiz.



35-rasm. "Asakabank" AJda sof foizli marja darajasi⁸¹, (foizda)

Olib borilgan izlanishlar asosida ta'kidlash lozim, sof foizli marja ko'rsatkichining me'yoriy darajasining yuqori va barqarorligiga erishishda foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar o'rtasidagi nisbatni to'g'ri boshqarish zarur hisoblanadi. Bu esa foizli daromadlarni keltiruvchi asosiy operatsiya kreditlashni va foizli xarajatlarni samarali shakllantirish uchun kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirish zarurligini ifodalaydi.

Quyida keltirilgan jadvalda tadqiqot obyekti hisoblangan AJ "Asakabank" va AT "Aloqabank"da foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasining holatini keltiramiz.

⁸¹ Xanaliyev B.B. (2024), "Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash yo'llari", (Phd) dissertatsiyasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

**AT “Asakabank” va AT “Aloqabank”da foizli xarajatlarning
foizli daromadlarga nisbatan darajasi⁸², foizda**

Yillar / Banklar nomi	2019	2020	2021	2022	2023
AJ “Asakabank”	66,6	71,4	79,1	64,3	81,4
AT “Aloqabank”	67,4	69,1	69,9	66,2	72,0

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Asakabankda foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasi 2023-yilda 2019-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Aloqabankda foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasi 2023-yilda 2019-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Banklarning kreditga yo‘naltirilgan resurslari rentabelligini oshirish uchun jalb qilingan foizli xarajatli resurslar va olinadigan foizli daromadlar orasidagi nisbatni to‘g‘ri muvozanatlash muhim ahamiyatga ega. Buni amalga oshirish uchun quyidagi choralar ko‘rilishi mumkin:

1. Moliyaviy resurslar tannarxini pasaytirish masalalari. Banklar jalb qiladigan depozit va kredit resurslarining foiz stavkalarini imkon qadar past darajada saqlash orqali xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Buning uchun arzonroq ichki va tashqi moliyaviy resurslarni topish zarur. Banklarning jalb qilgan resurslarining tannarxini pasaytirish orqali rentabellikni oshirishning bir necha asosiy usullari mavjud:

a. Depozit foiz stavkalarini pasaytirish: Banklar depozitlarni jalb qilish uchun taklif qilinadigan foiz stavkalarini imkon qadar past darajada saqlashi lozim. Buning uchun banklar raqobatbardosh depozit shartlarini taqdim etish orqali mijozlarni jalb qilishi mumkin. Misol uchun, uzoq muddatli depozitlarga pastroq foiz stavkalari belgilanishi mumkin.

b. Tashqi resurslardan arzon moliyalashtirishni izlash: Banklar ichki bozordagi yuqori foiz stavkalari o‘rniga tashqi manbalardan,

⁸² Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

xalqaro moliyaviy institutlardan yoki xorijiy banklardan arzon kredit olish yo‘llarini topishi kerak. Bu, ayniqsa, xalqaro bozorda arzon qarz olish imkoniyatlari bo‘lganda foydali bo‘ladi.

c. Tashqi omonat resurslaridan foydalanish: omonat foizlari arzon bo‘lgan bozorlarini izlab topish orqali kam foizli omonatlarni jalb qilish.


d. Ba’zi hollarda davlat dasturlari orqali subsidiyalangan kreditlar yoki arzon moliyalashtirish imkoniyatlari taqdim etilishi mumkin. Banklar bunday resurslarni jalb qilish orqali o‘z xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

e. Mijozlar bazasini kengaytirish: Kengroq mijozlar bazasiga ega bo‘lish orqali banklar o‘z resurslar tannarxini kamaytirishi mumkin.

f. Depozit mahsulotlarining moslashuvchanligi: Banklar turli xil depozit mahsulotlarini taklif qilish orqali mijozlarni jalb qilishlari va o‘z foiz xarajatlarini optimallashtirishlari mumkin. Misol uchun, talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlar past foizlar bilan bo‘lishi mumkin.

2. *Foizli daromadlarni oshirish masalalari*: banklar kredit stavkalarini o‘zining kredit bozoridagi raqobatbardoshlik darajasiga mos ravishda belgilab, daromadlarni oshirishga e’tibor qarataishi kerak. Olinadigan foizli daromadlar, ayniqsa yuqori riskli kreditlar uchun mos ravishda yuqori bo‘lishi lozim. Xorijiy tajribada kreditlar bo‘yicha olinadigan foiz stavkalari va jalb qilingan resurslar bo‘yicha to‘lanadigan foiz stavkalari o‘rtasidagi farqni (spread) optimallashtirish uchun turli strategiyalar va amaliyotlar qo‘llaniladi. Ushbu farq bankning asosiy daromad manbai bo‘lib, uning samarali boshqarilishi bankning rentabelligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Quyida keltirilgan rasm ma’lumotlari asosida tijorat banklarining muddatli mablag‘lari va xatarli aktivlari dinamikasini keltiramiz.



36-rasm. Tijorat banklarining muddatli mablag‘lari va xatarli aktivlari dinamikasi⁸³, (trln. so‘m)

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida ta’kidlash lozim, tijorat banklari faoliyatida muddatli mablag‘lar ajratilgan kredit mablag‘lari hajmiga nisbatan kam ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tahlil davri-ning boshidan, 2019-tildan tahlil davrining oxirigacha, 2023-yilgacha bu ko‘rsatkich mos ravishda ijobiy holat qayd etmagan. Ya’ni, banklarning muddatli mablag‘lari xatarli aktivlari hajmidan oshmaganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Quyida keltirilgan jadvalda tadqiqot obyekti hisoblangan AJ “Asakabank” va AT “Aloqabank”da foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasining holatini keltiramiz.

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Asakabankda foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasi 2023-yilda 2019-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Aloqabankda foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasi 2023-yilda 2019-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

⁸³ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tuzildi.

31-jadval

AT “Asakabank” va AT “Aloqabank”da foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasi⁸⁴, foizda

Yillar / Banklar nomi	2019	2020	2021	2022	2023
AJ “Asakabank”	66,6	71,4	79,1	64,3	81,4
AT “Aloqabank”	67,4	69,1	69,9	66,2	72,0

Kreditlar tijorat banklarining aqivlari tarkibida nisbatan yuqori salmoqqa ega bo‘lganligi sababli ularning daromadlilikini oshishi banklarning daromad bazasini mustahkamlash jihatidan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Kredit qo‘yilmalari manbalarini samarali tashkil etish bank faoliyatining daromadlilikini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Quyida keltirilgan jadvalda tadqiqot obyekti hisoblangan AJ “Asakabank”ning ajratgan kreditlari va ularning daromadlilikining holatini keltiramiz.

32-jadval

AJ “Asakabank” kreditlari va ularning daromadlilikigi⁸⁵, foizda

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Kreditlar, mlrd. so‘m	26 321	34 122	37 685	36 741	39 213
Kreditlardan olingan foizli daromadlar, mlrd. so‘m	1 723	2 136	2 398	2 824	3 728
1 so‘mlik kreditga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi, %	6,5	6,3	6,4	7,7	9,5


⁸⁴ Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

⁸⁵ Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Asakabank kreditlarining miqdori 2019-2023-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Shuningdek kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori ham ushbu davrda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Kreditlarining daromadlilik darajasi 2019-2021-yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 2019-yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan. Bu esa, Asakabankning daromad bazasining barqarorligini ta'minlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Asakabank ssuda portfelida sifat darajasi yomon bo'lgan kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxira ajratmalarining darajasi tahlil davrida (2019-2023-yy.) beqaror bo'lgan va umume'tirof etilgan chegaraviy darajasidan (1,0 %) yuqori bo'lganligini ta'kidlash lozim. Mazkur holat kredit portfeli tarkibida zaxira ajratmalarini talab qiluvchi tasniflangan ssudalar miqdori yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi. Bu esa, Asakabankning daromadlar bazasi barqarorligini ta'minlashda to'sqinlik qiladi.

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlarida tadqiqot obyekti hisoblangan AJ "Asakabank"ning kreditlardan ko'riladigan zararlarini qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasini keltiramiz.



37-rasm. AJ "Asakabank"da kreditlardan ko'riladigan zararlarini qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi⁸⁶, foizda

⁸⁶ Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

Yevropa va AQSh banklari xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirishga katta e'tibor qaratishadi. Masalan, Fintech platformalari orqali onlayn kreditlash jarayonlari soddalashtiriladi, bu esa operatsion xarajatlarni kamaytiradi va foiz farqini oshirishga yordam beradi. Sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili asosida mijozlarning to'lov qobiliyatini aniqroq baholash va kredit xavflarini kamaytirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu kreditlar uchun yuqori foiz stavkalari talab qilinadigan xavfni kamaytiradi.

<p>Kredit foiz stavkalarini optimallashtirish</p> <ul style="list-style-type: none"> • Banklar kreditlar uchun taklif qilinadigan foiz stavkalarini raqobatbardoshlikni saqlagan holda oshirishi mumkin. • Yuqori kredit riskiga ega mijozlar yoki yuqori likvidlik talab qiladigan kredit mahsulotlari uchun yuqori foiz stavkalarini qo'llash foizli daromadlarni ko'paytiradi. 	<p>Yangi kredit mahsulotlarini joriy qilish</p> <ul style="list-style-type: none"> • Turli mijoz segmentlari va ularning ehtiyojlariga mos keladigan yangi kredit mahsulotlarini yaratish orqali banklar kredit hajmini oshirishi mumkin. • Masalan, kichik bizneslar uchun qisqa muddatli kreditlar yoki uy-joy sotib olish uchun uzoq muddatli ipoteka kreditlarini taqdim etish bankka qo'shimcha foizli daromad keltirishi mumkin. 	<p>Kredit portfelining diversifikatsiyasi</p> <ul style="list-style-type: none"> • Banklar kredit portfelini turli sektorlar, tarmoqlar va mahsulotlar bo'yicha diversifikatsiya qilish orqali foizli daromadlarni barqarorlashtirish va oshirishlari mumkin. • Bu orqali turli iqtisodiy sharoitlarga nisbatan barqaror foiz daromadlariga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. 	<p>Mikrokredit va kichik kreditlar hajmini oshirish</p> <ul style="list-style-type: none"> • Kichik va o'rta bizneslar uchun mikrokreditlar yoki qisqa muddatli kreditlar katta hajmdagi kreditlardan ko'ra yuqori foiz stavkalari bilan beriladi. • Ushbu strategiya orqali banklar ko'proq mijozlarga xizmat ko'rsatib, foizli daromadlarni oshirishi mumkin.
<p>Yuqori riskli kreditlar uchun yuqori foizlar</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ba'zi mijozlar yoki tarmoqlar yuqori riskka ega bo'lishi mumkin, ammo bu kreditlar uchun yuqori foiz stavkalarini belgilash orqali banklar daromadlarini oshirish imkoniga ega bo'ladi. • Bu yerda kredit risklarini yaxshi baholash va boshqarish muhimdir. 	<p>Kredit bozorini kengaytirish</p> <ul style="list-style-type: none"> • Banklar yangi geografik hududlar yoki xizmat ko'rsatilmagan mijoz segmentlariga kirish orqali kredit berish hajmini kengaytirishi mumkin. • Masalan, qishloq xo'jaligi sektori, startaplar yoki texnologiya tarmoqlari uchun kreditlar taqdim etish orqali yangi foizli daromad manbalarini yaratish mumkin. 	<p>Tijorat va korporativ kreditlarni kengaytirish</p> <ul style="list-style-type: none"> • Katta kompaniyalar yoki davlat tashkilotlariga kreditlar berish bankning daromadlarini oshirishi mumkin, chunki bu turdagi kreditlar odatda katta miqdorda bo'lib, uzoq muddatli barqaror foizli daromadlar keltiradi. 	

38-rasm. Tijorat banklarining foizli daromadlarni oshirish yo'nalishlari⁸⁷

⁸⁷ Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

Xitoy va Hindiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda banklar mahalliy va xalqaro bozorlardan arzon resurslar jalb qilish orqali resurs tannarxini pasaytirishga e'tibor qaratadi. Bu orqali banklar mahalliy omonatlar, davlat obligatsiyalari va xalqaro moliyaviy institutlardan arzon mablag'lar jalb qiladi. Xalqaro bozorlardagi foiz stavkalari past bo'lganda chet el kreditlarini olish orqali resurslar tannarxini kamaytirish va shu bilan spreadni oshirishga erishiladi.

Xalqaro tajribada banklar operatsion xarajatlarni minimallashtirish orqali foiz farqini oshirishga e'tibor qaratadi. Bu usul Yaponiyada keng qo'llaniladi. Jumladan, Shaxsiy xizmat ko'rsatish o'rniga mobil va internet-banking xizmatlarini keng joriy etish orqali operatsion xarajatlar kamaytiriladi. Bank ichki xarajatlarini, jumladan, ma'muriy va marketing xarajatlarini qisqartirish orqali foiz farqini oshirishga muvaffaq bo'ladi.

3. *Foiz stavkalari farqini optimallashtirish.* Kreditlar bo'yicha olinadigan foiz stavkalari va jalb qilingan resurslar bo'yicha to'lanadigan foiz stavkalari o'rtasidagi farqni (spread) optimallashtirish orqali bank rentabelligi oshiriladi. Bu farqni ortiqcha oshirib yubormaslik muhim, aks holda raqobatchilar bilan kreditlash bozorida muammo tug'ilishi mumkin.

Yevropa mamlakatlari va AQShda banklar bozordagi foiz stavkalari o'zgarishlariga tezkor moslashish uchun o'zgaruvchan foiz stavkalarini keng joriy etishadi. Bu usul orqali kreditlar bo'yicha foiz stavkalari bozor stavkalari o'zgarishiga qarab qayta ko'rib chiqiladi, bu esa bankka foiz farqini moslashuvchan ravishda boshqarishga imkon beradi. Masalan, LIBOR yoki SOFR kabi indekslarga asoslangan o'zgaruvchan foiz stavkalari mijozlar uchun ham raqobatbardosh va bank uchun rentabellikni oshiradi.

4. *Risklarni boshqarish.* Kredit bo'yicha risklarni minimal darajaga tushirish orqali foizli daromadlarning barqarorligini ta'minlash zarur. Risk darajasini nazorat qilish kredit portfeli sifatini yaxshilashga xizmat qiladi, bu esa banklarning daromadlarini oshiradi.

Risklarni boshqarish banklar faoliyatida asosiy o'rin tutadi, chunki kreditlar berishda va moliyaviy operatsiyalarda yuzaga keladigan turli risklar bankning barqarorligiga va daromadiga ta'sir

qilishi mumkin. Quyida risklarni samarali boshqarish uchun qo'llaniladigan asosiy strategiyalar keltirilgan.



39-rasm. Tijorat banklarida risklarni boshqarish yo'nalishlari⁸⁸

Shunday qilib, banklar kredit, likvidlik, foiz stavkasi, valyuta va operatsion risklarni boshqarish orqali umumiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlashlari va daromadlarini oshirishlari mumkin. Risklarni

⁸⁸ Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

boshqarish jarayoni davomli ravishda takomillashtirilib, yangi iqtisodiy va texnologik sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

5. *Diversifikatsiya*: Kredit manbasini diversifikatsiya qilish banklar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va tavakkalchiliklarni kamaytirishning samarali usuli hisoblanadi. Diversifikatsiya bankka bir nechta turli manbalardan resurslar jalb qilish orqali o'z faoliyatini xavfsizroq va barqarorroq qilish imkonini beradi.

Tijorat banklari kredit qo'yimalari manbalarining shakllanishi va uning tahlili bank tomonidan kreditlash uchun zarur resurslarning holati, muddati, iqtisodiy sohalar bo'yicha taqsimlanishi, ta'minot turlari, kredit qo'yimalari manbalarining sifati va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil ishlarining doimiy tarzda olib borilishi, o'z navbatida kredit resurslarining rentabelligini ta'minlashda va kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Quyida keltirilgan jadvalda tijorat banklarining kredit qo'yimalari manbalarini tahlil etishning asosiy bosqichlarini ko'rsatib o'tamiz.

33-jadval

Tijorat banklari kredit qo'yimalari manbalarini tahlil etish bosqichlari⁸⁹

Bosqichlar	Bosqichlarning mazmuni	Amalga oshiriladigan ishlar majmui
1-bosqich	Kreditlash manbalari holati tahlili	Kredit qo'yimalari manbalarining hajmi va o'zgarish holatining tahlili
2-bosqich	Kredit manbalarining muddatlari bo'yicha tahlili	Qisqa muddatli va uzoq muddatli resurslar, depozit va nodepozit manbalarning tahlili
3-bosqich	Kredit qo'yimalari manbalarining foiz stavkalari tahlili	Imtiyozli foiz stavkasi, qayta moliyalashtirish stavkasi, bozor tamoyillariga asoslangan foiz stavkalari tahlili

⁸⁹ Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.


4-bosqich	Ta'minot turi bo'yicha tahlili	Ishonchli resurslar, mol-mulk garovi ostida jalb qilingan manbalar, kafolatlar asosida olingan mablag'lar
5-bosqich	Kredit resurslarining sifat tahlili	Past rentabelli, o'rta rentabelli va yuqori rentabelli manbalar guruhlari holati tahlili
6-bosqich	Ajratilgan kredit qo'yilmalari manbalari tarixi tahlili	Bank o'z mablag'lari hisobiga berilgan kreditlar, jalb qilingan manbalari asosida taqsimlangan mablag'lar, filiallararo va transh mablag'lari hisobidan berilgan kreditlar tahlili

Banklar faoliyatini olib borish, avvalambor, ularda yetarli bank resurslarining mavjud bo'lishini taqozo etadi. Bank resurslarining mukammal tashkil qilinishi va ishlatilishi bank faoliyatining samarali olib borishiga zamin yaratadi. Bu resurslar tijorat banklarining tijorat va xo'jalik faoliyatini ta'minlash uchun ishlatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyatini tashkil qilishda banklarning resurslarini shakllantirish va ularni oqilona ishlatish katta ahamiyatga ega.

Quyida bank tizimi majburiyatlari va foizli xarajatlari tarkibining o'zgarish ma'lumotlarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi (-rasm). Tijorat banklari faoliyati davomida 2019-2022-yillarda kredit liniyalari bo'yicha qilingan xarajatlar ulushi sezilarli darajada, ya'ni tahlil davrining oxiriga kelib 8 foiz bandga kamayib, 39 foizni tashkil etganligini alohida ta'kidlash joiz. Mazkur holat, banklar majburiyatlari tarkibida mijozlar depozitlari ulushining o'sib borayotganligi bilan izohlanadi. Boshqa bir tomondan, banklarning jalb qilingan mijozlar depozitlari bo'yicha qilingan xarajatlar ulushi ham o'sish tendensiyasini hosil qilgan bo'lib, tahlil qilinayotdan vaqt oralig'ida 47 foizdan 49 foizgacha yetganligini lo'rishimiz mumkin bo'ladi.

Xalqaro tajribada banklar turli valyutalarda resurslarni jalb qilish orqali valyuta xavflarini kamaytiradi. Milliy valyutada resurslarni jalb qilish orqali milliy iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga moslashish

osonlashadi. Xorijiy valyutalarda mablag‘ jalb qilish esa xalqaro bozorlar bilan integratsiyani kuchaytiradi va valyuta balansini saqlashga yordam beradi. Bu usul bankka turli valyutalarda daromad olish imkonini berib, valyuta kurslari o‘zgarishiga qarshi himoya vazifasini o‘taydi.



40-rasm. Tijorat banklari foizli xarajatlari va ularning majburiyatlaridagi ulushi dinamikasi⁹⁰, (2019-2022-yillar)

Banklar resurs bazasini kengaytirish uchun mahalliy va xalqaro bozorlarda obligatsiyalar chiqarishi mumkin. Bu usul orqali banklar uzoq muddatli mablag‘ jalb qiladi.

-mahalliy obligatsiyalar: banklarga uzoq muddatli milliy valyutada resurslarni jalb qilish imkonini beradi, bu esa mahalliy bozor talablariga javob beradi.

-xalqaro obligatsiyalar: xorijiy valyutada mablag‘ jalb qilishga imkon beradi va xalqaro investorlar bilan hamkorlikni kengaytiradi.

⁹⁰ O‘zbekiston Markaziy Banki, Kredit tashkilotlari prudensial nazorati departamenti ma’lumotlari: “Bank tizimi daromadlilik tahlili”, 2023 yil 1-yanvar.

Bu amaliyot banklarga uzoq muddatli va barqaror resurs manbalarini ta'minlaydi.

Bugungi kunda xorijiy banklar, xalqaro moliyaviy institutlar (masalan, Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot banki) va mahalliy moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish orqali banklar resurs diversifikatsiyasiga erishishi mumkin. Bunda Xalqaro moliyaviy institutlardan past foizli kreditlar olish orqali resurs tannarxini kamaytirish hamda Davlat dasturlari orqali subsidiyalangan resurslari arzon resurslardan foydalanish imkonini beradi.

Kredit manbasini diversifikatsiya qilish banklarning tavakkalchiliklarni boshqarishi va barqaror resurslar bazasini ta'minlashi uchun muhim. Xorijiy va ichki manbalar, turli valyutalar, hamkorlik imkoniyatlari va resurslarni diversifikatsiyalash usullari bankka resurs tannarxini pasaytirish, xavflarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatini beradi. Bu yondashuv orqali banklar kredit resurslarini optimallashtirib, mijozlarga xizmat sifatini oshirishga va moliyaviy natijalarni yaxshilashga erishadi.

Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalarni tatbiq etish ham banklarning kredit resurslarini boshqarishda samaradorligini oshiradi. Fintech yechimlari mijozlar bilan tezkor aloqalarni o'rnatish, jarayonlarni avtomatlashtirish va yangi moliyaviy mahsulotlarni joriy etish imkonini beradi, bu esa bankning resurs bazasini kengaytiradi.

Mazkur yo'nalishlar nafaqat banklar faoliyatining barqarorligini oshirishga, balki milliy iqtisodiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Banklarning resurs bazasini kengaytirish va diversifikatsiya qilish ularga iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi, bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi.

Tijorat banklari iqtisodiy tizimda muhim o'rin tutadi va ularning asosiy vazifalaridan biri turli manbalardan moliyaviy resurslarni jalb qilib, ushbu resurslarni kredit sifatida iqtisodiyotning turli sohalariga yo'naltirishdir. Banklar ushbu jarayonda kredit qo'yilmalari manbalarini samarali va optimallashtirilgan holda boshqarishi lozim. Kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish — bu bankning resurs

bazasini kengaytirish va ulardan maksimal darajada foyda olish uchun samarali yondashuvlar ishlab chiqish jarayoni hisoblanadi.

34-jadval

Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirish yo‘nalishlari


Optimallashtirish yo‘nalishi	Tavsif
Moslashuvchan depozit siyosatini ishlab chiqish	Jismoniy va yuridik shaxslar uchun depozitlar bo‘yicha sharoitlarni yaxshilash orqali mablag‘larni jalb qilish (bonuslar, cashback, moslashuvchan foiz stavkalari joriy etish).
Bank mahsulotlari qatorini kengaytirish	Bank resurslarini ko‘proq jalb qilish imkonini beradigan obligatsiyalar va sertifikatlar kabi yangi moliyaviy vositalarni joriy etish.
Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik	Resurs bazasini mustahkamlash uchun xalqaro tashkilotlardan xorijiy investitsiyalar va kreditlar, shuningdek, grantlarni jalb qilish.
Davlat dasturlaridan foydalanish	Imtiyozli kredit resurslariga ega bo‘lish imkonini beradigan davlat kreditlash dasturlarida ishtirok etish.
Bank kapitalizatsiyasini oshirish	Yangi aksiyadorlarni jalb qilish yoki aksiyalar chiqarish orqali bankning o‘z kapitalini ko‘paytirish, bu kreditlash imkoniyatlarini mustahkamlashga yordam beradi.
Ichki zaxiralarni optimallashtirish	Xarajatlarni kamaytirish va likvidlikni boshqarish orqali ichki resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish.
Raqamli texnologiyalardan faol foydalanish	Mijozlar mablag‘larini tez va qulay jalb qilish va resurslarni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun fintech yechimlarini qo‘llash.
Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish	Bozor orqali o‘z obligatsiyalarini chiqarish kabi sheriklik va mahsulot turlarini kengaytirish orqali kredit resurslarining bitta manbaga bog‘liqligini kamaytirish.

Kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishda *AIDA* konsepsiyasi (Attention, Interest, Desire, Action)ning qo'llanilishi samarali vosita bo'lishi mumkin. *AIDA* konsepsiyasi dastlab marketingda mijozlarni jalb qilish jarayonini tavsiflash uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, uning bank faoliyatida kredit manbalarini optimallashtirish jarayonida qo'llanishi bankning resurs bazasini kengaytirish va rentabellikni oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

AIDA konsepsiyasining asosiy maqsadi — bankning resurslarni jalb qilish jarayonida mijozlar va investorlarning e'tiborini jalb qilishdan boshlab, ularni qiziqtirish, istak uyg'otish va nihoyat, ular tomonidan amaliy harakatlarni amalga oshirishga undashdir. Bu yondashuv orqali tijorat banklari o'z kredit qo'yilmalari manbalarini diversifikatsiya qilishi, yangi resurslarni jalb qilishi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

AIDA konsepsiyasi kredit manbalarini optimallashtirishda banklarning reklama, kommunikatsiya va strategik resurslarni jalb qilish usullari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu jarayonda raqobatbardoshlikni oshirish, bank xizmatlarini ommalashtirish va yangi moliyaviy manbalarni izlashda katta yordam beradi.

AIDA konsepsiyasi (Attention, Interest, Desire, Action) odatda marketing va mijozlarni jalb qilish jarayonlarida qo'llaniladigan yondashuv bo'lib, tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va resurslar jalb qilishda ham samarali bo'lishi mumkin. Bu yondashuv bankning passiv operatsiyalari — ya'ni depozitlarni jalb qilish va boshqa moliyaviy manbalarni yig'ish jarayonlarida mijozlarning e'tiborini jalb qilish, qiziqish uyg'otish, ularni istak bildirishga va keyingi harakatlarni amalga oshirishga undashga yordam beradi. Quyida *AIDA* konsepsiyasi bo'yicha tijorat banklarining passiv operatsiyalarida qanday qo'llanilishi tushuntirilgan:



41-rasm. AIDA konsepsiyasi bo'yicha tijorat banklarining passiv operatsiyalarini optimallashtirish yo'nalishlari⁹¹

1. Attention (E'tibor). Mijozlarning e'tiborini jalb qilish — bu AIDA jarayonining birinchi bosqichi bo'lib, bank o'zining mavjudligini va taklif qilayotgan depozit mahsulotlari yoki boshqa investitsion imkoniyatlar haqidagi xabarni keng auditoriyaga yetkazishi kerak.

-reklama va brend imiji: Banklar ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda va internetda samarali reklama kampaniyalarini olib borib, mijozlarning e'tiborini o'zlariga jalb qilishi mumkin.

- innovatsion mahsulotlar: Depozit bozorida e'tiborni tortadigan yangi yoki noyob moliyaviy mahsulotlarni joriy etish orqali banklar ko'proq e'tibor jalb qiladi.

- promoaksiyalar va maxsus takliflar: Depozitlarga yuqori foiz stavkalari, depozitlarga bonus dasturlari yoki yangi mijozlar uchun qisqa muddatli imtiyozlar orqali mijozlarni jalb qilish.

2. Interest (Qiziqish). E'tibor jalb qilinganidan so'ng, bank mijozlarda o'z mahsulotlariga qiziqish uyg'otishi kerak. Qiziqish

⁹¹ Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

bosqichi bank xizmatlari va mahsulotlari bo'yicha mijozlarning ongida mustahkam tushuncha hosil qilishni nazarda tutadi.

- maqsadli marketing: mijozlarning ehtiyojlarini o'rganib, ularga mos keladigan depozit va investitsiya mahsulotlarini taklif qilish. Masalan, kichik bizneslar uchun maxsus depozit hisobvaraqlari yoki yoshlarga mo'ljallangan imtiyozli hisobvaraqlar.

- ta'lim va tushuntirish: mijozlarga bank mahsulotlari haqida batafsil tushuntirish, ularning foydasi, xavfsizligi va qanday daromad keltirishi haqida ma'lumot berish orqali qiziqish ortadi.

-aloqa kanallari: Mijozlar bilan qulay va samarali muloqot kanallarini, masalan, mobil ilovalar, mijozlarga xizmat ko'rsatish markazlari va onlayn platformalar orqali ta'minlash. Bu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini sodda va tushunarli qilish kerak.

3. Desire (Istak). Qiziqish paydo bo'lganidan so'ng, mijozlar o'z ehtiyojlarini bankning mahsulotlari orqali qondirishni xohlashlari kerak. Ularni bankning mahsulotlaridan foydalanishga intilishlari uchun istak uyg'otish zarur.

- o'ziga xoslikni ko'rsatish: bank o'z mahsulotlarining noyobligi va raqobatchilaridan ustunliklarini ko'rsatishi kerak. Masalan, depozit bo'yicha yuqori foiz stavkasi yoki xizmat ko'rsatishda maxsus afzalliklar taklif qilish orqali mijozlarni jalb qilish.

- foydalanuvchi tajribasini yaxshilash: mijozlar uchun oson va qulay depozitlar ochish jarayonini yaratish orqali ularning istaklarini kuchaytirish mumkin. Bu jarayonni onlayn yoki mobil ilovalar orqali amalga oshirish o'z istagini qondirishga intilayotgan mijozlar uchun qo'shimcha qulaylik yaratadi.

- ishonch hosil qilish: mijozlar bankning barqarorligi, ishonchliligi va xavfsizligi haqida aniq ishonch hosil qilishlari kerak. Bu jarayonda mijozlarga kafolatlar, sug'urta tizimlari va bankning uzoq muddatli strategik rejalari haqida tushuntirish berilishi lozim.

4. Action (Harakat). Oxirgi bosqich — mijozlarni depozit yoki investitsiya mahsulotlaridan foydalanishga undash. Bu jarayonda mijozlar harakat qilib, bank xizmatlaridan foydalanishni boshlaydilar.

- Tezkor xizmat ko'rsatish: mijozlar uchun depozit ochish jarayoni soddalashtirilgan va tez bo'lishi kerak. Masalan, onlayn ariza berish, elektron imzo qo'yish va mobil ilovalar orqali hisob raqamlarini ochish kabi tezkor xizmatlar taqdim etish.

- qo'shimcha xizmatlar: depozit ochgan mijozlarga bankning boshqa xizmatlari, masalan, kredit kartalari, to'lov xizmatlari yoki boshqa investitsiya mahsulotlari bilan tanishtirish va qo'shimcha mahsulotlar orqali ularni bankka yanada bog'lash.

- fidoyilik dasturlari: mijozlarni sodiq mijozlar dasturlari orqali rag'batlantirish. Masalan, depozit ochgan mijozlar uchun keshbek yoki bonuslar taklif qilish ularni ko'proq jalb qiladi.

AIDA konsepsiyasini tijorat banklarida passiv operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida qo'llash mijozlarni jalb qilish va bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun samarali yondashuvdir. Bu strategiya banklarning depozitlarni ko'paytirish va yangi moliyaviy resurslarni jalb qilish jarayonini yaxshilaydi va mijozlar bazasini kengaytirish imkonini beradi.

AIDA modeli ba'zida haddan tashqari soddalashtirilgani uchun tanqid qilinadi. Masalan, AIDA modeli turli savdo nuqtalari orasidagi farqlarni hisobga olmaydi. Shu sababli, AIDA modelining turli xil modifikatsiyalari mavjud:

• **AIDCAS modeli:** E'tibor (Attention), Qiziqish (Interest), Istak (Desire), Ishonch (Confidence), Harakat (Action), Qoniqish (Satisfaction).

• **REAN modeli:** Yechim topish (Reach), Jalb qilish (Engage), Faollashtirish (Activate), Tarbiyalash (Nurture).

NAITDASE modeli: Ehtiyoj (Need), E'tibor (Attention), Qiziqish (Interest); Ishonch (Trust), Dizayn (Design), Harakat (Action); Qoniqish (Satisfaction), Baholash (Evaluation).

Ushbu modellarning qo'llanilishi marketing jarayonini yanada batafsil tahlil qilish va har bir bosqichda mijozlarga turli usullarda murojaat qilish imkonini beradi.

**Tijorat banklarida mijozlarni jalb qilishda foydalaniladigan
zamonaviy modellar amaliyoti tavsifi⁹²**

Model	Bosqichlar	Amaliyot
AIDCAS modeli	Attention (E'tibor)	Bank reklama kampaniyalari va marketing orqali ommaviy auditoriyaning e'tiborini jalb qiladi.
	Interest (Qiziqish)	Bankning xizmatlari va mahsulotlari qiziqarli va dolzarb ekanligini ko'rsatib, mijozlarning qiziqishini oshiradi.
	Desire (Istak)	Mijozlarda kredit mahsulotlariga nisbatan istak uyg'otiladi. Misol: afzalliklarni ko'rsatish.
	Confidence (Ishonch)	Mijozlarga bankning ishonchliligi, barqarorligi va xavfsizligi haqida aniq ma'lumotlar taqdim etiladi.
	Action (Harakat)	Mijozlar kredit mahsulotlaridan foydalanishga undaladi. Masalan, onlayn ariza topshirish imkoniyatlari.
	Satisfaction (Qoniqish)	Mijozlar xizmatdan mamnun bo'lib, bank bilan uzoq muddatli munosabatlar o'rnatadi.
REAN modeli	Reach (Yetkazish)	Bank reklamalari va raqamli marketing yordamida kengroq auditoriyaga mahsulotlarini yetkazadi.
	Engage (Jalb qilish)	Mijozlar bilan ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta yoki veb-sayt orqali faol muloqot qilinadi.
	Activate (Faollashtirish)	Mijozlarni kredit mahsulotlaridan foydalanishga undash, misol: maxsus takliflar yoki bonus dasturlari.
	Nurture (Tarbiya qilish)	Mijozlarga muntazam ravishda maslahatlar va xizmatlarni taklif etish orqali sodiqlikni oshirish.
NAITDASE modeli	Need (Ehtiyoj)	Mijozlarning moliyaviy ehtiyojlarini tahlil qilib, kredit mahsulotlarini shunga mos ravishda taklif etish.
	Attention (E'tibor)	Mahsulot yoki xizmatning mijoz uchun zarur ekanligini ta'kidlash orqali e'tibor jalb qilinadi.

⁹² Muallif tomonidan boshqa tadqiqot ishlari asosida mustaqil tayyorlandi.

Interest (Qiziqish)	Kredit mahsulotlarining afzalliklarini taqdim etib, mijozlarning qiziqishini oshirish.
Trust (Ishonch)	Mijozlar bankning ishonchliligi va xavfsizligiga ishonch hosil qilishlari uchun aniq dalillar keltiriladi.
Design (Dizayn)	Kredit mahsulotlarining foydalanuvchiga qulay va soddalashtirilgan xizmat dizayni orqali jalb qilish.
Action (Harakat)	Mijozlarni xizmatlardan foydalanishga undash. Masalan, tezkor xizmatlar orqali arizalarni ko'rib chiqish.
Satisfaction (Qoniqish)	Mijozlar xizmatdan mamnun qolib, bankka qayta murojaat qilishga rag'batlantiriladi.
Evaluation (Baholash)	Bank o'z xizmatlarini va mijozlarning fikr-mulohazalarini baholab, xizmat sifatini doimiy ravishda yaxshilaydi.

Ushbu modellar tijorat banklarining kredit qo'yimalari manbalarini optimallashtirish jarayonida mijozlar bilan samarali munosabat o'rnatishga yordam beradi. Har bir modelning bosqichlari orqali mijozlarning qiziqishi va ishonchini oshirish orqali bankning barqarorligi va resurs jalb qilish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Tijorat banklari AIDCAS, REAN va NAITDASE modellaridan foydalangan holda resurslarni jalb qilish strategiyalarini samarali qo'llash orqali muhim natijalarga erishgan. Ushbu modellar yordamida mijozlar bilan muloqot qilish va marketing jarayonlari aniq maqsadlar asosida optimallashtirilgan. Keling, ushbu modellarni amalda qo'llagan va muvaffaqiyatlarga erishgan banklarning tahlilini ko'rib chiqamiz.

AIDCAS modelini qo'llagan banklar mijozlarni jalb qilish va ularni bank mahsulotlariga bog'lashda samarali bo'lishdi. Misol tariqasida ba'zi banklarning muvaffaqiyatlari keltiriladi:

NatWest o'zining depozit va investitsiya mahsulotlari bo'yicha AIDCAS modelidan foydalangan holda reklama kampaniyalarini yo'lga qo'ydi. Ular reklamada mijozlarning e'tiborini jalb qiladigan noyob moliyaviy mahsulotlar va maxsus takliflar orqali istak va qiziqish uyg'otdi. Buning natijasida NatWest banki yangi mijozlar

bazasini kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. Bankning depozit jalb qilish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi.

Barclays o'zining sodiq mijozlar dasturini ishga tushirdi va ushbu dastur orqali "Satisfaction" (Qoniqish) bosqichini muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Bu bosqichda sodiq mijozlar uchun maxsus imtiyozlar, yuqori foizli depozitlar va boshqa qo'shimcha xizmatlar taqdim etildi. Natijada bank uzoq muddatli mijozlarni jalb qilish orqali barqaror resurs bazasini yaratdi.

REAN modeli bo'yicha resurslarni jalb qilish jarayonida banklar mijozlar bilan faol va interaktiv aloqalarni o'rnatishga e'tibor qaratishadi:

Lloyds Bank REAN modelidan foydalangan holda onlayn va mobil banking xizmatlarini rivojlantirdi. Bankning "Reach" bosqichida raqamli platformalardagi reklama kampaniyalari va targ'ibot ishlari orqali kengroq auditoriyani qamrab oldi. Keyingi bosqichda esa "Engage" orqali mijozlar bilan faol muloqot olib borilib, ularga individual takliflar yuborildi. Natijada, bank raqamli xizmatlar orqali ko'plab yangi mijozlarni jalb qildi va depozit jalb qilish hajmini oshirdi.

HSBC banki o'zining xalqaro operatsiyalarida REAN modelidan foydalangan holda raqamli kanallarda keng reklama kampaniyalarini amalga oshirdi va yangi hududlarda mijozlar bilan bog'lanishni kuchaytirdi. Bu orqali ular xalqaro miqyosda katta auditoriyaga yetib va ko'plab yangi mijozlar jalb qildi.

NAITDASE modelining "Need" (Ehtiyoj) bosqichi banklar uchun muhim rol o'ynaydi, chunki mijozlarning aniq ehtiyojlarini tushunish va ularni qondirish orqali resurslarni jalb qilish samaradorligini oshirish mumkin:

Santander banki NAITDASE modelining "Need" bosqichi orqali mijozlarining moliyaviy ehtiyojlarini chuqur tahlil qildi va ularga maxsus moslashtirilgan kredit mahsulotlarini taqdim etdi. Bunda mijozlarning talablarini qondirishga qaratilgan kredit paketlari va imtiyozli shartlar ishlab chiqildi. Natijada bank o'zining kredit qo'yilmalari hajmini oshirdi va mijozlarning sodiqligini kuchaytirdi.

Deutsche Bank NAITDASE modelining "Trust" bosqichini muvaffaqiyatli qoʻllagan holda mijozlar orasida oʻzining moliyaviy barqarorligini va ishonchliligini targʻib qildi. Ular bankning ishonchli moliyaviy xizmat koʻrsatuvchi sifatidagi brend imijini kuchaytirib, koʻplab yirik investitsiyalarni jalb qilishga muvaffaq boʻldi.

Shunday qilib, AIDCAS, REAN va NAITDASE modellaridan foydalanish tijorat banklariga nafaqat yangi resurslar jalb qilishda, balki mijozlar bilan uzoq muddatli ishonchli munosabatlarni rivojlantirishda ham sezilarli natijalar keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ – huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.Sharq, 2003-yil;

1.2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni 1995-yil 21-dekabr;

1.3. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 1996-yil 25-aprel;

1.4. O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonuni 2009-yil 22-sentyabr;

1.5. O‘zbekiston Respublikasining “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi Qonuni 2011-yil 4-oktyabr;

1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5177-sonli Farmoni;

1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni;

1.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-noyabrdagi “Kreditorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillash-tirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 4026-soni qarori;

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyun-dagi PQ-3777-son «Har bir oila - tadbirkor» dasturini amalga oshirish to‘g‘risida»gi qarori

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3620 son Qarori;

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3270-sonli Qarori;

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-may-dagi PQ-2344-sonli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini

yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 25-son, 70-modda;

1.13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to‘g‘risida”gi 1306–sonli Nizom, 2004-yil 30-yanvar.

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-avgustdagi “Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 2709– sonli Nizom.

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdorlari to‘g‘risida”gi 2707-sonli Nizom 05.08.2015;

1.16 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 2693-sonli nizom, 06.07.2015;

1.17. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Foizlarni o‘stirmaslik to‘g‘risida”gi 1304-sonli Nizom,24.01.2004;

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ma’ruza va asarlari

2.1. Mirziyoyev Sh.M., “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.- Toshkent:2016.-56-b.

2.2. Mirziyoyev Sh.M., “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”.- Toshkent: “O‘zbekiston”. 2017.-104-b.

2.3. Mirziyoyev Sh.M., “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. – Toshkent: “O‘zbekiston”. 2017. – 48-b.

2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2023.

III.Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

3.1. “Asakabank” AJ ning kredit siyosati;

3.2. “Aloqabank” AT ning yillik hisobot ma’lumotlari;

3.3. “Asakabank” AJ ning yillik hisobot ma’lumotlari;

- 3.4. “Aloqabank” AT ning kredit siyosati;
- 3.5. Basel Committee on Banking Supervision «International regulatory framework for banks», Consultative document, Basel: Bank for International Settlements, 2010.
- 3.6. Jijun Niu Loan growth and bank valuations The Quarterly Review of Economics and Finance 61 (2016) 185–191 www.elsevier.com/locate/qref
- 3.7. Mishkin, Frederic S., Stanley, Eakins G., Financial markets and institutions, 7th edition, Prentice Hall, The USA, 2012.
- 3.8. Abdullaev Yo., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD – MOLIYA”, 2009 y. – 548-bet.
- 3.9. Abdullaeva Sh. Bank ishi Darslik. Toshkent, 2017.
- 3.10. Abdullaeva Sh.Z. «Bank risklari sharoitida tijorat banklari kredit portfelini diversifikasiyalash» i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2000-y. – B.323.
- 3.11. Банковский менеджмент: учебник / под ред. О.И.Лаврушина. - М.: Кнорус, 2011. – 560-с.
- 3.12. Банковское дело. Управление и технологии: учебник / под ред. А.М. Тавасиева. - М.: Юнити-Дана, 2005. – 671-с.
- 3.13. Зобова Е.В. Управление кредитным портфелем коммерческого банка на современном этапе // Социально-экономические явления и процессы. №4 (038). 2012. С. 46 - 50.
- 3.14. Iminov O.K. “Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit tizimi va uni takomillashtirish masalalari”, i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. – Toshkent, 2002 y. B.38.
- 3.15. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati, -Toshkent, 2008. –B.38.
- 3.16. Sattarov O.B., O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta’minlash metodologiyasini takomillashtirish i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2018 y. – B.67.
- 3.17. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot.

3.18. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023-2024-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari”.

3.19. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliyaviy barqarorlik departamenti tomonidan tayyorlangan “Qarz yuki tahlili va xatarlar” ma’lumotlari.

3.20. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, “Statistik-byulleteni” - 2019, 2020, 2021, 2022-yillar ma’lumotlari.

IV. Boshqa adabiyotlar

- 4.1. www.gov.uz O‘zbekiston Respublikasi hukumati portal;
- 4.2. www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti;
- 4.3. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi;
- 4.4. www.stat.uz O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi rasmiy sayti;
- 4.5. www.agrobank.uz Agrobank ATBning rasmiy sayti;
- 4.6. www.mikrokreditbank.uz Mikrokreditbank ATBning rasmiy sayti;
- 4.8. www.bis.org Bazel qo‘mitasi rasmiy sayti;
- 4.9. www.elsevier.com Elsevier kompaniyasi rasmiy sayti;
- 4.10. www.scopus.com Scopus kompaniyasi rasmiy sayti;
- 4.11. www.ecb.europa.eu Yevropa Markaziy banki rasmiy sayti;
- 4.12. www.fred.stlouisfed.org AQSh Federal rezerv tizimi rasmiy sayti;
- 4.13. www.iacpm.org Xalqaro kredit portfeli menejerlari Assotsiatsiyasi sayti.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

I BOB. TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARI MANBALARI SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalari, ularning tarkibi va tavsifi.....	6
1.2. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini optimal- lashtirishning asosiy mezonlari va konsepsiyalari	24
1.3. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini opti- mallashtirishning ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi.....	37

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARI MANBALARINING AMALIY HOLATI

2.1. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarining joriy holati tahlili	54
2.2. Kredit qo‘yilmalari manbalarini samarali boshqarish asoslari.....	71
2.3. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini optimallashtirishga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	86

III BOB. TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARI MANBALARINI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalari samara- dorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar.....	96
3.2. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari manbalarini opti- mallashtirish yo‘nalishlari.....	109
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	137

ADILOV MIRKOMIL MIRALIMOVICH

**TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARI
MANBALARINI OPTIMALLASHTIRISH
MASALALARI**

Monografiya

Toshkent – «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» – 2026

Muharrir:	Sh. Kusherbayeva
Tex. muharrir:	Sh. Mirqosimova
Rassom:	U. Ortiqov
Kompyuterda sahifalovchi:	D. Raxmatova



E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 97-450-11-14, 93-381-22-07.

Bosishga ruxsat etildi 26.01.2026.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Times New Roman» garniturasini.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 9,25. Nashriyot bosma tabog‘i 9,0.

Tiraji 100. Buyurtma № 3.

**«Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Foziltepa ko‘chasi, 22 b uy.**